



QARSHI
DAVLAT
UNIVERSITETI

ONOMASTIKA

ОНОМАСТИКА
ONOMASTICS

2025

№1

ONOMASTIKA

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
XALQARO ELEKTRON ILMIY JURNAL

ОНОМАСТИКА

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

ONOMASTICS

KARSHI STATE UNIVERSITETE
INTERNATIONAL ELECTRON SCIENTIFIC JOURNAL

2025/1

QARSHI – 2025



**“ONOMASTIKA”
XALQARO ELEKTRON
ILMIY JURNALI**

Bosh muharrir:

Xo‘jamurod JABBOROV
f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Vazira NAFASOVA f.f.f.d.
(PhD) (O‘zbekiston)

Mas‘ul kotib:

Ra‘no SAYDULLAYEVA
f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Xalqaro elektron ilmiy jurnal
2024-yil 31-yanvarda
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan № 215315 raqamli
guvohnoma bilan ro‘yxatga
olingan.

**MUROJAAT UCHUN
MANZIL:**

Pochta manzili: 180003,
Qarshi,

Ko‘chabog‘ 17. Qarshi davlat
universiteti, Filologiya fakulteti
binosi, 219-xona.

Telefon: , +998912205238;

TelegramID:

<https://t.me/QarDUonomastika>

Elektron pochta: e-mail:

xojamurod@list.ru

Veb-sayt:

<https://qarshidu.uz/uz>

TAHRIR HAY’ATI:

Mail Binnat ASKEROV
Zaribbay DO‘SIMOV
Gulshat Raisovna GALIULLINA
Marina Vasilevna GOLOMIDOVA
Dilmurod HOMIDOV
Nishonboy HUSANOV
Suyun KARIMOV
Hikmet KORAŞ
Nelli Aleksandrovna KRASOVSKAYA
Lala Guseyn qizi KULIYEVA
Nizomiddin MAHMUDOV
Ibodulla MIRZAYEV
Sidiqjon MO‘MINOV
Firangiz Shaxmurovna PASHAYEVA
Abdulxay SOBIROV
Vasiliy SUPRUN
Nosirjon ULUQOV
Durdona XUDOYBERGANOVA
Odil BEGIMOV
Maysara DANIYEVA
Muyassar SAPARNIYOZOVA
Mo‘min TURDIBEKOV
Komil MARKAYEV
Bayramali KILICHEV
Sharifjon YOQUBOV
İbrahim ŞAHIN
Abdivohab ZAKIROV
Dilrabo ANDANIYOZOVA
Sabohat KENJAYEVA
Yulduz NE‘MATOVA
Feruz RAJABOV
Sherali TEMIROV
Nurbek GANIYEV
Nigora XOMIDOVA

f.f.d., professor (Ozarbayjon)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (Tojikiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Turkiya)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (Азербайджан)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Turkiya)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (Turkiya)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston) (Kotib)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI:

Akmal SAIDOV
Qalandar ABDURAHMONOV
Dilmurod NABIYEV
Ilhom BEKPO‘LATOV
Elzara GAFIYATOVA
Gulbahor TOJIYEVA
Otabek SHUKUROV
Nilufar YO‘LDOSHEVA
Baxtiyor RIZAYEV
Roxila RUZMANOVA
Yashnar AVLOQULOV
Muyassar TILLAYEVA
Dildor SHODMONOVA
Dilshoda IBRAGIMOVA
Quvondiq OLLOYOROV
Nilufar MO‘MINOVA

y.f.d. akademik (O‘zbekiston)
i.f.d. akademik (O‘zbekiston)
i.f.d. professor (O‘zbekiston)
f.m.f.d. (O‘zbekiston)
f.f.d., professor (Rossiya)
f.f.d., professor (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

MUNDARIJA

ONOMASTIKANING DOLZARB MUAMMOLARI

Islomov Ikrom Xushboqovich. Teonim va unga yondosh nomlar tizimi tadqiqi masalalari	8
Irisov Mirzohid Shodyorovich. Onomastik birliklarning xorijiy tilshunoslikda o'rganilishi	16

TARIXIY VA ZAMONAVIY ONOMASTIKA

Yoqubov Sharif. Alisher Navoiy asarlarida Zuhra atamasining talqini	24
Majidova Shahnoza Komilovna. Tarixiy va zamonaviy joy nomlarning lingvistik tadqiqi (Termiz toponimi misolida)	34
Xomidova Nigora O'rinovna. Xalq o'yinlari nomlari – o'zbek va rus xalqi ijodiy faoliyatining noyob manbasi	40

TOPONIMIKA

Turdibekov Mo'min To'rayevich. Onomastik birliklar haqidagi ba'zi qarashlar ..	51
G'aniyev Nurbek O'ktamovich. Qiziltepa hududi toponimiyasining tarixiy-madaniy tahlili	56
Ergasheva Nodira Abdurayimovna. Konchilik va geologiya sohasiga oid toponimlar tadqiqi	64
Bobomurodova Mahzuna Ortiq qizi. Buxoro gidronimlarining tipologik tahlili	70
Nayimova Aziza Dilmurot qizi. Said Ahmadning "Ufq" asaridagi toponimlar tahlili	76



МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ОНОМАСТИКА”

Главный редактор:
Ходжамурод ДЖАББАРОВ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:
Вазира НАФАСОВА д.ф.ф.н.
(PhD) (Узбекистан)

Ответственный секретарь:
Раъно САЙДУЛЛАЕВА
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Международный электронный
научный журнал
зарегистрирован 31 января
2024 года № 215315
Агентством информации и
массовых коммуникаций при
Администрации Президента
Республики Узбекистан.

КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:
Почтовый адрес: 180003, г.
Карши,
Кучабог, 17. Каршинский
государственный университет,
Филологический факультет,
каб. 219.

Телефон: , +998912205238;
TelegramID:
<https://t.me/QarDUonomastika>
Электронная почта: e-mail:
xojamurod@list.ru
Veb-sayt:
<https://qarshidu.uz/uz>

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Маил Биннат АСКЕРОВ
Зариббай ДУСИМОВ
Гульшат Раисовна ГАЛИУЛЛИНА
Марина Васильевна ГОЛОМИДОВА
Дилмурад ХОМИДОВ
Нишонбой ХУСАНОВ
Суюн КАРИМОВ
Хикмет КОРАЎ
Нелли Александровна КРАСОВСКАЯ
Лала Гусейн кизи КУЛИЕВА
Низомиддин МАХМУДОВ
Ибодуллал МИРЗАЕВ
Сидикжан МУМИНОВ
Фирангиз Шахмуровна ПАШАЕВА
Абдулхай СОБИРОВ
Василий Иванович СУПРУН
Носиржон УЛУКОВ
Дурдона ХУДОЙБЕРГАНОВА
Маралбек ЕРМУХАМЕТ
Одил БЕГИМОВ
Майсара ДАНИЕВА
Икром ИСЛОМОВ
Муяссар САПАРНИЯЗОВА
Мумин ТУРДИБЕКОВ
Комил МАРКАЕВ
Байрамали КИЛИЧЕВ
Шарифжан ЯКУБОВ
Ибрагим ШАХИН
Абдивохаб ЗАКИРОВ
Дилрабо АНДАНИЯЗОВА
Сабохат КЕНЖАЕВА
Юлдуз НЕМАТОВА
Феруз РАЖАБОВ
Шерали ТЕМИРОВ
Нурбек ГАНИЕВ
Нигора ХОМИДОВА

д.ф.н., профессор (Азербайджан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Россия)
д.ф.н., профессор (Россия)
д.ф.н., профессор (Таджикистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Турция)
д.ф.н., профессор (Россия)
д.ф.н., профессор (Азербайджан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Турция)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Россия)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Казахстан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
к.и.н., профессор (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Турция)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан) (секретарь)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

НАУЧНЫЙ СОВЕТ:

Акмал САИДОВ
Каландар АБДУРАХМАНОВ
Дилмурад НАБИЕВ
Бекпулатов ИЛХОМ
Эльзара ГАФИЯТОВА
Гулбахор ТОЖИЕВА
Отабек ШУКУРОВ
Нилуфар ЙЎЛДОШЕВА
Бахтиёр РИЗАЕВ
Рохила РУЗМАНОВА
Яшнавар АВЛОКУЛОВ
Муяссар ТИЛЛАЕВА
Дилдор ШОДМОНОВА
Дилшода ИБРАГИМОВА
Кувандик ОЛЛОЁРОВ
Nilufar MO'MINOVA

д.ю.н., академик (Узбекистан)
д.э.н., академик (Узбекистан)
д.э.н. профессор (Узбекистан)
д.ф.-м.н. (Узбекистан)
д.ф.н., профессор (Россия)
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

СОДЕРЖАНИЕ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОНОМАСТИКИ

Исламов Икром Хушбокович. Проблемы исследования теонима и системы имен связанные с ними	8
Ирисов Мирзохид Шодиёрович. Изучение ономастических единиц в зарубежной лингвистике	16

ИСТОРИЧЕСКАЯ И СОВРЕМЕННАЯ ОНОМАСТИКА

Ёкубов Шариф. Интерпретация термина Зухра в творчестве Алишера Навои	24
Мажидова Шахноза Комиловна. Лингвистическое исследование исторических и современных топонимов (на примере топонима Термез)	34
Хомидова Нигора Уриновна. Названия народных игр – уникальный источник творческой деятельности узбекского и русского народов	40

ТОПОНИМИКА

Турдибеков Мумин Тураевич. Некоторые взгляды на ономастические единицы	51
Ганиев Нурбек Уктамович. Историко-культурный анализ топонимии Кызылтепинского района	56
Эргашева Нодира Абдурайимовна. Исследование топонимов в области горного дела и геологии	64
Бобомуродова Махзуна Ортик кизи. Типологический анализ бухарских гидронимов	70
Найимова Азиза Дилмурот кизи. Использование топонимов произведения Саида Ахмада “Уфк”	76



**INTERNATIONAL
ELECTRON SCIENTIFIC
JOURNAL
“ONOMASTICS”**

Chief editor:
Khujamurod DJABBAROV
Doc. of philol. scien., prof.
(Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:
Vazira NAFASOVA PhD
(Uzbekistan)

Executive secretary:
Rano SAYDULLAYEVA PhD
(Uzbekistan)

The international electronic scientific journal was registered on January 31, 2024 No. 215315 by the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan.

CONTACT ADDRESS:
Postal address: 180003, Karshi,
Kuchabog, 17. Karshi State
University,
Faculty of Philology, office.
219.
Phone: +998912205238;

TelegramID:
<https://t.me/QarDUonomastika>
Email: e-mail:
xojamurod@list.ru
Veb-sayt:
<https://qarshidu.uz/uz>

Mail Binnat ASKEROV
Zaribbay DUSIMOV
Gulshat GALIULLINA
Marina GOLOMIDOVA
Dilmurod KHAMIDOV
Nishonboy HUSANOV
Suyun KARIMOV
Hikmet KORAŞ
Nizomiddin MAKHMUDOV
Ibodulla MIRZAEV
Sidikjon MUMINOV
Abdulkhai SOBIROV
Vasilij Ivanovich SUPRUN
Nosirjon ULUKOV
Durdona
KHUDOYBERGANOVA
Maralbek ERMUKHAMED
Odil BEGIMOV
Maysara DANIEVA
Ikrom ISLOMOV
Muyassar SAPARNIYAZOVA
Mumin TURDIBEKOV
Komil MARKAEV
Bayramali KILICHEV
Sharifjon YOKUBOV
İbrahim ŞAHİN
Abdivohab ZAKIROV
Dilrabo ANDANIYAZOVA
Sabokhat KENJAYEVA
Yulduz NEMATOVA
Feruz RADJABOV
Sherali TEMIROV
Nurbek GANIEV
Nigora KHOMIDOVA

Akmal SAIDOV
Kalandar
ABDURAKHMANOV
Dilmurad NABIEV
Ilkhom BEKPULATOV
Elzara GAFIYATOVA
Gulbahor TOZHIEVA
Otabek SHUKUROV
Nilufar YULDASHEVA
Bakhtiyor RIZAEV
Rokhila RUZMANOVA
Yashnar AVLOKULOV
Muyassar TILLAIEVA
Dildor SHODMONOVA
Dilshoda IBRAGIMOVA
Kuvandik OLLOYOROV
Nilufar MUMINOVA

EDITORIAL TEAM:

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Tajikistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Türkiye)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Doc. of philol. scien., prof. (Kazakhstan)
Doc. of philol. scien., (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
Can. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
Can. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Türkiye)
Can. of philol. scien., assist. prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)

SCIENCE COUNCIL:

Doc. of Law, Academician (Uzbekistan)

Doc. of Economics, academician (Uzbekistan)
Doc. of Economics prof. (Uzbekistan)
Doc. of f-m. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
Doc. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)
Cand. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
Cand. of philol. scien., assist.prof. (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)
PhD, assist. prof. (Uzbekistan)
PhD (Uzbekistan)

CONTENT

CURRENT PROBLEMS OF ONOMASTICS

Islamov Ikrom Khushbokovich. Problems of research of theonim and the system of names related to them	8
Irisov Mirzohid Shoderovich. Study of onomastic units in foreign linguistics	16

HISTORICAL AND MODERN ONOMASTICS

Yokubov Sharif. Interpretation of the term Zuhra in the works of Alisher Navai ...	24
.....	34
Majidova Shakhnoza Komilovna. Linguistic study of historical and modern toponyms (on the example of the toponym Termez)	40
Khomidova Nigora Urinovna. Names of folk games are a unique source of creative activities of the uzbek and russian peoples	50

TOPONYMICS

Turdibekov Mumin Turaevich. Some views on onomastic units	51
Ganiev Nurbek Uktamovich. Historical and cultural analysis of toponymy of Kyzyltepinsky district.....	56
Ergasheva Nodira Abduraimovna. Study of toponyms in the field of mining and geology	64
Bobomurodova Makhzuna Ortik kizi. Typological analysis of Bukharan hydronyms	70
Nayimova Aziza Dilmurot kizi. Use of Toponyms in the work of Said Ahmad “Ufk”	76

ONOMASTIKANING DOLZARB MUAMMOLARI

TEONIM VA UNGA YONDOSH NOMLAR TIZIMI TADQIQI MASALALARI

Islomov Ikrom Xushboqovich

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Renessans ta'lim universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada onomastika fanining markaziy tushunchalaridan sanaladigan teonim va unga yondosh onomastik birliklar – mifonim, demononim, biblikal nom, nekronim, agnonimlarning onomastik, semantik, madaniy xususiyatlari tahlili va tadqiqi doirasidagi masalalarga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, teonim tushunchasi va uning atama sifatidagi ma'no-mundariyasi, teonimga yondosh tushunchalarni ifodalovchi onomastik birliklarning umumiy va farqli belgilari, ularning tadqiqi doirasidagi nazariy-amaliy masalalar mazmuni tahlilga tortilgan. Teonimlar semantik maydoni o'ziga yondosh boshqa onomastik birliklar tizimi bilan chegaradosh bo'lsa-da, alohida tushunchaviy markazga egaligini asoslovchi jihatlar tadqiq qilinadi. Bundan tashqari, teonim va unga yondosh onomastik birliklarning semantik, madaniy, diskursiv xususiyatlari, ularning ilmiy tadqiqi doirasidagi muammo va dolzarb vazifalarga e'tibor qaratiladi. Ushbu onomastik birliklarning badiiy matndagi ramziy-estetik vazifalari, ularning metaforik tabiati ilmiy-nazariy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: teonim, mifonim, onomastik birlik, nekronim, agnonim, madaniy semantika, badiiy matn, badiiy-estetik vazifa.

ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ТЕОНИМА И СИСТЕМЫ ИМЕН СВЯЗАННЫЕ С НИМИ

Исламов Икром Хушбокович

доктор филологических наук (DSc), доцент
университет Ренессанс

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы в рамках анализа и изучения ономастических, семантических и культурных особенностей теонима и связанных с ним ономастических единиц – мифонима, демононима, библейского имени, некронима, агнонима. Анализируются также понятие

теонима, его значение и содержание как термина, общие и отличительные черты ономастических единиц, выражающих сходные с теонимом понятия, а также содержание теоретических и практических вопросов в рамках их изучения. Хотя семантическое поле теонимов граничит с системой других родственных ономастических единиц, изучаются аспекты, обосновывающие наличие у них отдельного понятийного центра. Кроме того, уделяется внимание семантическим, культурным и дискурсивным характеристикам теонима и связанных с ним ономастических единиц, а также проблемам и актуальным задачам в рамках их научного изучения. На основе научно-теоретических источников освещаются символические и эстетические функции данных ономастических единиц в художественном тексте, их метафоричность.

Ключевые слова: теоним, мифоним, ономастическое единство, некроним, агноним, культурная семантика, художественный текст, художественно-эстетическая задача.

PROBLEMS OF RESEARCH OF THEONIM AND THE SYSTEM OF NAMES RELATED TO THEM

Islamov Ikrom Khushbokovich
doctor of Philological Sciences (DSc)
Associate Professor
Renaissance University

Annotation. This article examines issues within the framework of the analysis and study of onomastic, semantic and cultural features of the theonym and related onomastic units - mythonym, demononym, biblical name, necronym, agnonym. The concept of the theonym, its meaning and content as a term, common and distinctive features of onomastic units expressing concepts similar to the theonym, as well as the content of theoretical and practical issues within the framework of their study are also analyzed. Although the semantic field of theonyms borders on the system of other related onomastic units, aspects that justify the presence of a separate conceptual center are studied. In addition, attention is paid to the semantic, cultural and discursive characteristics of the theonym and related onomastic units, as well as problems and current tasks within the framework of their scientific study. Based on scientific and theoretical sources, the symbolic and aesthetic functions of these onomastic units in a literary text and their metaphorical nature are illuminated.

Keywords: theonym, mythonym, onomastic unity, necronym, agnonym, cultural semantics, artistic text, artistic and aesthetic task.

Kirish. Onomastikada, xususan, o‘zbek tili onomastikasi doirasida onomastik birliklar tadqiqi masalalari yanada keng ko‘lam kasb etmoqda. Onomastik birliklar, jumladan, teonim va unga yondosh birliklarning turli aspektlarda o‘rganilishiga keyingi yillarda alohida e‘tibor qaratilmoqda. Teonim o‘zbek tilshunosligida asosan onomastika, semasiologiya va lingvopoetika fanlari doirasida tahlil qilinadi.

Zamonaviy onomastika fanida **teonim** tushunchasi diniy, madaniy va metafizik konnotatsiyalarni mujassamlashtirgan eng muhim onomastik birliklardan biri hisoblanadi. Teonimlar – xudo (iloh) nomlarini ifodalovchi birliklar sifatida nafaqat diniy matnlar, balki xalq og‘zaki ijodi, tarixiy rivoyatlar va badiiy adabiyotlarda ham chuqur semantik xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Teonim tushunchasi va unga xos yoki aloqador sanalgan asosiy xususiyatlarni belgilash, baholash, albatta, uning boshqa yondosh hodisalari bilan bo‘lgan munosabati asosida ham hal qilinishi mumkin. Quyida teonim va unga yondosh onomastik birliklar, ya‘ni mifonim, demononim, biblikal nom, nekronim, agnonimning semantik va madaniy xususiyatlari, ularning tadqiqiga doir masala va vazifalarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Asosiy qism. Teonim (yunoncha *theos* – xudo, *onyma* – nom, ism) – bu ilohiy mavjudot, ya‘ni xudo nomini ifodalovchi onomastik birlikdir. Masalan: Alloh, Yahova, Zeus, Ahura Mazda, Shiva, Tengri kabi nomlar teonimlar sirasiga kiradi. A.V. Superanskaya teonimlarni “metafizik konseptni bildiruvchi nomlar” deb ataydi [7], ya‘ni ular inson tafakkuridagi eng yuqori darajadagi semantik birliklar sifatida tushuniladi. D.L.Shmelyov va E.M.Meletinskiylarning izlanishlariga ko‘ra, teonimlar mifologik strukturaning eng yuksak elementlari bo‘lib, ular diniy, falsafiy va madaniy konseptual tizimning markazida turadi [6]. Teonimlar ko‘pincha ramziy, rasmiy va badiiy matnlarda muqaddaslik, qudrat, abadiylik g‘oyalarini ifodalashda qo‘llanadi.

Mifonim esa afsonaviy yoki mifologik obrazlar nomidir. Masalan, Prometey, Gilgamish, Alp Er To‘nga kabi nomlar mifonim sifatida qoraladi. Ushbu birliklar qadimiy e‘tiqod, ijtimoiy ong va xalq tafakkurining mahsuli bo‘lib, ularni **arxetiplar** bilan bog‘lash mumkin. E.M.Meletinskiyga ko‘ra, “mifologik” so‘zi bu yerda mifologiya doirasidagi tushunchalarga oid, ya‘ni ilohiy mavjudotlar, yaratilish ssenariylari, qahramonlar, kosmogoniya (olamning yaralishi) va boshqa diniy-afsonaviy mazmundagi tushunchalarni bildiradi. Mifologik struktura insoniyat qadimiy dunyoqarashini aks ettiruvchi, miflarga asoslangan konseptual tuzilmalarni nazarda tutadi. Bu tuzilmalar esa eng yuqori semantik birliklar sifatida, ya‘ni mazmunij jihatdan eng muhim, asosiy g‘oya va tushunchalarni ifodalovchi birliklar sifatida ko‘riladi. Shuningdek, mifonimlar mifologik tafakkurning semantik

modellaridir: “Mifologik obrazlar qadimgi insoniyat ongidagi dunyoni anglash va tushuntirish vositasi bo‘lgan” [6, 48].

Mifonim va teonim tushunchalari bir-biriga yaqin, ammo semantik, konseptual va funksional jihatdan farqlanuvchi onomastik birliklar hisoblanadi. Taniqli nomshunos olim E.Begmatov tomonidan ham ushbu tushunchalarga aloqador teonimiya, mifonimiya o‘zbek onomastikasining 22 ta makroko‘lami tizimida alohida onomastik ko‘lam sifatida qayd qilinadi [3, 38]. Quyidagi jadval asosida ularning o‘zaro munosabatiga e‘tibor qaratamiz:

Xususiyatlari	Teonim	Mifonim
Lug‘aviy manbasi	<i>Theos</i> (yunoncha “xudo”) + <i>onyma</i> (ism)	<i>Mythos</i> (yunoncha “afsona”) + <i>onyma</i>
Asosiy ma’nosi	Xudo yoki ilohning nomi	Mifologik obraz (qahramon, kuch, timsol) nomi
Tushunchaviy markaz	Ilohiylik, muqaddaslik, abadiylik	Afsonaviylik, arxetip, xalq ongidagi rivoyat
Misollar	Alloh, Ahura Mazda, Zevis	Prometey, Gilgamish, Alp Er To‘nga

Umuman olganda, mifonim kengroq mifologik kontekstga ega bo‘lib, unda teonimlar bir qism sifatida mavjudlik kasb etadi, ya’ni har bir teonim mifonim bo‘lishi mumkin, ammo har bir mifonim teonim emas. Masalan, Zevis teonim, lekin u mifonim sifatida ham ishtirok etishi mumkin. Biroq Prometey mifonim, lekin teonim emas, chunki u xudo emas, afsonaviy qahramon sanaladi. Zamonaviy muloqotda mifonimlar reklama, kino, brendlar vositasida semantik qayta shakllanmoqda. Bu holat esa madaniy semantikaning o‘zgaruvchanligidan dalolat beradi. Lotmanning fikricha, “madaniy kontekstdagi semantik portlash” yangi diskursiv ma’nolarni yaratadi [5]. Mazkur birliklar timsoliy va ramziy tushunchani ifodalash; matnda qudrat, muqaddaslik, kuch, abadiylik g‘oyalariga ishora qilish; ko‘pincha metafora vositasi sifatida ishlatilishi kabi xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, turkiy xalqlardagi teonim va mifonimlarning tarixiy-rekonstruktiv jihatdan maxsus tadqiqi yetarli emas, ularning zamonaviy madaniyatdagi o‘rni va semantik o‘zgarishlari kam o‘rganilgan. Shuningdek, nekronimlar va xalq xotirasi o‘rtasidagi aloqadorlik masalasi, agnonimlarning lingvopoetik va psixologik asoslari chuqur o‘rganilishi lozim.

B.Kilichovning “Onomastika” (2023) nomli o‘quv qo‘llanmasida o‘zbek antroponimiyasini tadqiq qilish bilan bog‘liq ayrim dolzarb muammolar qatorida

mifonim va teonimlar masalasi, ularni o'rganish ahamiyati ham alohida ta'kidlanadi. Ayni shu manbada teonimiya turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari tarzida izohlanadi [10, 7]. Ko'rinadiki, teonim atamasi umumiy nom sifatida qayd qilingan. Biroq teonimlar turli diniy kontekstlarda shakllanadi va ularning semantik maydoni boshqa onomastik birliklar bilan chegaradosh bo'lsa-da, alohida tushunchaviy markazga ega hisoblanadi.

Turli madaniyatlardagi xudo nomlarining semantik va funksional tahlilini yagona uslubda amalga oshirish qiyin. Tarixiy-rekonstruktiv tahlillar yetarli emas, ko'plab teonimlar arxaik qatlamda saqlanib qolgan, ammo ularning lingvistik va semantik kelib chiqishi aniqlanmagan. Marhumlar xotirasini anglatuvchi ism yoki nomlar (masalan, maqbara, tosh yozuvi, xotira lavhalari, marhumlarga atalgan joy nomlari) – nekronimlar va ularning ijtimoiy xotira bilan bog'liqligi doirasida ilmiy izlanishlarga ehtiyoj seziladi. Ko'plab nekronimlar rivojlanayotgan urbanizatsiya fonida yo'qolib bormoqda yoki o'zgartirilmoqda. Ularning antropologik va madaniy qadriyat sifatidagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq.

Onomastik birliklar tizimi chuqur qatlamli, ijtimoiy, diniy va madaniy konnotatsiyalarga ega murakkab tizimdir. Onomastikada xudo, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlarini ifodalashga xizmat qiluvchi alohida atamalar qayd qilinadi.

Shu bois teonim va unga yondosh tushunchalarni ham o'zaro farqli belgi-xususiyatlariga ko'ra farqlash, tavsiflash maqsadga muvofiqdir. Teonimga yondosh, biroq semantik darajalari bilan farqlanuvchi onomastik birliklar ham turli nutq, muloqot tarkibida o'ziga xos o'rni va vazifalariga ega. Jumladan: **Demononim** – yovuz kuchlar yoki salbiy obrazlar nomlari: *Iblis, Shayton, Azozil*. **Biblikal nom** – diniy matnlarda zikr etilgan muqaddas shaxslar ismlari, ya'ni **xudoning elchilari yoki aziz-avliyolarning** ismlaridir: *Muso, Iso, Nuh, Muhammad* kabilar. **Nekronim** – marhum tarixiy shaxslar nomlari, aziz kishi sifatida xotirlanadigan shaxslar ismlari: *Shayx Xovandi Tohur, Imom Buxoriy* va boshq. **Agnonim** – taxallus yoki muayyan maqsadda tanlangan nomlar: *Muxtor, Navro'z* kabilar. Sanab o'tilgan har bir birlik diniy-madaniy konnotatsiyaga ega bo'lib, ularning badiiy matnlardagi ishlatilishi ramziy-estetik ma'no hosil qiladi. Bunday nomlar ko'pincha badiiy matnlarda timsollilik, metafora va intertekstual bog'lanishlar orqali yangicha ma'noga ega bo'ladi.

Teonim va yondosh nomlarning qiyosiy tahlilini jadval ko'rinishida quyidagicha ifodalash mumkin:

Onomastik birlik	Tavsifi	Misollar	O'ziga xos xususiyati
------------------	---------	----------	-----------------------

Teonim	Xudoning (ilohning) nomi	Alloh, Zevis, Ahura Mazda	Eng yuqori darajadagi diniy nom
Biblikal nom	Diniy matnlarda tilga olingan shaxslar (paygʻambarlar)	Muso, Iso, Nuh, Muhammad	Muqaddas shaxs
Mifonim	Afsonaviy yoki mifologik obraz ismlari	Prometey, Alp Er Toʻnga	Epos va mif asosli timsol
Demononim	Yovuz ruh, jin, shayton nomlari	Iblis, Azozil, Shayton	Salbiy konnotatsiyali onomastik birlik
Nekronim	Tarixiy shaxslar ismi	Shayx Xovandi Tohur	Muqaddaslashgan antroponimga aylanishi mumkin
Agnonim	Taxallus	Muhammad Ziyoy, Shavkat Rahmon	Teonimga bevosita aloqasi yoʻq
Antroponim (diniy)	Inson ismlaridan iborat, lekin diniy manbada uchraydi	Sodiq, Ismoil, Abdurahmon	Muqaddaslik yoki eʼtiqod ramzi sifatida

Teonimlar onomastik tizimning **eng yuqori darajasidagi birliklari** boʻlib, boshqa nomlar bilan yaqin semantik maydon hosil qilsa-da, ularning **tushunchaviy chegarasi qatʼiy** ajralib turadi. Ayniqsa, **biblikal nom, nekronim, agnonim** kabi birliklarning **semantik jihatlarini farqlash** monografik tarzda ilmiy izlanishlar uchun muhim asos boʻla oladi.

Onomastik birliklarning antroposentrik tadqiqi doirasida D.Xudoyberganovning izlanishlari alohida ahamiyatga ega. Olimaning “Matnning antroposentrik tadqiqi” asarida pretsedent nomlar yuzaga kelishining motivlarini qayd qilish davomida badiiy hamda diniy matnlarni ham sanab oʻtadi [7, 91]. Demak, teonimlar va ularga yondosh nomlar ham pretsedent nomlarning vujudga kelishining alohida omillaridan biri sanaladi. Teonimlarning badiiy matndagi konnotativ birliklar sifatidagi oʻrni va ahamiyati ham oʻziga xoslik kasb etadi. Mazkur tipdagi onomastik birliklar badiiy ifodaning metaforik maydonida muqaddaslik, ilohiylik, abadiylik singari semantik, madaniy belgi-xususiyat, axborotni ifodalaydi. Soha tadqiqotlarida qayd qilinganidek, nomlar badiiy matnda nominativ vazifa bilan bir qatorda tavsifiy,

g'oyaviy, estetik va ramziy vazifalarni bajaradi [1, 28] "Badiiy matnda teonimlar diniy-estetik konseptlarni ifodalasa, mifonimlar arxetipik qatlamni tasvirlaydi." [1, 61] Teonimlar badiiy matnning estetik-falsafiy qatlamini tashkil etuvchi ramziy birliklar sifatida tahlil qilinadi. Badiiy adabiyotda teonimlar qahramon ruhiyati, jamiyat e'tiqodi va falsafiy fikrlash doiralarini yoritishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Ma'lumki, onomastik birliklarning badiiy matnlardagi ishlatilishi ko'pincha **metafora, allegoriya, intertekstual** vositalar orqali amalga oshadi. Teonimlar – ilohiylikni, mifonimlar – epik kuch va arxetipik obrazlarni, demononimlar – yovuz, salbiy kuchlar timsolini bildiradi. Yakobson fikricha, "badiiy matnda ism, nom funksiyasi referentdan ko'ra ko'proq semantik kuchga ega" [8]. Masalan, "U go'yoki Muso kabi elatni boshqarardi" iborasi orqali qahramon biblikal nomga ulanadi, u orqali ramziy yetakchilik g'oyasi ifodalanadi. Ism, nomlarning badiiy matndagi estetik, semantik vazifa va imkoniyatlarini onomapoetik tahlil qilish metodikasi shakllanmagan. Kishi ismlarining badiiy asardagi semantik xususiyati, psixologik motivini tahlil qilish hali keng joriy etilmagan.

Onomastik tadqiqotda ta'kidlab o'tilganidek, "Tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diniy, mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma'lum bo'lgan faktlarga ishora qilish, ulardagi nomlar va turg'un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish usuli – allyuziya badiiy matnda keng tarqalgan." [1, 19] Diniy, mifologik tushunchalar bilan bog'liq teonim, mifonimlar ham allyuziyaning yuzaga kelishida ishtirok etuvchi poetonim birliklar darajasida ham qayd qilinishi anglashiladi.

Natijalar va muhokama. Yuqoridagi qayd qilingan onomastik tushuncha va terminlar bilan bog'liq masalalar doirasida quyidagilarni alohida ta'kidlash lozim: teonimlar diniy, tarixiy va madaniy jihatdan turli qatlamga mansub bo'lsa-da, ularni semantik toifalarga ajratish mezonlari aniqlanmagan; mifonim va teonimlarning kesishuv nuqtasi mavjud, lekin ularni ajratuvchi nazariy mezonlar tizimiy xarakter kasb etmaydi; biblikal nom va teonimlar chalkash qo'llaniladi; nekronim va agnonimlarning onomastik maqomi aniqlanmagan, ushbu birliklar antroponim doirasida yondashiladi, lekin diniy konnotatsiyasi bo'lgan holatlar (masalan, Imom Buxoriy, Shayx Xovandi Tohur) yetarli o'rganilmagan; teonimlarning leksikografik aks ettirilishi yetarli emas, o'zbek tilidagi izohli lug'atlarda teonimlar yoki mifonimlar maxsus belgilar bilan ajratilmaydi, stilistik-tarixiy ma'lumotlar berilmaydi; badiiy matnda onomastik birliklarning lingvopoetik tahlili kam, ko'pgina teonimlar va mifonimlar metaforik, simvolik yoki intertekstual vosita sifatida ishlatiladi, ammo bu jihatlar hali keng tadqiq etilmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mazkur masalalar doirasidagi dolzarb vazifalar sifatida quyidagilarni qayd qilish joiz deb hisoblaymiz:

teonim, mifonim, demononim, nekronim va agnonim kabilar orasidagi semantik chegaralarni belgilovchi nazariy model ishlab chiqish;

teonimlarni diniy manbalar, xalq ogʻzaki ijodi va badiiy adabiyotlar asosida turkumlarga ajratish, ularning funksional tiplanishini yaratish;

teonim va unga yondosh onomastik birliklarni izohli, sinonimik, tarixiy va mavzuiy lugʻatlar asosida belgilash va tasniflash;

badiiy matnlarda teonimlarning metafora, allegoriya va arxetipik vazifalarini tadqiq qilish;

turkiy xalqlar mifologiyasidagi teonim va unga yondosh onomastik birliklarning kelib chiqishi va evolyutsiyasini aniqlash;

teonim va agnonimlarning xalq xotirasi, diniy eʼtiqod va madaniy qadriyatlar bilan bogʻliq konnotatsiyalarini tahlil qilish kabilar.

Xulosa. Teonim va unga yondosh onomastik birliklar oʻzbek adabiyoti, xalq ogʻzaki ijodi va madaniy tafakkuridagi chuqur semantik qatlamlardir. Ularning lingvopoetik, ramziy, estetik va madaniy xususiyat hamda vazifalarini aniqlash, baholash ham onomastika fanining asosiy vazifalaridandir.

Shuningdek, oʻzbek tilida teonimlarning leksikografik ifodasi masalasi ham alohida ilmiy izlanishlarni taqozo qiladi. Xususan, diniy leksik birliklarning izohli lugʻatlarda qay tarzda berilishi, ularning sinonimik qatori, stilistik jihatdan ishlatilish konteksti (chegaralanmagan, neytral, arxaik, poetik) kabi holatlar hali toʻliq tadqiq qilinmagan. Bu esa teonimlarning til tizimidagi leksik-semantik maqomini chuqur oʻrganish zarurati mavjudligini koʻrsatadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, oʻzbek onomastikasida teonimlar alohida semantik, poetik va diniy belgi-xususiyatga ega birliklar sifatida eʼtirof etiladi. Ularni keng koʻlam va aspektda tizimli tahlil qilish orqali diniy-madaniy tafakkurning til orqali ifodalanish mexanizmlarini aniqlash mumkin boʻladi. Bundan tashqari, teonimlarning oʻzbek tili leksikografiyasida rasmiy shaklda qayd qilinishi, tasniflanishi va poetik konnotatsiyasini tahlil qilish keyingi izlanishlar uchun muhim ilmiy yoʻnalish sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. фалс. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 48 б.
2. Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – М.: Просвещение, 1983.
3. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.
4. Калинин В.М. Поэтика онима. – Донецк: Юго-Восток, 1999.
5. Лотман Ю. Культура и взрыв. – М.: Прогресс, 1992. – 272 с.
6. Мелетинский Е.М. От мифа к литературе. – М., 2000. – 168 с.

7. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного/А.В. Суперанская. – 2-е изд., испр. – М.: Изд-во ЛКИ, 2007. – 368 с.
8. Худойберганаева Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.
9. Jakobson R. Linguistics and Poetics. In: Style in Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1960.
10. Kilichov B. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, 2023.

ONOMASTIK BIRLIKLARNING XORIJIY TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI

Irisov Mirzohid Shodyorovich
magistrant
Xalqaro innovatsion universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon tilshunosligida onomastik materiallarning turli funksional aspektlarda tadqiqini amalga oshirgan hamda davom ettirayotgan L.A.Vvedenskaya, E.M.Murzayev, N.P.Kolesnikov, D.S.Mgeladze, T.N.Kondratev, A.M.Selishev, P.T.Porotnikov, V.K.Chichagov, L.M.Shetinin, O.N.Trubachev, N.A.Petrovskiy, A.V.Superanskaya, B.O.Unbegaun, Y.A.Fedosyuk, S.I.Zinin, E.B.Magazanik, V.N.Mixaylov, O.I.Fonyakova, M.V.Bobrova, I.M.Ganjina, M.Y.Chernenok kabi olimlarning tadqiqotlariga munosabat bildirilib, atoqli otlarning badiiy matndagi tutgan o‘rni, faolligi haqida qimmatli fikrlar qayd etilgan. Shuningdek, sohaga doir tadqiqotlarni kuzatish natijasida, dunyo, ayniqsa, rus, ingliz, nemis tilshunosligida onomastika hamda ushbu sohaning antroponimika, toponimika kabi yo‘nalishlarini o‘rganishga qiziqish xorijiy mamlakatlarda juda ortganligi, hamda bugungi kunga kelib badiiy va folklor asarlari matnidagi onomastik birliklar tadqiqiga bag‘ishlangan bir qator doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilinayotganligi, shu bilan birga, soha rivoji uchun munosib hissa qo‘sha oladigan qator monografiyalar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, lug‘atlar va maqolalarni nashr etish tilshunoslar oldida turgan galdagi vazifa bo‘lib qolayotganligi ta’kidlanib, maqola so‘ngida xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, antroponim, toponim, zoonim, folklor onomastikasi, apellyativizatsiya, onimizatsiya, transonimizatsiya.

ИЗУЧЕНИЕ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ЗАРУБЕЖНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Ирисов Мирзохид Шодиёрович

магистрант

Международный инновационный университет

Аннотация. В статье говорится об исследованиях таких ученых, как Л.А. Введенская, Э.М. Мурзаев, Н.П. Колесников, Д.С. Мгеладзе, Т.Н. Кондратьев, А.М. Селищев, П.Т. Поротников, В.К. Чичагов, Л.М. Щетинин, О.Н. Трубачев, Н.А. Петровский, А.В. Суперанская, Б.О. Унбегаун, Я.А. Федосюк, С.И. Зинин, Е.Б. Магазаник, В.Н. Михайлов, О.И. Фонякова, М.В. Боброва, И.М. Ганжина, М.Ю. Черненко, которые проводили и продолжают изучать ономастический материал в различных функциональных аспектах в мировой лингвистике. Также рассуждается о роли и активности имен собственных в художественных текстах. Также отмечается, что в результате наблюдения за исследованиями, как антропонимия и топонимия в мировом, особенно русском, английском и немецком языкознании, значительно возрос за рубежом. К настоящему времени защищен ряд докторских и кандидатских диссертаций, посвященных изучению ономастических единиц в тексте литературных и фольклорных произведений, в то же время изданы ряда монографий, учебных пособий, словарей и статей, которые могут внести достойный вклад в развитие ономастики.

Ключевые слова: ономастика, антропоним, топоним, зооним, ономастика фольклора, апеллятивизация, онимизация, трансонимизация.

STUDY OF ONOMASTIC UNITS IN FOREIGN LINGUISTICS

Irisov Mirzohid Shoderovich

Master's student

International Innovation University

Annotation. This article discusses the research conducted by scholars such as L.A. Vvedenskaya, E.M. Murzaev, N.P. Kolesnikov, D.S. Mgeladze, T.N. Kondratyev, A.M. Selishchev, P.T. Porotnikov, V.K. Chichagov, L.M. Shchetinin, O.N. Trubachev, N.A. Petrovsky, A.V. Superanskaya, B.O. Unbegaun, Y.A. Fedosyuk, S.I. Zinin, E.B. Magazanik, V.N. Mikhailov, O.I. Fonyakova, M.V. Bobrova, I.M. Ganzhina, and M.Yu. Cherninok, who have studied and continue to explore onomastic material in various functional dimensions within global linguistics. The article also reflects on the role and dynamism of proper names in literary texts.

Furthermore. It highlights the growing academic interest in anthroponymy and toponymy within global linguistic studies – particularly in Russian, English and German linguistics. To date, a number of doctoral and candidate dissertations have been defended, focusing on the study of onomastic units in literary and folkloric texts. In addition, numerous monographs, textbooks, dictionaries and scholarly articles have been published, all of which significantly contribute to the development of the field of onomastics.

Keywords: onomastics, anthroponym, toponym, zoonym, folklore onomastics, appellativization, onymization, transonymization.

Xorij tilshunoslari o‘z tadqiqotlarida onomastika sohasining lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika, kommunikativ lingvistika, onomasiologiya, nutq madaniyati, matn lingvistikasi, uslubshunoslik kabi tilshunoslikka oid fanlar bilan o‘zaro aloqador ekanligini ta’kidlashgan. Hozirgi kunda onomastika sohasiga oid tadqiqotlar faqatgina falsafiy va umumlingvistik an’analarga tayanib qolmasdan, sohadagi asosiy tarixiy jarayonlarning tadrijiy rivoji, onomastik lug‘atlarni yaratish tamoyillari, badiiy hamda folklor asarlari matnlaridagi onomastik birliklarni tahlilga tortish yo‘llarini qamrab olmoqda.

Mashhur rus tilshunoslaridan biri G.Y.Sizranovanning “Onomastika” nomli o‘quv qo‘llanmasi onomastika tadqiqiga bag‘ishlangan muhim manbalardan biridir. Ushbu qo‘llanmada ta’kidlanishicha, o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab atoqli otlar zamonaviy mavqeyiga ega bo‘la boshlagan. Olim aynan shu davrdan boshlab tilshunoslikning onomastika sohasiga doir tadqiqotlar doimiy ravishda olib borila boshlanganligini ta’kidlaydi hamda ilmiy izlanishlar jarayonida tadqiqotning obyekti va predmeti aniqlanganligi, onomastikaning metodologiyasi ishlab chiqilganligini e’tirof etadi [1, 3-4].

G.Y.Sizranovanning yozishicha, dunyo tilshunosligida onomastika sohasining taraqqiy etishiga Dj.Mill, B.Rassel, O.Yespersen, Y.Kurilovich, P.A.Florenskiy, A.F.Losev, A.A.Reformatskiy, V.V.Vinogradov va boshqalar o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar [1, 3-4].

Onomastikaning umumiy muammolari A.V.Superanskaya, N.V.Podolskaya, V.A.Nikonov, N.I.Tolstoy, O.N.Trubachev, V.D.Bondaletov, M.V.Gorbanevskiy tomonidan o‘rganilgan va o‘rganib kelinmoqda [1, 3-4].

S.I.Zinin, M.V.Karpenko, Y.L.Berezovich, A.K.Matveyev, V.I.Suprun, Y.A.Karpenko, I.V.Kryukovanning ishlarida esa atoqli otlarning asosiy turlariga ta’rif berilgan [1, 3-4].

Bugungi kunga kelib jahon tilshunosligida onomastik materiallar turli funksional aspektlarda: apellyativizatsiya, onimizatsiya, transonimizatsiya hodisalari L.A.Vvedenskaya, E.M.Murzayev, N.P.Kolesnikov, D.S.Mgeladze, T.N.Kondratyev

tomonidan o'rganildi. Onomastikaning muhim tarixiy jarayonlari A.M.Selishev, P.T.Porotnikov, V.K.Chichagov, L.M.Shetinin, O.N.Trubachevning ishlarida izohlandi, onomastik birliklarning alohida turlariga N.A.Petrovskiy, A.V.Superanskaya, B.O.Unbegaun, Y.A.Fedosyuk tomonidan leksikografik ta'rif berildi. S.I.Zinin, E.B.Magazanik, V.N.Mixaylov, O.I.Fonyakova, M.V.Bobrova, I.M.Ganjina, M.Y.Chernenok kabi olimlarning tadqiqotlarida atoqli otlarning badiiy matndagi tutgan o'rni, faolligi haqida qimmatli fikrlar qayd etilgan [1, 3-4].

Xorij, jumladan, rus tilshunoslari onomastik va antroponimik birliklarni o'rganishda boshqalarga nisbatan ancha faolligi bilan ajralib turadi. Bu yo'nalishda akademik A.M.Sobolevskiy, N.M.Tupikov, V.M.Solnsev, L.V.Uspenskiy, V.N.Nikonov, A.V.Superanskaya, V.D.Bondaletov, S.I.Zinin, M.Morozov, A.K.Matveyev, V.I.Suprun va boshqalar alohida monografik tadqiqotlar olib borishdi. Bu olimlar rus onomastikasi ilmini shakllantiribgina qolmasdan, uning ravnaqiga munosib ulush qo'shmoqdalar. Rus tilida onomastikaning turli masalalariga bag'ishlangan qator to'plamlar ham nashr qilindi. "Onomastika" (M., 1969), "Sharqiy slavyan onomastikasi" (M., 1972), "Ismlar etnografiyasi" (M., 1971), "Onomastika va me'yor" (M., 1976), "Tarixiy onomastika" (M., 1977), "O'rta Osiyo onomastikasi" (M., 1978) va boshqalar. "Bibliograflarning hisoblariga ko'ra, – deb yozadi V.A.Ivashko, – 1918-yildan to 1962-yilgacha sobiq Sho'ro davridagi barcha tillarda 800 dan ortiq ishlar onomastikaga bag'ishlab nashr qilingan, biroq keyingi 13 yilda, ya'ni 1962-1975-yillar davomida onomastika tadqiqiga doir nashr qilingan ishlarning umumiy soni 4515 tani tashkil qilgan" [2, 7]. Skopus jurnallari ro'yxatiga kiritilgan, Ural davlat universitetida nashr etilayotgan "Onomastika masalalari" ("Вопросы ономастики") jurnali hozirga qadar ham uzluksiz ravishda nashr etilmoqda.

Olima N.Mo'minova ham jahon tilshunosligida antroponimlarning o'rganilish darajasi haqida o'z qarashlarini bayon qilib, u atoqli otlarni o'rganish borasida turli xil metodlardan foydalangan ko'plab olimlarning ilmiy va falsafiy fikrlariga o'z munosabatini bildirgan. Jumladan, tadqiqotchi Aristotel, Demokrit, Geraklit kabi qadimgi yunon olimlarining asarlarida ham atoqli otlar va ularning grammatik xususiyatlari haqida xilma-xil fikr-mulohazalar bildirilganligini ta'kidlab o'tadi [3, 33-36].

Aristotelning "Poetika" asarida ham atoqli va turdosh otlar haqidagi qarashlar mavjud bo'lib, faylasuf ot haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Ot murakkab ma'no anglatuvchi, zamonni bildirmaydigan, qismlari o'z-o'zidan ma'no anglatmaydigan so'zdir" [4, 41]. N.Mo'minova olib borgan tadqiqotlarining natijalariga tayangan holda qadimdanoq atoqli va turdosh otlarni farqlash borasidagi munozaralarning

mavjudligini hamda antik davr olimlari o'z qarashlaridan kelib chiqib atoqli otlarni turdosh otlardan farqlashganligini ham ta'kidlab o'tgan.

B.Yo'ldoshevning qayd etishicha, eramizgacha I asrda yashagan Yuliy Polluks "Onomastika" nomli atoqli otlar izohiga bag'ishlangan lug'at yaratgan. Olim ushbu lug'atda Stoiklar, xususan, Xrisipp atoqli otlarni alohida til birligi, ya'ni so'zlar guruhi deb ta'riflagan. Uyg'onish va o'rta asrlar davrida (T.Gobbs, Dj.Lokk, G.Leybnits) hamda butun XIX asrda (Dj.Mill, X.Djozef va boshqalar) nomlarning leksik qatlamda tutgan o'rni masalasiga bag'ishlangan bahslar davom etdi. Bu borada eng asosiy masala atoqli otlarning qanday ma'no ifodalashini aniqlashdan iborat edi. XVIII–XIX asrlarda atoqli otlarning qanday ma'no ifodalashini o'rganish borasidagi muammolar faqat tilshunoslar tomonidan emas, mantiqshunoslar, faylasuflar tomonidan ham o'rganilgan. Bu boradagi muammoni tadqiq etishga taniqli ingliz mantiqshunos olimi Djon Styuart Mill (1806-1873) juda ko'p kuch sarfladi [5, 14]. Olimning ta'kidlashicha, atab qo'yilgan otlar atash ma'nosiga ega emas, biroq atoqli otlar turli xil belgi, yorliqlar sifatida predmetni bilish bilan birgalikda, ularni boshqa predmetlardan farqlab olishga ham ko'mak beradi. Hech qaysi predmet yoki inson ismi ularning tavsifini ko'rsatishga to'laligicha asos bo'lolmaydi.

Ingliz tilshunosi Alan Gardinerning "Atoqli otlar nazariyasi" (1954) asari orqali onomastika fanida yangi yutuqlarga erishildi. Olim Dj.Millning atoqli otlarning xuddi olmoshlar singari aniq ma'no ifodalay olmasligi to'g'risidagi qarashlariga munosabat bildirib, ular voqea-hodisa yoki predmet xususida aniq tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi degan xulosaga keladi va bu jihatdan atoqli otlarni ikki guruhga bo'ladi: a) mujassamlanuvchi, timsol bo'la oluvchi (воплощенный) atoqli otlar va b) mujassamlanmaydigan atoqli otlar kabi. M.Matnazarov onomastika fanidan o'quv-uslubiy majmuasida atoqli otlar xususida quyidagilarni qayd etgan: "Vilyam Shekspir, Temza daryosi kabi atoqli otlar mujassamlanuvchi atoqli otlar guruhiga kiradi, chunki ular ma'lum bir shaxs (bu o'rinda buyuk dramaturg) va geografik obyekt (bu o'rinda daryo) haqida umumiy, yaxlit tasavvur beradi. Agar biz oddiygina qilib Vilyam desak, bu mujassamlanmaydigan, kishi ismi haqida umumiy tasavvur beruvchi atoqli otni bildiradi. Tarixiy nuqtayi nazardan mujassamlanuvchi atoqli otlar oldinroq vujudga kelgan. Masalan, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi antroponimlar bu nazariyaga ko'ra mujassamlanuvchi atoqli otlar guruhiga kiradi, chunki ular mamlakatimiz davlatchiligi tarixi, madaniyatida juda katta o'rin tutgan mashhur shaxslar haqidagi timsollarni o'zida mujassamlashtiradi. Ota-onalar o'z bolalarining ana shunday mashhur shaxslarga o'xshashini orzu qilib qo'ygan Temur, Temurbek, Ulug'bek, Alisher, Bobur kabi antroponimlar esa mujassamlanmaydigan atoqli otlar sirasiga mansubdir" [5, 14].

Onomastika sohasida atoqli va turdosh otlarning o'rganilishi xususida M.Matnazarov shunday yozadi: "XX asrda atoqli otlar haqidagi mantiqiy yo'nalishni mashhur ingliz faylasufi va mantiqshunosi Bertran Rassel (1872-1970) yanada rivojlantirdi. Uning fikriga ko'ra, ma'lum makonda va zamonda atoqli otlar yordamida ifodalanuvchi ma'no turdosh otlarga nisbatan aniqroq, ilmiyroq xarakterga egadir. Bu jihatdan atoqli otlar bu, o'sha, ana shu, mana bu singari ko'rsatish olmoshlariga juda yaqin turadi" [5, 13].

Daniya tilshunosi Paul Kristofersen atoqli otlar bilan turdosh otlar orasidagi farqni ularning birinchisi aniq, konkret ma'noni, keyingisi esa mavhum ma'noni ifodalashida ko'radi [5, 13].

M.Matnazarov: "Atoqli otlar individning, shaxsning bevosita ismi, nomi bo'lsa, turdosh otlar bilvosita nomlardir. Turdosh otlar dastlab butun bir guruh, to'da nomini bildiradi, keyinchalik bu nom konkretlashadi" [5, 13], – deb ta'kidlagan edi.

M.Matnazarov: "M.I.Steblyn-Kamenskiy qadimgi island adabiyoti materiallari asosida onomastik leksikani mujassamlanish nuqtayi nazaridan o'rganar ekan, island adabiyotida qo'llangan onomastik leksikada umuman "mujassamlanish" hodisasi bo'lmaganligini qayd etgan. Uning fikricha, har qanday atoqli ot muayyan denotatni, ma'noni ifodalab kelgan" [5, 13], – deb ta'kidlaydi. Yuqoridagi qarashlardan ma'lumki, hozirga qadar ham atoqli otlar va ularning ma'noviy guruhlari haqida aniq to'xtamga kelinmagan, biroq aksariyat tadqiqotlar "atoqli otlarda aniq va mavhum tafakkur elementlari ifodalangan bo'ladi" degan qarashni tasdiqlaydi [5, 14].

XX asrning 60-70-yillarida rus tilshunosi V.Superanskaya atoqli otlarning tilshunoslikda, ayniqsa, dunyo tilshunosligida o'rganilish tarixi bilan shug'ullandi va "Atoqli otlarning umumiy nazariyasi" nomli tadqiqotini e'lon qildi. Ushbu tadqiqotdan so'ng V.A.Nikonovning "Ism va jamiyat" (1974), A.Karpenkoning "Atoqli va turdosh otlarni farqlashning nazariy asoslari" (1975), A.D.Zverevning "Atoqli va turdosh otlar haqida" (1976), I.I.Kovalikning "Ukrain tilida atoqli va turdosh otlar" (1977) nomli asarlari e'lon qilindi [5, 15] va "Atoqli va turdosh otlar" nomli maxsus ilmiy to'plam nashr qilindi (1978) [5, 15].

Sohaga doir tadqiqotlarni kuzatishimiz shuni ko'rsatdiki, dunyo, ayniqsa, rus, ingliz, nemis tilshunosligida onomastika hamda ushbu sohaning antroponimika, toponimika kabi yo'nalishlarini o'rganishga qiziqish xorijiy mamlakatlarda juda ortgan. Onomastika va uning sohalarini o'rganishda ingliz, nemis, rus va boshqa xorijiy olimlarning xizmatlarini alohida e'tirof etish mumkin. Bugungi kunga kelib badiiy va folklor asarlari matnidagi onomastik birliklar tadqiqiga bag'ishlangan bir qator doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, shu bilan birga, soha rivoji uchun munosib hissa qo'sha oladigan qator monografiyalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, lug'atlar va maqolalar nashr etilgan.

Endi bevosita bugungi kunda badiiy va folklor asarlari hamda dialektlar tarkibidagi onomastik birliklar tadqiqi bilan shug'ullangan rus olimlarining ishlari bilan tanishamiz.

Rus tilshunosi G.Y.Sizranova "Onomastika" nomli o'quv qo'llanmasining 4-bobida "Poetik onomastika", "Badiiy matnning onomastik makonda o'rganilishi" kabi mavzular batafsil yoritilgan [1, 247].

V.A.Nikonov "Ism va jamiyat" asarida badiiy asardagi qahramon nomi haqida alohida to'xtalib, quyidagi ta'rifni beradi: "Qahramon nomi badiiy ijod vositalaridan biridir, u ijtimoiy tegishlilikni tavsiflashi mumkin bo'lgan belgi, milliy va mahalliy madaniylikni, agar harakat o'tmishda sodir bo'lgan bo'lsa, tarixiylikni qayta yaratish vositasi hisoblanadi" [6, 278].

V.V.Vinogradov ham o'z tadqiqotlarida badiiy matndagi onomastik birliklar, jumladan, taxallus nomlarning badiiy matnda alohida mavqega ega ekanligini qayd etgan [7, 225].

Rus nomshunosi E.Dianovanning "XI–XVII asrlar tarixiy antroponimikasi" [8, 167] nomli qo'llanmasida XI-XVII asrlarda rus onomastik tizimi rivojlanishining bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Butparastlarning shaxsiy nomlari va taxalluslarini shakllantirishning muhim tamoyillari, ismlarning ijtimoiy mavqeyiga qarab nomlashning ahamiyati ko'rsatilgan.

S.I.Zinin, G.A.Xaburgayev, T.D.Suslova, Y.A.Karpenko, O.I.Fonyakova, N.I.Zubov, V.I.Suprun, L.V.Shulunova, R.G.Yagafarov, V.V.Anisimov, A.A.Fomin, A.A.Novichikov kabi olimlarning ishlarida folklor va badiiy asarlar matnidagi onomastik birliklarning tekshirish obyekti bo'lganligini kuzatish mumkin [1, B. 3-4].

Xullas, tahlillardan ma'lum bo'ldiki, xorij tilshunosligida, xususan, rus, ingliz va nemis tilshunosligida badiiy asarlar, jumladan, folklor asarlari onomastik birliklarini tadqiq etish keng ko'lamda amalga oshirilmoqda hamda ushbu sohani o'rganishga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Onomastikaning jadallik bilan taraqqiy qilib borishi uning turli mustaqil bo'limlarga ajralishiga olib keldi. Hozirga kelib onomastikaning tarmoqlari bo'lgan antroponimika, toponimika, zoonimika kabilar alohida-alohida soha sifatida o'rganila boshlandi va bu borada qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi.

Adabiyotlar:

1. Сызранова Г.Ю. Ономастика. Учебное пособие. – Тольятти: Изд-во ТГУ, 2013. – С. 3-4.
2. Зинин С.И. Введение в русскую антропонию. – Ташкент: Наука, 1972. – С. 7.
3. Мўминова Н. Темурийлар даври антропонимиясининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Қарши, 2021. – Б. 33-36.

4. Аристотель. Поэтика. Русчадан М.Маҳмудов, У.Тўйчиевлар таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 41.
5. Matnazarov M. Onomastika fanidan o‘quv-uslubiy majmua. – Urganch, 2022. – B. 14.
6. Никонов В.А. Имя и общество // В.А. Никонов. – М.: Гл. ред. восточной лит-ры изд-ва Наука, 1974. – 278с.
7. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика // Виноградов В.В. – М.: Изд-во АН СССР, 1963. – 225 с.
8. Дианова Е.В. Историческая антропонимика. Учебное пособие. Ч.І. Историческая антропонимика XI-XVII веков. – Петрозаводск: Изд. Петрозаводск, 2019. – 167 с.

TARIXIY VA ZAMONAVIY ONOMASTIKA

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA ZUHRA ATAMASINING TALQINI

Yoqubov Sharif

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Termiz davlat universiteti

sharif.yoqubov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy asarlarida onomastik birliklarning bir qismi astronimlarning qoʻllanishi haqida fikr yuritiladi. Alisher Navoiy asarlarida sayyoralar homiy va timsol sifatida ishlatilib, yakka holda va guruh holida qoʻllanadi. Baʼzan voqealar tasvirida osmon jismlari, xususan, sayyoralar guruhlab qatʼiy izchillikda ishtirok etadi.

Sayyoralarning nomlarini bildiruvchi soʻzlarni bir xil usulda qoʻllash bilan chegaralanmasdan, ularni xilma-xil shakllarda zikr etadi. Bunda sinonim soʻzlardan, koinotda joylashish tartibini ifodalovchi otlashgan sonlardan, perifrazalardan oʻrinli foydalanadi. Shoir ijodida Zuhra sayyorasi keng ishtirok etadi. Mumtoz adabiyotda keng uchraydigan goʻzal malikalarning portretini yaratishda oʻxshatish vositalari - vash, -dek qoʻshimchalari, misol, kabi koʻmakchilari ishtirok etadi. Ularning toʻlaqonli obrazini yaratadi. Shoir ijodidada qoʻllanilgan astronimlar shoir asarlarni tushunishning muhim bir kaliti hisoblanadi.

Kalit soʻzlar: astronimlar, osmon, sayyora, sayyoralar osmoni, osmonlar tartibi, Zuhra sayyorasi, oʻxshatish, oʻxshatish vositasi, perifraza, geotsentrik, falak, timsol.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕРМИНА ЗУХРА В ТВОРЧЕСТВЕ
АЛИШЕРА НАВАИ

Ёкубов Шариф

кандидат филологических наук, доцент

Термезский государственный университет

sharif.yoqubov@mail.ru

Аннотация. В статье рассматривается использование астрономов как единицы ономастики в произведениях Алишера Навои. В произведениях Алишера Навои планеты используются как покровители и символы, применяются как в одиночку, так и в группах. Иногда в изображении событий небесные тела, в частности планеты, группируясь, участвуют в строгой последовательности.

Не ограничиваясь использованием слов, обозначающих названия планет таким же образом упоминает их в самых разных формах. При этом из слов-синонимов, из именованных числах, представляющих порядок расположения во Вселенной, уместно использует перифразы. Планета Венера широко представлена в творчестве поэта, в создании портретов прекрасных принцесс, широко встречающихся в классической литературе, вспомогательные средства, такие как -ваш, -дек, создает их полноценный образ. Астронимы, используемые в творчестве поэта, являются важным ключом к пониманию произведений поэта.

Ключевые слова: астронимы, небо, планета, небесные планеты, порядок небес, планета венера, аналогия, средство сравнения, перефраз, геоцентрика, небосвод, образ.

INTERPRETATION OF THE TERM ZUHRA IN THE WORKS OF ALISHER NAVAI

Yokubov Sharif

candidate of Philological Sciences, Associate Professor

Termiz State University

sharif.yoqubov@mail.ru

Annotation. The article discusses the use of astronomical names as part of onomastic units in the works of Alisher Navoi. In the works of Alisher Navoi, planets are used as patrons and symbols, both individually and in groups. Sometimes in the image of events, celestial bodies, especially planets, are grouped together in a strict sequence.

He mentions the names of the planets in various forms, not just using the words in a uniform manner. In this case, he appropriately uses synonyms, adjectives and periphrases representing the order of placement in the universe. The planet Venus is widely used in the poet's work. The comparisons “-vash”, “-dek” and the auxiliary words “misol”, “kabi” are used in creating portraits of beautiful queens, which are common in classical literature. That creates their complete image. The astronyms used in the poet's work play key role in understanding his works.

Key words: Astronyms, heaven, planet, celestial bodies, sequence of heavens, Venus, analogy, comparison means, periphrasis, geocentric, firmament, image.

Alisher Navoiy yashagan davrda badiiy ijod ahlining barchasi osmon jismlariga murojaat qiladi. O‘z davri erishgan ilmlarni mumkin qadar mukammal egallagan A.Navoiy ham salaflari va zamondoshlari an’alariga sodiq qoladi. Bobolarimiz yaratgan yulduz ilmidan bahramand bo‘ladi. Asarlarida sayyoralarga,

yulduzlarga, jamiki osmon jismlariga qayta-qayta murojaat qiladi. Ular ishtirokida chiroyli tashbehlar yaratib, zamondoshlaridan ancha ilgarilab ketadi. Shoir ijodida sayyoralar nomining qo'llanilishi salmoqli o'rinda turadi.

A.Navoiy ko'p marta uzoq safarlarda bo'ladi. Ba'zan karvonlar, ba'zan maxsus kuzatuvchilar qurshovida olis yo'llarni bosib o'tdi. Ana shunday vaqtlarda karvonsaroylarda, badavlat odamlarning koshonalarida, ba'zan esa kimsasiz cho'llardagi bir buloqni qora tortib, ochiq osmon ostida oddiy odamlarning suhbatida bo'ladi. Bunday kechalarda tubsiz koinotga boqib, samodagi yulduzlarni kuzatar, ularning ozod qush singari osmonda sayr qilib yurishiga havas bilan boqar, ba'zan esa ular bilan unsiz suhbatlashar edi. Keyinchalik bu suhbatlar shoirning epik va lirik asarlariga ko'chib, nafis jilva qilardi.

O'rta asr kishilarining tushunchasiga ko'ra, bir osmon bir yer bor edi. Biroq Alisher Navoiy asarlarida bir necha osmonlar borligi haqida fikr yuritiladi va asarlarida "osmon", "yetti qavat osmon", "to'qqizinchi osmon", "yetmish osmon" kabi so'zlar ishlatiladi. Chunki shoir yashagan davrda Mirza Ulug'bek va Ali Qushchi asarlarida va ularning tadqiqotlarida bir qator osmonlar haqida ilmiy xulosalar chiqarilgan edi. Alisher Navoiy Samarqandda yashagan paytlarida Ulug'bek rasadxonasini borib ko'rgan va u haqda aniq tasavvur hosil qilgan va bu yerda ishlagan olimlar bilan hamsuhbat bo'lgan, ularning asarlarini [1, 134] qisman ko'zdan kechirgan edi. Negaki Mirzo Ulug'bek vafot etgandan keyin ham to Ali Qushchi Rum (Turkiya) mamlakatiga ketgunga qadar rasadxona ishlab turgan edi [2, 236-237].

Buyuk olim Ali Qushchi: "Butun olam bitta kurra bo'lib, uning markazi Yerdir. Osmonlar to'qqiztadir", – degan edi. O'sha davr ilmiy asarlarida osmonlarni tartib bilan sanash eng yuqori osmon osmonlar osmoni (falakul-atlas)dan boshlangan. Shunga ko'ra: 1) Falakul-atlas: barcha osmonlarni o'z ichiga olgan; 2) Burjlar osmoni: barcha turg'un yoritg'ichlar shunda joylashgan; 3) Zuhul (Saturn) osmoni; 4) Mushtariy (Yupiter) osmoni; 5) Mirrix (Mars) osmoni; 6) Quyosh osmoni; 7) Zuhra (Venera) osmoni; 8) Utorud (Merkuriy) osmoni; 9) Oy osmonidir" [3, 100]. Ammo O'rta asrlarda geotsentrik qarash hukmron bo'lib, koinotning markazi osmonlarni Oy osmonidan tartib bilan sanash mashhur bo'lgan va har bir sayyora mumtoz adabiyotda alohida timsol sifatida namoyon bo'ladi. Sayyoralarining bunday joylashishi qat'iy hisoblangan. Chunki koinotning markazi Yer deb olingan. Shunga ko'ra sayyoralar quyidagicha tartibda o'rganilgan. 1. Oy. 2. Atorud, Utorud (Merkuriy) shoirlar homiysi. 3. Zuhra (Venera) falak mahbubasi, cholg'uchisi, bastakor, ma'shuqa. 4. Quyosh. 5. Bahrom (Mirrix, Mars) ba'zan yaxshilik, ba'zan munofiqlik. 6. Mushtariy (Yupiter) falak qozisi, xaridori. 7. Zuhul (Saturn) eng baland osmon, qora tun, baland osmon posboni timsollarida qo'llanadi. 8. Turg'un yoritgichlar osmoni. 9. Falakul-atlas eng baland osmon, osmonlar osmoni sifatida

qo'llangan va shoir asarlarida uslubiy vazifa bajargan [4, 22-23]. Shoir asarlarida qo'llangan yetti falak deganda sayyoralar (planetalar) osmoni tushuniladi. Quyosh ham, oy ham planeta hisoblangan.

Javrlarkim qilur ul oy manga,

Yetti aflok aro anjum qilmas (FK-126)

Shoir sevgili yorining oshiqqa befarqligi, jafokash va sitamkorligidan shikoyat qilar ekan, ma'shuqa ko'rsatgan jabr-u sitamning ko'lamini ko'rsatish uchun yetti falakda ham bunday jabr ko'rsatilmaganligini ta'kidlaydi. Shoir ushbu baytda yetti falak deganda usha davr tushunchasi asosida sayyoralar osmonini nazarda tutadi. To'qqiz falak birikmasi sayyoralar osmoni bilan sakkizinchi turg'un yoritg'uchlar osmoni hamda barcha osmonlarni o'z ichiga olgan falakul-atlas nazarda tutiladi.

Ba'zan shoir "yetmish falak" birikmasini ishlatganda koinotning cheksizligini nazarda tutadi. Chunki A. Navoiy yashagan 15-asrda astronomlar osmonlar osmoni (falakul-atlas)ning chegarasi hech kimga ma'um emas, yolg'iz Ollohga ayondir degan fikrga kelishgan edi.

Zuhra sayyorasi haqida fikr yuritar ekanmiz, shoir asarlarida har bir sayyoraning o'z osmoni bo'lib, bu osmon o'sha sayyoraning nomi bilan **Zuhra osmoni, Atorud osmoni, Mushtariy osmoni...** deb nomlangan.

Alisher Navoiy osmonlar, sayyoralar va yulduzlarni nomlashda har doim bir xil usullarda ishlatmasdan, ularni xilma-xil shakllarda qo'llaydi. Sayyoralarning nomlarini atash bilan birga A.Navoiy ba'zan uning joylashish o'rnini keltirish bilan chegaralanadi. Shu tufayli tadqiqotchi har bir sayyoraning joylashish o'rnini qat'iy bilishi lozim. She'riy misralardagi so'zlarning xususiyatidan kelib chiqib, Zuhra sayyorasiga nisbatan fors-tojikcha Nohid, o'zbekcha Cho'lpon so'zlarini sinonim sifatida qo'llaydi. Ba'zan esa she'riy misralarning talabidan kelib chiqib, sayyoraning joylashish tartibini keltirish bilan chegaralanadi. "Saddi Iskandariy" dostonining to'rtinchi bobi janob payg'ambarimizning Me'roj tunida Olloh bilan uchrashmoq niyatida Buroq ismli otida to'qqizinchi osmonga sayr qilganlarida, barcha sayyoralar va osmon jismlari ularni kuzatib qoladi. Ana shu o'rinda shoir sayyoralarning nomi o'rniga ular joylashgan osmonlarning tartibini ifodalovchi tartib sonlardan o'rinli foydalanadi. Oy sayyorasidan boshlab to'qqizinchi osmongacha bo'lgan masofada Muhammad (s.a.v)ni sayyoralar kuzatib qoladi. Sayyoralar va ularni ifodalagan osmonlarni ularning joylashish tartibini keltirish orqali bayon qiladi.

Uchunchi sori chun shitob aylabon,

Falak Zuhrag'a ehtisob aylabon.

Yo'lidin qochib zohir etmay surud,

Ravon yoshurub chodari ichra rud. (SI-626)

Suvoriy endi uchinchi falakni Zuhra osmonini ko‘zlab shitob bilan yelib ketdi. Falak sohibi (Zuhra sayyorasi –Sh.Y.) uni ko‘rgach, aytayotgan qo‘shig‘ini to‘xtatib, chalayotgan udini tezlik bilan chodiriga yashirdi va o‘rnidan turib yo‘l bo‘shatdi. Zuhra osmonidan o‘tib olgan suvoriy Quyosh sayyorasi manziliga qadam qo‘yadi. Matndagi Zuhra sayyorasi o‘rnida uchinchi leksemasi ishlatilgan. O‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarning birini atab, ikkinchisining tushunilishi orqali metonimiya usulida ma‘no ko‘chish hodisasi ro‘y bergan. Yana Zuhra sayyorasi o‘rnida qo‘llanilgan uch soni tartib son shaklida otlashib sayyora osmonini ifodalagan. Bu hodisa matnning keyingi qismida ifodalangan barcha sayyoralarning qo‘llanishida ham kuzatiladi.

**Ki to‘rtunchi sori takovar surub,
Quyoshqa base sarzanish yetkurib.
Bo‘la olmayin ul shabistonda fosh,
Kirib yer tubiga uyotdin quyosh. (SI-626)**

Shitob bilan yelayotgan arg‘umoq (Buroq) to‘rtinchiga – Quyosh falagiga yetib keldi va ko‘p ma‘lomatlar qildi. Chunki Quyosh tun qorong‘ulig‘ini yorita olmay uyotdin yer tubiga kirib ketgan edi. Keyingi barcha sayyoralarni ham tegishli tartib sonlar bilan shunday ifodalaydi. Eng birinchi sayyora hisoblangani tufayli Oyga nisbatan “buring‘idaki” so‘zini qo‘llaydi. Alisher Navoiy sayyoralar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan osmonlarni ifodalashda har bir sayyorani bir xil so‘zlar bilan bayon qilishdan chekinadi.

“Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”da barcha sayyoralar o‘z nomi bilan bir so‘z orqali nomlanadi. Keyingi dostonlarda ularning o‘z xususiyatidan kelib chiqib sayyoralar va osmonlarning nomlari xilma xil shakllarda bayon etiladi. “Farhod va Shirin” dostonida so‘z birikmasi ko‘rinishida tasviriy vositalar orqali bayon qiladi. Bunday hodisa voqealarni sayyoralarning qat‘iy izchilligi asosida tematik (barcha sayyoralarni bir xil tartibda izma-iz qo‘llash) tartibida bayon etiladi. Bunday tasvir “Xamsa” dostonlarida tez-tez uchrab turadi. Shoir “Farhod va Shirin” dostonining 156- va 287-betlarida sayyoralar va osmonlarni nomlashda ularni tasviriy vositalar (perefraza) shaklida bayon qiladi. Sayyoralarning nomlari o‘rnida ularning joylashgan o‘rni va xususiyatlariga qarab ma‘lum bir so‘zlar bilan ifodalaydi. Dostonning 156-, 287-betlarida Atorud (Merkuriy)ga nisbatan – ko‘k dabiri, Quyoshga nisbatan – to‘rtinchi manzar, Bahrom (Mars)ga nisbatan – turkiy falak, Mushtariy (Yupiter)ga nisbatan – oltinchi ko‘k, Zuhra (Saturn)ga nisbatan yettinchi osmon, yettinchi qulla (qo‘rg‘on), yettinchi qo‘rg‘on posboni; Yulduzlar osmoniga nisbatan – sakkizinchi toram, Falakul atlas (Osmonlar osmoni)ga nisbatan – To‘qqizinchi ko‘k birikmalarini ishlatadi. Ammo Oy bilan Zuhra sayyoralarining nomini o‘z holicha qoldiradi. Zuhrani san‘tkorlar homiysi, falak sozondasi, raqqosasi, bastakori sifatida keng qo‘llaydi [5,48-51]. Asli arab tilidan o‘zlashgan *zuhra*

leksemasi o'zbek tiliga o'z ona tili so'zlari singari singib ketganki, uni ayrim tadqiqotlarsiz anglab olish qiyin. Shoir ham bu so'zni o'z asarlarida keng qo'llaydi.

Insoniyat tug'ilibdiki, Zuhra sayyorasi kishilarning ruhini o'ziga tortib keladi. Uni qadimda ajdodlarimiz turli xil nomlar bilan atashgan. Yusuf Xos Hojib "Sevit", Mahmud Koshg'ariy "Temur qozenguh", Rabg'uziy "Saqit" va "Zuhra", Mahmud Zamaxshariy "Tong yulduzi" deb ataydi va asarlarida foydalanadi. Alisher Navoiy bu yulduzni o'zbekcha "Cho'lpon", forsha-tojikcha "Nohid", arabcha "Zuhra" nomlari bilan qo'llaydi. Shoir asarlarida bu yulduz keng qo'llanishi bilan birga, chiroyli tashbehlar yaratish imkonini beradi. Sayyora osmon jismlari orasida eng porloq, eng go'zal, jozibali bo'lganligi uchun barcha zamondoshlarimizning mehrini qozonib keladi. Shu tufayli bu porloq yulduz shoirning butun ijodi davomida birga bo'ladi, unga ilhom baxshida etadi. Asarlari qatida bir umr muhrlanib qoladi.

Alisher Navoiy epik asarlarining sevimli qahramonlari go'zallikda tengi yuq nafis mahbubalarning to'laqonli portretini chizishda ularni Zuhraga qiyoslaydi. Ularning barchasi Zuhra qiyofasida namoyon bo'ladi. Zuhra – tengi yo'q, yagona go'zal. Boshqa mahbubalarni unga o'xshatishning o'zi ham uning go'zalligini yuksak cho'qqilarga ko'tarish hisoblanadi. "Sab'ai sayyor" dostonining sevimli qahramoni Mehrni shoir alohida bir ichki tuyg'u bilan tasvirlaydi. Mehr nihoyatda go'zal, aqlli, qalbi pok, ismi jismiga monand qiz. Uning yuz ko'rinishi samodagi barcha yulduzlardan-da go'zal, Zuhraga o'xshaydi. Aniqrog'i, ul o'ying peshonasi Zuhromonand. Unga ko'z tushgach, bir necha bor hushini yo'qotgan makkor Jobir go'zallikning qo'l yetmas mahbubasini qasr ichiga mahkum etadi.

Amr qildiki, mohi Zuhra jabin,

Kirdi bog' ichra bo'ldi qasr nishin. (SS-243)

Makedoniyalik Iskandarning bir qator ardoqli pahlavonlarini yer tishlatgan devsfat Boriqi Barbariy ustidan g'alaba qozongan va yuziga niqob kiyib olgan Chin go'zalining ta'rifini bayon qilishdi ham shoir Zuhraga murojaat qiladi. Bu "hurshede tobon" san'at sirlarini shu qadar mukkamal egallaganki, hushovozlikda samo kuychisi Zuhraga o'xshaydi.

Ki: "Husn ichra xurshedi tobon erur,

Yana Zuhra yanglig' xush ilhon erur. (SI-794)

Tubsiz koinot tun qo'ynida mudrab, sonsiz yulduzlar milt-milt shu'la sochib, birdan osmonda porloq bir yulduz Zuhra paydo bo'ladi va u boshqa birorta yulduzga ato etilmagan hadsiz nurga belanib, balqib turardi. Butun borliqni o'ziga tortardi. Shu jihati bilan ham insonlar asrlar osha qadim zamonlardan buyon unga suqlanib boqadi. Go'zal mahbubalarni Zuhraga mengzab, ularni go'zallikdan yagona qilib ko'rsatadi. Sayyoradagi shu xususiyatlar Bahrom va Dilorom qissasidagi go'zal Diloromning portretini chizishda yaqqol namoyon bo'ladi.

**Udu sandal bila yasab anga chang,
Zuhravash cholmog' aylabon ohang.
Xoja bay'in tilab parivashning,
Zuhra bir, mushtari vale yuz ming. (SS-489)**

Parivashning xojasi tilidan aytilgan bu so'zlarda Dilorom haqida gap boradi. Mumtoz adabiyotda osmon mahbubasi Zuhraga Mushtariy sayyorasi oshiq timsolida namoyon bo'ladi. Zuhravash Dilorom go'zallikda yagona, oshiqlar "Mushtariylar esa son mingta". Chunki u koinotdagi Zuhraga o'xshaydi. Zuhra esa go'zallikda yakka-yu yagonadir.

Hazrat Alisher Navoiy sohir san'tkor sifatida Zuhra va Mushtariy muhabbatiga qayta-qayta murojaat qiladi. "Navodir ush-shabbob" devonidagi g'azallardan birida yor visoliga musharraf bo'lgan oshiqning ruhiy kechinmalarini bayon qilar ekan, bunday ulug' tole'ga erishishni Mushtariy bilan Zuhraning o'z baxtini topishiga qiyos qiladi.

**Quloq durig'a xaridor edi yuzung, ajab ermas,
Nashot el orakim Zuhra Mushtarig'a qovushmish. (NSh-261-g'.)**

Shoir jonlantirish san'atidan foydalanib, Mushtariyning mahbubaning yuziga, Zuhrani esa uning quloqlaridagi durga o'xshatadi. Ma'shuqaning yuzi uning quloqlaridagi isirg'aga, aniqrog'i, isirg'aning ko'ziga o'rnatilgan durga suqlanib boqadi, uning visoliga intiladi. Chunki toza dur bilan Zuhra yulduzi bir-biriga o'hshash. Mumtoz adabiyotda dur va Zuhra sayyorasi haqida juda ko'p rivoyatlar yuradi. Haqiqiy va musaffo ishq doim elu halq tomonidan olqishlab kelinadi. Bunday muhabbatning ro'yobga chiqishi xalqning chinakam xursandchiligiga aylanib ketadi. Samo oshiq ma'shuqlarning muhabbati esa "tubanlik changidan xoli" bo'lgan nihoyat darajada sof, tiniq va nafis hisoblanadi.

Alisher Navoiy go'zal Shirinning portretini chizar ekan, Zuhra va Mushtariy yana bir bor eslab o'tadi. Bu safar ularni birga ko'radi. Shirinning tashqi ko'rinishini chizishda Zuhra yulduzining oddiy ko'z bilan ko'rinishidan foydalanadi.

**Og'iz ustida burni turfa timsol,
Tutub yonida manzil hinduyi xol... (FSh-241)**

**Quloqda durri nobi gavhari ham,
Qamar dovrida Zuhra Mushtari ham. (FSh-242)**

Ushba parchada Zuhraning durga o'xshashligi, tiniqligi asos qilib olinadi. "Qamar davrida" birikmasida esa go'zal Shirinning yuzi nazarda tutiladi. Toza dur bilan ziynatlangan ikki isirg'asi samoviy oshiq-ma'shuqaga qiyos qilinadi. Chunki to'lin oy osmonda viqor to'kib turarkan, uning yonida ikki porloq yulduz: biri Zuhra, biri Mushtariy unga zeb berib turadi. Bu holat sevimli yor yuzi yonida sarak-sarak qilib, raqs tushayotgan isirg'adagi ikki toza durga qiyos qilinadi.

Alisher Navoiy ijodida Zuhra falak cholg'uchisi, raqqosasi, xonandasi, boshlovchisi, bastakori ma'nolarida qo'llanadi. Shu jihati bilan sozandalar homiysi hisoblanadi. Jamiki xonanda, sozanda, raqqosa borki, Zuhraga taqlid qiladi, undan ilhom oladi. Falak san'atkori – Zuhraning bazmi hamma uchun ilohiy qudratga ega. Shoir Mutriblar ishtirokidagi bazmlarni, xonanda va cholg'uvchilarni ulug'lar ekan, ularning san'atini Zuhraga qiyos qiladi. Eng go'zal bazmlarga falak mahbubasi tashrif buyuradi.

Keturgil raz qizin, soqiy; mug'anniy nag'maye tuzgil.

Ki ul ko'ktin keturgay Zuhrani afg'ong'a muzrobing. (FK–199)

San'atkorona ijro etilgan kuyning sehri cheksiz. Talantli mug'anniylar o'zlarining diltortar kuylari bilan qalblarni rom etadi. Butun vujudimizni larzaga keltiradi. Ba'zan go'zal lirik kuylarni tinglab beixtiyor boshimizni irg'ab unga jo'r bo'lamiz. Kuyning sehrli sadosi butun vujudimizni qamrab oladi. Shoir mug'anniyga murojaat qilib, "Soqiy, raz qizin (sharob) keltir, mug'anniy, sen shunday kuy va qo'shiqlarni xonish qilginki, dillar yashnab ketsin, chunki tanbur chertadigan sehrli barmoqlaring (muzrobing) dan chiqadigan ohangga ko'kda Zuhra ham nola tortadi, g'amu afg'on chekadi".

Hazrat Navoiyning ta'biricha, san'atkorlar ilohiy qudratga ega. Ular ijrosida tinglangan kuy va qo'shiqlar odamlar qalbini zabt etadi. Bu borada Husayn Boyqaro saroyida o'tkazilgan bazmlar va xususan, unda ijro etiladigan kuy va qo'shiqlar shu darajada teranki, u butunlay inson ruhiyatini rom qilib oladi. Ohanrabo kabi kishi qalbining tub-tubiga yetib boradi. Bunday bazmlarda san'atkorlar homiysi Zuhra ham ruhan hozir bo'ladi. Go'yo Zuhra ularning iqtidoriga tan berib, yerga tashrif buyuradi. Jonlantirishning yuksak namunasi bu.

Tushgach ahli navo cholib derga,

Zuhrani ko'ktan indurub yerga...

O'ngda turkinavoz urub doston,

Qo'zg'olib har navoda Turkiston

So'l sori forsi surudu nag'am,

Fitnai fors bal Iroqu Ajam. (SS–480)

Alisher Navoiyning lirik qahramoni – o'z sevgisiga vafodor yor. U muhabbat yo'lida ma'shuqasi tomonidan ko'rsatilgan barcha sitamlarga bardosh beradi. Ishq o'tida yongan oshiq shoirning qalbidan otilib chiqqan nola-yu fig'onlar olovining uchquni Zuhraning ud nomli torli cholg'u asbobini kuydirib kul qiladi (ud – nihoyatda nafis kuy taratuvchi musiqa asbobi). Oshiq chekkan fig'oniga hatto musiqa asbobi ham bardosh bermaydi.

Navoiy, Zuhra udin motamim tutqonda kuydurdi,

Falak sori erishib borg'on uchqunlar fig'onimg'a. (BV–13)

Shoir Zuhra timsolida o'z muhabbatining ko'lamini bayon etadi. Oshiq shoirning mashuqasi Zuhraga qiyos qilinadi. Lirik qahramon o'z mahbubasini barcha sayyor timsollar – go'zallardan ustun qo'yadi. Butun fikri-zikri bilan yorini sevadi. San'atkorlar homiysi Zuhraning kuy qo'shiqlari qancha go'zal va yoqimli bo'lsa ham, oshiq qalbiga taskin berolmaydi. Uning yuragidagi dardiga faqat sevgilisi orom berishga qodir.

Basiti olamoro gar sen o'lmasang bosit,

Ko'ngulga qayda bo'lur Zuhra lahni bastfizoy. (NSh–575)

Alisher Navoiy ijod og'ushida bo'lgan paytlar barcha yulduzlar kabi, Zuhra sayyorasi ham shoirga hamroh bo'ladi. Badiy asarlarining yuzaga kelishi jarayonida unga takror-takror murojaat qiladi. Ba'zan shoir uni suhbatga tortib, maslahat so'raydi. Ayrim hollarda voqealar bayonida sayyorani qatnashtirib, asarlarining badiyiligini oshiradi. Bunday holat uning epik asarlarida yaqqol ko'rinadi. Xisrav qo'liga asir tushgan Farhod Salosil qo'g'onida tushkunlikda yotar ekan, tun bo'yi barcha yulduzlar bilan suhbatlashadi. Ular bilan xayrlashadi. Tong vaqti Yer, osmon va butun koinot sokinlik olgan, borliq bilinar-bilinmas uyquga cho'mayotgan bir paytda osmonda birdan durday tiniq Zuhra balqib chiqdi. Butun borliqning diqqatini o'ziga tortdi. Ruhan ezilib qolgan Farhod Zuhrani ko'rib yig'lab yubordi. Zuhra ham mungli kuyini chalib, unga hamohang bo'ldi.

Ko'rungoch Zuhra un tortib damodam,

Qadin afg'ondin aylab changdek ham...

Ul oy bazmida bo'lsang nag'ma pardo,

Halokim, navhasin ham aylagin soz. (FSh–286)

Nihoyat, Farhod Zuhraga qalbidagini to'kib soladi. O'zining ertami-kech mahv etilishini bilardi. Shu tufayli Zuhraga murojaat qilib, Shirinning bazmida bo'lganida motam kuyini chalib, o'zining halok bo'lganligi haqida xabar berishini so'raydi.

Shoir asarlarida Muhammad (s.a.v)ning Me'roj tunida yettinchi osmonga sayr qilishida ham, Majnun qorong'u tunida Layli bilan so'nggi bor uchrashuvida ham, Sulton sohibqiron Husayn Bayqaro saltanati qudratining bayonida ham Zuhra sayyorasini qayta-qayta tilga oladi. Voqealarning rivojida shoirga hamroh bo'lib, asarlarning jozibadorligini oshirishga, betakror obrazlar yaratishga samarali hissa qo'shadi.

A.Navoiy ijodini kuzatar ekanmiz, shoirning Zuhra sayyorasiga alohida mehr-muhabbat bilan qaraganligini asarlarida bu nomdan unumli foydalanganligini ko'ramiz. O'z navbatida, bu porloq yulduzning ham ba'zan sirdosh, ba'zan suhbatdosh bo'lib shoirga ilhom bag'ishlaganligining guvohi bo'lamiz.

Hassos shoir samodagi sonsiz yulduzlar orasidan porloq bir yulduzni – Zuhrani koinotdagi barcha yulduzlardan, barcha sayyoralardan go'zalroq tasvirlaydi. Shoirning ta'biricha, son mingta Mushtariylar orasida Zuhraning tengi yo'q. U hech

kinga o'xshamaydi. Aksincha, boshqa mahbubalar Zuhraga o'xshaganligi uchun go'zal va maftunkordirlar.

Alisher Navoiy ijodida astronomlar, xususan sayyoralar faol ishtirok etadi. Ular she'riy asarlarida ham, epik asarlarida ham san'atkorlar homiysi va timsoli sifatida keng qo'llanadiki, shoir asarlarini to'laqonli tushunish astronomlarning qo'llanishini bilishni taqozo qiladi. Shu jihati bilan osmon jismlari Alisher Navoiy asarlarini tushunishning muhim bir kaliti hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Азизов С. Алишер Навоий асарларида фалакиёт сирлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 134 б.
2. Б.Ўринбоев, Алоуддин А. Али Қушчи. Улуғбек илмий мактабининг давомчиси // Мирзо Улуғбек таваллудининг 600 йиллигига бағишланган халқаро илмий анжуман материаллари. Ўзбекистон. 1994, 12-16 октябр, 236-237-бетлар.
3. Али Қушчи. Астрономияга оид рисола. – Тошкент: Фан, 1968. – 100 б.
4. Дадабоев Ҳ. Боболаримизнинг юлдуз илми // Ёш куч журнали. – Тошкент, 1991. – № 2. – Б. 22-23.
5. Ёкубов Ш. Алишер Навоийнинг Хазойин ул-маоний девонида Фарҳод атамасининг ўхшатиш воситаси сифатида қўлланилиши // ТерДУ илмий хабарномаси, 2019. – № 1. – Б. 48-51.
6. Навоий Алишер. Фарҳод ва Ширин: тўлиқ насрий табдил. Табдил муаллифи: М. Абдулхайр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 336 б.
7. Ҳайитметов А. Навоий даҳоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1970. – 171 б.
8. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Нусратулло Жумахўжа. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2015. – 323 б.

TARIXIY VA ZAMONAVIY JOY NOMLARING LINGVISTIK TADQIQI (TERMIZ TOPONIMI MISOLIDA)

Majidova Shahnoza Komilovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Termiz davlat pedagogika instituti

majidovashahnoza59@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Termiz so'zining kelib chiqishi, qadimgi yoki zamonaviy toponimlar turiga mansubligi, tarixiy va lingvistik manbalarda qanday nomlanganligi, tarixiy jarayonda qanday fonetik o'zgarishlarga uchraganligi, bu joy haqidagi xalq orasida tarqalgan rivoyatlarni lingvistik jihatdan o'rganish asosida tarixiy va geografik ma'lumotlarga tayangan holda va yerli aholining bu joy haqidagi qadimiy rivoyatlariga asoslansak, Xoja al-Hakim haqidagi rivoyatni haqiqatga yaqinroq deb aytish mumkin ekanligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Termiz, Taramastxa, Taramata, Taramat, Tami, Tamo, Tarameta, Tarmit, Tarmut, Tarmiz, Tirmiz.

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ТОПОНИМОВ (НА ПРИМЕРЕ ТОПОНИМА ТЕРМЕЗ)

Мажидова Шахноза Комиловна

доктор филологии по филологическим наукам (PhD)

Термезский государственный педагогический институт

majidovashahnoza59@gmail.com

Аннотация. В статье на основе лингвистического изучения легенд, распространенных в народе об этом месте, на основе историко-географических сведений и на основе древних преданий местного населения об этом месте рассматриваются вопросы происхождения слова Термез, его принадлежности к типу древних или современных топонимов, как оно именовалось в исторических и лингвистических источниках, какие фонетические изменения оно претерпело в историческом процессе, а также можно ли сказать, что легенда о Ходже ал-Хакиме ближе к истине.

Ключевые слова: Термиз, Тарамастча, Тарамата, Тарамат, Тами, Тамо, Тарамета, Тармит, Тармут, Тармиз, Тирмиз.

LINGUISTIC STUDY OF HISTORICAL AND MODERN TOPONYMS (ON THE EXAMPLE OF THE TOPONYM TERMEZ)

Majidova Shakhnoza Komilovna

doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)

Termez State Pedagogical Institute

majidovashahnoza59@gmail.com

Annotation. The article discusses the origin of the word Termez, its belonging to the type of ancient or modern toponyms, how it was named in historical and linguistic sources, what phonetic changes it underwent in the historical process, and whether the legend about Khoja al-Hakim can be said to be closer to the truth, based on a linguistic study of the legends spread among the people about this place, based on historical and geographical information, and based on the ancient legends of the local population about this place.

Key words: Termiz, Taramastcha, Taramata, Taramat, Tami, Tamo, Tarameta, Tarmit, Tarmut, Tarmiz, Tirmiz, etc.

Kirish. Termiz shahri va Termiz tumani toponimlarini o'rganish jarayonida joy nomlarini to'plash, tasniflash, ularni lingvistik jihatdan tahlil qilishga urinildi. Shu o'rinda bu nomlarning zamonaviy nomlar yoki tarixiy jarayonga xos nomlar ekanligiga ham e'tibor qaratildi. Aynan Termiz so'zining shahar, tuman, mahalla, qishloq va hatto ko'cha nomi sifatida keltirilganligini hisobga olib bu nomning kelib chiqishi haqida ilmiy manbalarda va xalq orasida tarqalgan rivoyat va afsonalarda qanday atalganligi haqida biroz fikr yuritishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Maqolada bugungi o'zbek tilshunosligida Termiz so'zining kelib chiqishi, qadimgi yoki zamonaviy toponimlar turiga mansubligi, tarixiy va lingvistik manbalarda qanday nomlanganligi, tarixiy jarayonda qanday fonetik o'zgarishlarga uchraganligi, bu joy haqidagi xalq orasida tarqalgan rivoyatlar haqida fikr yuritiladi. Adabiyot sifatida joy nomlarining kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy adabiyot, monografiya va dissertatsiyalar tahlilga tortilgan.

Natijalar va muhokama. Termiz zamonaviy yoki tarixiy nom ekanligini isbotlovchi manbalarga e'tibor qaratamiz. Termiz shahri tarixda qanday nomlangan va bu joy haqida tarixiy va ilmiy dalillar nimani isbotlaydi? Qadimgi tarixiy manbalarda katta qiziqish bilan tilga olingan Termiz haqida ko'plab ilmiy fikrlar tarixchilar tomonidan o'rganilmoqda hamda yangi tarixiy ashyoviy manbalar qayd etilmoqda. Ko'hna shahar hozirgi Termizdan 8-9 km janubi-g'arbda Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan bo'lib, qariyb 2500 yillik tarixga ega. Qadimdan Termiz Markaziy Osiyoni Xitoy-Misr bilan bog'lovchi Buyuk ipak yo'lida joylashgan. Yunon-Baqtriya podsholigi davrida katta madaniy bosqichni o'z boshidan

kechirganligini tasdiqlovchi manbalarni qayd etish zarur. Uning toponomik kelib chiqishiga e'tibor bersak, mahalliy xalqlar baqtriyaliklar Termiz Taramastxa (baqtrcha, "narigi sohildagi manzil"), Taramata, Taramat, Tami, Tarmit, Tarmiz, Termiz kabi shakllarda uchraydi. Bundan tashqari shaharning nomi IV-V asrlardagi arman manbalarida Drmat-Darmat (ehtimol Darmit), Termiz so'zigacha mahalliy xalqlar – baqtriyaliklar taramastha, Tarameta (narigi sohil, daryoning u beti), Arman manbalarida IV-V asrlarda u "Drmat", VII asr Xitoy manbalarida "Tamo", XIV asr Xitoy manbasida "Tarmiz" va "Tirmiz", IX-XIII asr arab-fors manbasida "Termiz" va "Termiz", XII asrda tarixchi Somoniy Termiz. XIII asrda Yakut lug'atida 2 xil nom "Tarmiz" va "Tirmiz". Shuningdek, shahar ilk o'rta asr manbalarida "Damo", Syuan Szyanda "Tami", XIII asrga oid "Kang Mu" asarida Ti-li-mi "Yuan-shi" asarida Gi-li-ma shaklida uchraydi. Muhammad Amin Buxoriyning yozishicha, Termiz qadimdan Barbar nomi bilan atalgan. Rivoyatlarga qaraganda, o'tmishda shaharda shu qadar ko'p odam yashaganki, ularning shovqin-suroni go'yoki Balx shahriga ham eshitilib turgan. Shu bois Termiz shahrini "G'ulg'ula" debham atashgan.

Boshqa bir guruh olimlar Termiz toponimining kelib chiqishini turkiy qabilalardan biri bo'lgan tabor qabilasi bilan aloqador deb ta'kidlaydilar, "iz" morfemasi esa "jamlik, birgalik" degan semalarni ifodalaydi. Shu tariqa Termiz eng qadimgi turkiy qabilalardan biri – taborlar yashagan qo'rg'on hisoblangan.

Qadimgi Tibet kitoblaridan birida taxoristonlik buddizm targ'ibotchisi Dxarmamitranning nomi uchraydi va uning Pak-su (Oksu – Amudaryo) daryosi bo'yida joylashgan Tarmita degan shahardan ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, shahar asoschisi-podshoh Demitriy nomi asosida Demitriy, Dermita, Darmita nomi bilan keyinchalik Tarmita, Termid, X asrdan boshlab esa Termiz nomi bilan bog'lanadi. Umuman, Termiz shahrining Tara Mastha yoki Tara Maetha – narigi sohildagi shahar, yanada to'g'rirog'i daryoning narigi sohilidagi shahar, shahar nomining Yunon-Baqtriya podshohi Demetriya (Dmitrius) bilan bog'lanishlari isbotini topmaganidek, uning yunoncha "termos" so'ziga aloqadorligi ham asosli emas. Iskandar Zulqarnayn Termiz shahrini mustahkam tayanch qal'a sifatida mustahkamlab, unga "Oks bo'yi Aleksandriyasi" nomini berganligi ingliz olimi V.Tarn asarlarida qayd etilgan. Iskandar daryo bo'yidagi bu manzilgohni mahalliy xalq g'alayonlaridan saqlanish uchun muhim harbiy istehkom shaharga aylantirish rejasi bilan uni qayta qurdiradi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, Termizda juda qadim zamonlardan, ilm-fan, madaniyat va savdo-sotiq rivojlagan. Hozirgi Eski Termiz xarobalaridan topilgan yodgorliklar uning yoshi ikki ming yilgan ortiq ekanini ko'rsatib turibdi. "Termiz" toponimi ham, etimologiyasi ham shahar tarixi kabi

qadim davrlarga borib taqaladi. Uning kelib chiqishi haqida xalq orasida ham bir qator rivoyatlar mavjud.

Sh.Safarovning “Termiz va termiziylar” asarida quyidagi rivoyat keltiriladi: “Bir kuni Xoja al-Hakim shogirdlarisiz masjidga namoz o‘qigani keladi. U yerda bir kishiga otni ushlab turishni buyuradi. U al-Hakim namoz o‘qib turgan paytida pinhona kirib, u kishining boshini kesadi va ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Xalq qayg‘u-alamga botadi. Uni an’anaga ko‘ra dafn etishadi. Kunlarning birida shogirdlari va qarindoshlari uning qabri boshiga yig‘ilganda qabrdan “Tirik biz” degan ovoz eshitilgan emish. Shu kundan boshlab hamma halok bo‘lgan ustoz xojani “Ali al-Hakim tirikbiz”, deb ataydigan, keyinchalik shahar nomini ham” Shahri Ali al-Hakim tirikbiz” deb ataydigan bo‘lishdi” [1, 70-71].

Termiz shahrining nomi va uning kelib chiqishi haqida ko‘plab rivoyatlar yuradi, shu xil rivoyatlardan yana birida Balxlik mashhur shayx Dorulomon termizlik al-Hakimning g‘oyibot olami bilan bog‘lana olishdagi ruhiy quvvatini sinamoq niyatida Termizga yo‘l oladi. Dorulomon o‘z xalifa (yordamchi)si bilan suvga tushganda, buni oldindan bilgan al-Hakim Amudaryoga tushib daryoning yarmigacha borib Dorulomonni kutib oladi. Hayratda qolgan Dorulomon xalifasiga “Bu zotni daryodan ko‘tarib o‘t” ishorasini qiladi, xalifa kar bo‘lganidan “boshini ol” deb tushunib al-Hakimning boshlarini qilich bilan kesadi. Shunda al-Hakimning kesilgan boshi tilga kirib Dorulomonga “Biz tirikmiz” debdi. Ul ulug‘ zotning qabrlariga yig‘lab borgan kishilarga “Biz tirikmiz” deb ovoz eshilibdi, o‘shandan buyon shahar nomi tirimiz, ya’ni Tirmiz bo‘lib ketgan emish.

Boshqa bir rivoyatda Termiz so‘zi “termos” so‘zidan olinganligi aytiladi, go‘yo Aleksandr Makedonskiy jazirama issiq paytlari shaharga kelgan emish va havoning o‘ta issiqligi tufayli, bu yer xuddi termosning o‘zi ekan debdi. “Termos” so‘zining fonetik tarkibi-fonemalar miqdori hozirgi yunon va o‘zbek tillarida saqlangan. Yuz bergan tovush o‘zgarishlarini o‘zbek tilining fonetik qonunlari tasdiqlaydi. “o”ning “I”ga “s”ning “z”ga o‘tishi turkiy tillar fonetik qonuniyati me’yori talabiga mosdir. Termo-yunoncha, issiq, issiqlik, harorat, termometr – issiqlik o‘lchaydigan asbob, termografiya-issiqlikni yozib oluvchi asbob, idish, joy, makon tushunchalariga ega [2, 117]. Boshqa bir nazariyaga ko‘ra, termizga kelgan Aleksandr Makedonskiy qo‘shini bu yerdagi issiq buloqlarda dam oladi va bu yerni Termez – “ter chiqadigan joy” deb ataydi. Keyinchalik bu nom xalq orasida keng tarqaladi. Bu kabi rivoyat va afsonalar xalq orasida keng tarqalgan bo‘lsa ham ularning aksariyati o‘zining ilmiy asosiga ega emas. Ana shunday rivoyatlardan birida shahar nomi quyidagicha izohlanadi:

Termizga kelayotgan hukmdor Iskandar Zulqarnayn Amudaryo kechuvida qiynaladi, qo‘shinni qayerdan eson-omon daryodan o‘tkazish haqida ko‘p o‘ylanadi.

Nihoyat qulay joy topilib, qo'shin birin-ketin daryodan o'ta boshlaydi. Go'yo daryo faqat shu joydagini yo'l berib sekinlayotganga o'xshardi. Bundan hayratlangan shoh bu yerni doimiy daryodan kechuv joyi sifatida belgilaydi hamda uni "Tarm o'z" – "daryodan otadigan joy" deb nomlaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, Termiz qadim zamonlardan Amudaryo sohillarida joylashgan eng yirik savdo hamda madaniyat markazi bo'lgan. Shu bilan birgalikda bu shahar Amudaryoning ikki qirg'og'ini bog'lab turuvchi ko'priq vazifasini ham bajargan. Shaharning nomlanishida uning joylashuvi, etnik tarkibi, iqtisodiy-siyosiy ahamiyati, tabiiy iqlim sharoiti kabi omillar muhim ahamiyat kasb etgan.

N.Azimjonova "O'zbekiston toponimikasining qisqacha izohli lug'ati" kitobida "termiz" so'zining kelib chiqishini qadimgi forsha "tara-maioa" iborasi bilan bog'laydi. Bu ibora "o'tish joyi" degan ma'noni anglatib, Amudaryo bo'yida joylashgan Termiz shahrining geografik holatiga to'la mos keladi. Shuningdek, qadimgi yunon manbalarida shahar nomi "Tarmid" yoki "Tarmita" shaklida ham uchraydi, bu esa vaqt o'tishi bilan fonetik o'zgarishlarga uchrab Termiz shakliga aylangan [6. 212].

Termiz toponimini qadimgi turkiy tildagi Tarmut so'zi bilan bog'lash maqsadga muvofiq keladi. Mahmud Koshg'ariy "Devoni lug'ot it turk" asarida bu so'zni "tog'larning tepalik va soyliklari" ma'nosida izohlaydi [3, 421]. Olimlardan V.L.Kozlovskiyning "Termiz shahri tarixi" (1959, 1968-yil), J.Omonturdiyev, E.Pardayevlarning "Hoja Hakim Termiziy" (Viloyat gazetasi, 1968), G.A.Pugachenkovaning "Termez. Shahrisabz. Xiva" (1976), T.Nafasovning "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati", Sh.Safarovning "Termiz va termiziylar" (1993) kitoblarida – Termiz atamasi baqtriycha, yunon-baqtriycha yoki sanskritcha Taramastha so'zidan kelib chiqqan deyiladi. G.A.Pugachenkova o'z tadqiqotlarida Termiz nomini sanskritcha (qadimgi hind tili) Taramata so'zi va Yunon-Baqtriya podshosi Demetriya (Dermid-Termit-Termiz) nomi bilan bog'laydi. Termizning qadimiy ekanligini isbotlovchi arxeologik moddiy-tarixiy ashyolar nihoyatda ko'p manbalarni bermoqda. Termiz shahri yoshini to'liq ilmiy o'rganish uchun 1980-yilda O'zFA Arxeologiya institutida Termiz tarixi va madaniyatini o'rganish uchun maxsus arxeologik otryad tashkil etildi. Termizni arxeologik-ilmiy o'rganishda professorlar B.P.Denike, M.Y.Masson, V.A.Shishkin, V.D.Jukov, akademiklar A.P.Okladnikov, B.B.Petrovskiy, L.I.Albaum, B.Y.Staviskiy, A.Asqarov, arxeolog olimlardan dosent Sh.Pidayev, T.Annayev kabilar haqida iliq fikrlar aytish mumkin.

S.Tursunovning "Surxondaryo viloyati toponimlari" asarida ham Termiz nomining kelib chiqishi haqida bir qancha taxminlar keltiriladi. Jumladan, Termiz eramizgacha IV-III asrlarda paydo bo'lgan. Kushonlar davrida (I-III asrlar) madaniyati taraqqiy etgan shahar bo'lgan. Hofiz Abru esa Iskandar Zulqarnayn qurgan, deydi. Xitoy manbalarida Tami. XIX asr oxirida rus shakli Termiz-Termez-

Tarmiz-Termiz Amudaryo bo'yidagi tabiiy tik qoya, qirg'oq bo'yida joylashgan qo'rg'on. Temir kabi qattiqmiz, Temirmiz. Termiz temirdek qattiq, yoy o'qi, o'tkir qilich o'tmaydigan shahar ma'nosida izohlanishi turkiy toponimiyaga mos bo'ladi, deb keltiriladi [4, 79].

Temirmiz so'zida "miz", "biz" olmoshining fonetik o'zgarishga uchragan shakli deb hisoblansa, Ter shakli "temir" shaklining qisqarishi natijasida Termiz holatiga o'tgan bo'lishi mumkin.

Termiz shahri o'z tarixi davomida turli nomlar bilan atalgan. Shaharning tarixga kirgan eng qadimgi nomi Tarmid (trmd – Tarmid) bo'lgan. Bu nom dastlab 1969-yili Afg'onistonning Lag'mon vodiysidan topilgan hind podshosi Ashokaning oromiycha bitigida tilga olinadi [5, 188].

Xulosa. Keltirilgan ilmiy dalillar va tarixiy manbalarning ma'lumotlariga tayangan holda xulosa qilib aytish mumkinki, Termiz nomining kelib chiqishi shaharning paydo bo'lishi bilan tengdosh desak xato bo'lmaydi. Ma'lumotlar xilma-xilligiga qaramasdan Termiz nomining qaysi shakli ifodalanishidan qat'iy nazar aynan bir joy haqida Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan shahar nomi ekanligi ilmiy manbalarda isbotlangan. Termiz toponimini etimologik jihatdan tahlil qilish orqali shahar tarixi, geografik joylashuvi, etnik tarkibi, madaniyati va sivilizatsiyasi haqidagi qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Toponimlarni lingvistik jihatdan o'rganish asosida tarixiy va geografik ma'lumotlarga tayangan holda va yerli aholining bu joy haqidagi qadimiy rivoyatlariga asoslansak, Xoja al-Hakim haqidagi rivoyatni haqiqatga yaqinroq deb aytish mumkin. Chunki bu rivoyatda g'ayrioddiy tuyilgan jihatlar bo'lishiga qaramasdan, xalq orasida juda ko'p variantda mavjudligi bu rivoyatda biroz bo'lsa-da haqiqat mavjudligidan dalolatdir. Xalq orasida tarqalgan boshqa rivoyatlar bu qadar ko'p variantlarga emas. Shu bilan birgalikda ularning haqiqatga yaqin ekanligi ilmiy jihatdan asoslanmagan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Termiz toponimi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinganda ham, xalq orasidagi rivoyatlarga asoslanilganda ham nihoyatda boy tarixga ega bo'lib, mazmuniy jihatdan bir hudud nomini ifodalaydi.

Adabiyotlar

1. Safarov Sh. Termiz va termiziylar, 70-71 b.
2. Qorayev S. O'zbek toponimlari. – Toshkent, 1970. – 117 b.
3. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 3 жилдли. I jild. – Тошкент, 1960.
4. Tursunov S. Surxondaryo viloyati toponimlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.

5. Tursunov S. O‘zbekistonda toponimik nomlar va ularning tarixi. – Termiz: Surxonnashr, 2017.

6. Azimjonova N. Ozbekiston toponimikasining qisqacha izohli lug’ati. – Toshkent: Fan, 2015.

НАЗВАНИЯ НАРОДНЫХ ИГР – УНИКАЛЬНЫЙ ИСТОЧНИК ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО НАРОДОВ

Хомидова Нигора Уриновна

доктор философии (PhD) по филологическим наукам
и.о. доцента Навоийского государственного
горно-технологического университета
nigora.khamidova.1969@mail.ru

Аннотация. В данной статье говорится об узбекских и русских названиях народных игр, которые воплощают в себе творческую силу, материальное и духовное богатство истории Родины. Узбекские и русские национальные народные игры зародились несколько сотен лет назад как площадные зрелища, массовые праздники и способы борьбы. Однако большинство из них имеют теоретические аспекты, которые не принимаются во внимание. Это их разное наименование, стандарты срока действия, обновление и переименование некоторых названий из-за устаревания игр с течением времени. В статье отмечалось, что доведено до совершенства уникальное единство системы народно-художественной культуры, скрытые теоретические аспекты, которые представляют собой форму художественной культуры, такие как именование и переименование национальных народных игр.

Ключевые слова: поколение, народ, родина, сила, разум, опыт, исторический этап, на протяжении веков, именование, переименование, патриот.

XALQ O‘YINLARI NOMLARI – O‘ZBEK VA RUS XALQI IJODIY FAOLIYATINING NOYOB MANBASI

Xomidova Nigora O‘rinovna

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
nigora.khamidova.1969@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona yurt tarixining ijodiy kuchini, moddiy va ma'naviy boyliklarini o'zida mujassamlashtirgan o'zbek va rus xalq o'yinlarining nomlari to'g'risida so'z yuritilgan. O'zbek va rus milliy xalq o'yinlari qadimgi davrlarda maydon tomoshalari, bayramlarni o'tkazish hamda jang qilish usullari sifatida bir necha yuz yillar muqaddam vujudga kelgan. Biroq ularning ko'pchiligida e'tiborga olinmaydigan nazariy tomonlari ham mavjud. Bu – ularning bir-biridan farqlaydigan nomlanishi, amal qilish me'yori, vaqt o'tgan sari o'yinlarning eskirganligi tufayli ularning mazmunini yangilanib, ba'zi bir nomlarini qayta nomlashlari hamdir. Ularda xalq badiiy madaniyati tizimining o'ziga xos bir butunligi, ularni nomlash, qayta nomlash singari badiiy madaniyatning bir shakli bo'lgan yashirin nazariy jihatlar ham mukammallashib borganligi aytib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: avlod, xalq, vatan, kuch, aql, tajriba, tarixiy bosqich, asrlar davomida, nomlash, qayta nomlash, vatanparvar.

NAMES OF FOLK GAMES ARE A UNIQUE SOURCE OF CREATIVE ACTIVITIES OF THE UZBEK AND RUSSIAN PEOPLES

Khomidova Nigora Urinovna

doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

acting Associate Professor of the

Navoi State Mining and Technological University

nigora.khamidova.1969@mail.ru

Annotation. This article talks about Uzbek and Russian names of folk games that embody the creative power, material and spiritual wealth of the history of the Motherland. Uzbek and Russian national folk games originated several hundred years ago as square spectacles, mass holidays and wrestling methods. However, most of them have theoretical aspects that are not taken into account. These are their different names, standards of validity, updating and renaming of some titles due to the obsolescence of games over time. The article noted that the unique unity of the system of folk art culture, hidden theoretical aspects that represent a form of artistic culture, such as the naming and renaming of national folk games, have been brought to perfection.

Keywords: generation, people, homeland, strength, reason, experience, historical stage, throughout the centuries, naming, renaming, patriot.

Народные игры не возникают сами по себе. Народные игры уже несколько столетий создаются людьми, у которых есть светлое будущее. После

обретения нашей страной Независимости правительство уделяло серьезное внимание дальнейшему развитию этой традиции и оказывало поддержку в духовном, образовательном и экономическом аспектах [1].

Если принять во внимание, что узбекский народ, его этносы и роды являются потомками тюркских народов, то следует признать, что формирование и развитие народных игр у тюрков восходит к глубокой древности [2]. По этой причине узбекские народные игры представляют собой уникальный продукт коллективной и индивидуальной творческой деятельности, склонности к ответственности, решительности, верности национальным традициям, обычаям и ценностям, свойственным тюркскому и узбекскому народам. Примерами тому являются такие народные игры, как «Kupkari» (игра всадников), «Kurash» (борьба) и «Merganlik» (стрельба из лука), которые олицетворяют силу, интеллект, опыт, потенциал и подвижность в целом. Именно поэтому они были созданы народными представителями и смогли сохранить их на протяжении тысячелетий.

Русские народные игры, созданные и усовершенствованные представителями русского народа, веками являлись как необходимый элемент жизни и общественной деятельности многих поколений и естественно, что на каждом историческом этапе развития они выполняли различные сложные и ответственные социальные задачи, такие как обучение молодежи физическому воспитанию, обучение ее трудолюбию, воспитание в духе борьбы и уверенности в себе. Народные игры – это образец нематериальной русской культуры, наряду с песнями, частушками, пословицами и поговорками.

Традиции народных игр сохраняются и передаются из поколения в поколение как бесценный дар. Они вбирают в себя лучшие национальные традиции, отражают всю самобытность и уникальность многовековой русской культуры. История каждой игры уникальна и уходит корнями в глубокую древность. Русские народные игры разнообразны, в них можно играть как в помещениях, так и на улице; их можно разделить на летние и зимние. Как в городе, так и в сельской местности дети часто играли в «Догонялки», «Салки», «Казачи-разбойники», «Лапту», «Городки», «Горелки», «Жмурки», «Бирюльки», «Кубарь», «Калечину-малечину», «Накидушки» и многие другие игры.

Узбекские народные игры воплощают созидательную силу, материальное и духовное богатство истории Родины. Если присмотреться, они отражают в известной степени исторический опыт более быстрого познания окружающей действительности и совершенного владения ею во всех отношениях. Эти игры носят практический характер [3, 3-38]. Однако большинство из них имеют теоретические аспекты, которые не принимаются во

внимание. Это их отличительное наименование, норма срока действия, обновление и переименование некоторых названий из-за устаревания игр с течением времени. В них отчетливо видна неповторимая целостность системы национальной художественной культуры, ее национальные и индивидуальные особенности, а также совершенствуются ее скрытые теоретические аспекты, являющиеся формой художественной культуры, такие как ее именование и переименование. Их имена также являются одним из источников, обогащающих лексику узбекского языка, только они не изучены на научной теоретической и научно-практической основе с точки зрения специальных научных исследований как одна из лексико-ономастических единиц.

В основе национального характера этих игр лежит комплекс культурных ценностей тюркского, в том числе узбекского народа, невероятно огромное, интересное и спорное наследие в этой области. Естественно, что фольклор, особенно такие его жанры, как дастаны и исторические повествования, служат одним из важных источников в становлении и развитии узбекских народных игр. Например, в регионах нашей страны нам хорошо известна игра «Кураш» (борьба) в различных ее формах: *bel ushlashib kurashish* (бороться врукопашную), *turli usul bilan kurashish* (бороться разными способами), *o'yunab o'yunab kurashish* (игровая борьба) [4, 3-7]. Однако в эпической поэме «Алпомиш», которая является ярким символом нашей национальной культуры и просвещения, призыв Барчиной к Алпомишу, который сорок дней и сорок ночей борется с Кукалдошем, бросить противника на небо в качестве метода борьбы или средства наказания не является нарушением правил борьбы, а, скорее, ее развитием и усовершенствованием. В результате эта борьба не является просто борьбой, а становится известной и популярной под названием «Сурхандарьинская борьба». Если же учесть, что с тех пор, как этот эпос достиг своего совершенства, прошло уже десять столетий, то есть тысяча лет, то становление, развитие и прогресс наших игр, о которых говорится в эпосе «Алпомыш», длится уже более тысячи лет. Многие народные игры при индивидуальности своих тем и общности содержания обладают способностью в определенной мере освещать традиции и обычаи, древние нравы, трудовую деятельность, просвещенность, духовность, культуру племен и родов.

Забытые божественные молитвы, содержательные и полные смысла стихи и юмористические истории русского народа, имеющего древнюю историю, продолжают звучать в народных играх. Одна из русских древнейших игр – «Горелки». Это подвижная старинная древнерусская игра, истоки которой связаны с народной традицией встречи весны или с днём летнего солнцестояния. В древности в неё играли незамужние девушки и холостые

парни. По жребью выбирали водящего юношу, который назывался «горельщик». Все остальные игроки разбивались на пары «юноша и девушка» и становились друг за другом на расстоянии; водящий становился впереди, спиной к парам. Его задачей было поймать одного из игроков, разлучить бегущую пару. Горельщик произносил фразу:

Гори, гори ясно,
Чтобы не погасло.
Глянь на небо - птички летят,
Колокольчики звенят!
Раз, два, три... Беги!

Во время фразы «глянь на небо – птички летят...» ведущий должен был посмотреть на небо. Когда он произносил «раз, два, три... беги», последняя пара отпускала руки, и оба игрока бежали вперёд: один справа, другой слева от колонны, мимо водящего. Они должны были оббежать водящего и опять взяться за руки. Если игрокам удавалось увернуться от водящего, то они становились в колонну впереди остальных игроков, и игра продолжалась. Если горельщик-водящий поймал кого-нибудь и разбил пару, то он становился впереди с девушкой. А тот парень, который остался разлучённым без пары, становился водящим, и всё повторялось сначала. В древности, благодаря такой игре, молодые люди знакомились, выбирали суженых.

Наиболее элементарные из игр зародились еще в глубокой древности и внешне напоминают игры животных. Это простейшие игры с бегом и ловлей друг друга («Догонялки», «Ловишки», «Салки»), игры с прыганием и лазанием по деревьям («Подпрыгивание», «Качание на суку», «Салки по деревьям», детская борьба-возня и др.). Вот почему русские народные игры, в которые играют коллективно, и даже некоторые спортивные игры схожи с играми древних племен, их названиями и правилами игры. Вполне естественно, что, как и во всём есть правила, и в играх действовали определённые правила игры с момента их создания.

Первые узбекские народные игры формировались с древнейших времен и до нашей эры мудрыми и прирожденными воспитателями, которые были патриотичны, воинственны и уверены в завтрашнем дне. Для этого полезно обратиться к текстам исторических письменных источников. В исторических легендах «Тумарис» и «Ширак» также упоминаются элементы некоторых игр. Исторические легенды и письменные источники содержат сведения о том, что игровые состязания были весьма распространены среди племен саков, шаков, массагетов и являлись любимым обычаем народа. Они отмечают, что юноши племен саков/шаков и массагетов получали право жениться на девушках, которых они побеждали в играх и состязаниях. Это подтверждают и

исторические, археологические и этнографические материалы, собранные и изученные учеными, ведущими археологические раскопки. В древности среди тюркских народов, проживающих в Средней Азии, в частности у узбекского народа, такие виды спорта, как борьба, стрельба из лука и верховая езда, вернее, физические упражнения, не только существовали, но и были известны и популярны как массовые игры [5, 13-18]. В исторических записях греческий историк Геродот писал об искусных стрелках племени саков, живших бок о бок с хорезмийцами так: «Саки были известны среди всех стрелков мира как очень искусные стрелки, не тратившие зря ни одной пули». Это свидетельствует о том, что стрельба из лука была широко распространена среди людей с древних времен.

В исторических источниках упоминается, что римский писатель Климент Александрийский (II в. до н.э.) писал о женщинах скифского племени так: «Скифские женщины ускользали и стреляли из лука в спину, сидя на лошадях, так же, как и мужчины».

Из этого следует, что тюркские и узбекские национальные народные игры развивались в глубокой древности как полевые представления, празднества и способы борьбы, несколько сотен лет назад. Подтверждением этому служат археологические раскопки и не только этнографические материалы древнеримского писателя Элиана, но и исторические памятники и источники, найденные в различных регионах нашей страны, тюркские надгробия, диалектные образцы ряда научно-исторических трудов, например, «Девону лугат-ит турк», которые обосновывают как этнографическое, так и диалектологическое содержание. История их возникновения связана с развитием народных национальных игр, в частности спортивных, театральных, танцевальных и цирковых искусств в нашей стране.

Содержание народных игр, созданных тысячи лет назад, очень богато, красочно и весьма разнообразно. Они имеют определенный исторический характер, то есть созданы для укрепления патриотизма, сохранения свободы страны, равенства и стабильности. В их содержание вошли лучшие традиции и формы народных праздников и представлений. Кроме того, народные игры, обладая уникальными характеристиками и особенностями, обогатили наше национальное образование и культуру, прекрасно воплощая в себе народные традиции, ценности и обычаи своих потомков.

Например, среди узбекских национальных народных игр выделяются древние и захватывающие игры «Дорбоз» и «Симбозлик» (ходьбы по канату).

В прошлом игры «Дорбоз» и «Симбозлик» (ходьбы по канату) и мастерство игроков были настолько известны, что их видели даже правители и

известные полководцы, а также иностранные гости. Естественно, что массовые и местные праздники, а также сезонные базары турок, особенно узбеков, не обходились без этих игр.

В связи с большим интересом народа к этим играм в крупных городах на Регистанах («Регистаном» называли главные площади в городах Среднего Востока), рыночных площадях и Чорсу (площадь в центре города) возводились канаты. Непрерывные звуки карнай и сурнай (инструменты музыки), звучащие с утра, возвестили народа о начале представления. Услышав это, народ собирался, и начинались игры на канате. Конечно, собравшиеся зрители с волнением наблюдали за смелыми движениями Дарбоза (игрока на канате), играющего с тысячей и одной тонкостью на высоком канате. Если зрители с одной стороны удивлялись медленными, но позитивными действиями Дарбоза (игрока на канате), с другой стороны были шокированы и опечалены его негативными действиями.

Одновременно с Дарбозами (игроками на канате) и канатными играми в Средней Азии, особенно на территории нашей страны, широко распространилась игра на деревянных ногах. В исторических источниках, эпосах и романах описывается, как игроки на деревянных ногах бегают, прыгают, танцуют, а также играют мелодии на национальных музыкальных инструментах, таких как карнай и сурнай, и ставят чудесные представления оказывая положительное, а иногда и отрицательное влияние на молодежь.

К таким играм относятся «Чавғон ўйини» (командная спортивная игра, в которую играют верхом на лошади), «Палогмондан тош отиш» (метание камней), (камень средней ширины, изготовленный из кожи и ткани, называется палогмоном). В дастане Алишера Навои «Фархад и Ширин» Фархад нанес сокрушительный удар, стоя на горе, бросив камень врагам, вторгшимся в Армению. В 1941 году из узбекских парней была сформирована дивизия генерала Панифилова, и поскольку они были мастерами «каменеметания», они метко забрасывали взрывными гранатами ряды вражеских танков, пришедших занять Москву, останавливали врагов и заставляли их отступать и это до сих пор упоминается в различных исторических источниках и языках.

В «Бобурноме» много сведений о таких играх как “От устида копток ўйини” (игра с мячом на лошади), “Кураш” «борьба», “Қўл кучини синаш” (испытание силы рук), “От устида ўйнаш” (игра на лошади), “От устидан сакраш” (прыжки на лошади), “Мерганлик” «Стрельба из лука» [6, 3-137]. Игры, упомянутые в произведении, усиливали боевой дух воинов. Царь и поэт Бабур вел и победил встречный бой с двенадцатью тысячами воинов против сотысячной армии индийского короля, оснащенной боевыми слонами в Бонипарте // Панипарте Индии.

Тот факт, что с древних времен до начала 20 века в Хорезме для обучения молодежи и совершенствования ее боевых навыков правительство открывало путь широкому распространению «Таёк ўйини» (Игра в палку), что также показывает, что существует естественная потребность в народных играх. Как один из тюркских народов с древней историей, из изучения социально-бытового традиционного образа жизни узбекского народа, основанного на научно-теоретических и научно-практических основах, известно, что на территории нынешней Республики Узбекистан когда-то проживали преимущественно кочевые и полукочевые народы. Их основным занятием было животноводство и земледелие. Скотоводством занимались не только полукочевые, но и оседлые крестьяне. Крестьяне использовали лошадей, овец и крупный рогатый скот для вспашки земли, молотбы пшеницы и черпания воды из рек и колодцев. Также торговцы и ремесленники использовали домашний скот. Благодаря им зародился ряд узбекских народных игр, таких как “Подачи” (Пастух), “Оқсоқ бўри ва қўйлар” (Хромой волк и овцы), “Эчкилар ва чўпонлар” (Козы и пастухи), “Оқ туя” (Белый верблюд), “Бўри келди” (Пришел волк), а их правила совершенствовались и развивались подобно им.

Чтобы подготовить основательный и прочный фундамент для своего будущего, представители нашего народа представили среди молодежи очень интересные игры, такие как “Каптар ўйини” (игра в голубя), “Чағалак” (танец с огнем), “Юмронқозиқ” (суслик), “От ўйини” (игра в лошадку), насыщенные разнообразными движениями и танцевальными играми среди молодежи. При этом народные избранники прививали своим детям мысль о том, что они должны быть бдительными и сильными, как животные, невинными, как птицы, старательными и трудолюбивыми.

У племен и родов узбеков были знаменитыми такие игры как, игра с музыкальными инструментами “Карнайми, сурнай”, означающая свадебную церемонию, такие игры как “Нина, ип ва тугунча” (иглолка, нить и узел), “Тапир-тўпур қайрағоч”(шумная сосна), “Қовоқ экиш” (посадка тыквы) представляют различные стороны общественно-бытовой жизни народа, чтобы защитить свою жизнь и страну такие игры как, “Хўрозлар жанги” (петушинный бой), “Хўроз ва товуқ” (петух и курица) “Қоч болам, қуш келди” (Беги детка, прилетела птица) показывали реалистичные картины вступления в бой, игра как “Оқ теракми-қўқ терак” (выбей из круга) выражает взаимное равноправие и беспристрастное сотрудничество.

В крестьянских семьях издавна было много детей, которые любили играть в массовые игры. В них можно было проявить смекалку, быстроту, ловкость, физическую выносливость. К тому же, народные игры поднимали

настроение. Для этого во время игр было принято произносить считалки, чтобы по жребию выбрать ведущего. Считалок существует великое множество, многие пришли из далёкого прошлого, где раньше выполняли роль обрядовых заклинаний. Вот одна из таких считалок:

Катится горох по блюду,
Ты веда, а я не буду.
Я куплю себе дуду
И по улице пойду.
Громче, дудочка, дуди!
Мы играем – ты веда!

В древности крестьяне играли в такие народные игры, как «Городки», «Накидушки», «Гурчалку», «Калечину-малечину», «Чиж», «Кубарь» и другие. Они являются своеобразным способом общения не только между детьми, но и между людьми разных возрастов и поколений. Это возможность прикоснуться к истокам народной культуры, возможность окунуться в ту историческую эпоху, в которой выковывался самобытный характер русского народа.

Хотя национальные народные игры были созданы еще в очень древние времена, но на каждом историческом этапе своего развития они менялись по содержанию и выполняли различные социальные задачи. Ценности, традиции, науки, в том числе национальные игры народа, связаны с жизнью нашего народа и передаются из поколения в поколение. Знания и опыт, приобретенные поколениями, были проверены на практике, закреплены и усовершенствованы следующими поколениями. Их содержание обновлялось каждым поколением и этапами развития общества. Дети вместе под присмотром старших играли в национальные игры, в которые играли взрослые на этом этапе развития общества. Многие национальные игры передавались от отцов и дедов детям и внукам. Примерами могут служить такие игры, как «Кураш» (борьба) и «Кўпкари» (игра всадников).

Итак, причины возникновения узбекских и русских народных игр следующие:

1. Люди заботились о будущем своих детей и стремились создать для них полезные вещи, в том числе игры.

2. Формировали сложные черты характера человека, особенно сложные сценические игры, чтобы сделать свое потомство сильным, выносливым, умным и смелым.

3. Так как в каждой игре существуют определенные непреложные правила и законы, нужно научиться осознанно и умело реагировать на тенденцию изменений в природе и обществе своим мастерством.

4. Психическая адаптация к тому, что общественные отношения, как и правила народных игр, деликатны и противоречивы.

5. Приучение себя и своих партнеров жить на основе равенства и нейтралитета в общественных отношениях, так же как необходимо уважать соперников в каждой игре.

6. Принимая во внимание наличие в содержании народных игр мужества, отваги, трудолюбия, уважения к другим и духовного поощрения, обучение их детям как в форме игры, так и в качестве серьезного занятия.

7. Игры являются одним из образовательных и воспитательных процессов, которые формируют чувство патриотизма, смелости, трудолюбия и честности.

Испокон веков в играх ярко отражается образ жизни людей, их быт, труд, представление о чести, смелости, мужестве, желание обладать силой, ловкостью, выносливостью, быстротой и красотой движений, проявлять смекалку, выдержку, творческую выдумку находчивость, волю, стремление к победе.

Литература:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва спортнинг янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 1999 йил 27 майдаги қарори. Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги қонуни. – Тошкент, 2000.

2. Хўжаев Ф, Муродов М, Мирсолихов С. Халқ миллий ўйинлари. 1-қисм. – Тошкент, ХТХМОМИ, 2001. 3-47-бетлар.

3. Насриддинов Ф.Н. Ўзбек халқ миллий ўйинлари. – Тошкент. 1993. 3-38-бетлар.

4. Насриддинов Ф.Н. Ўзбек халқ миллий ўйинлари. – Тошкент, 1993. 3-7-бетлар.

5. Усмонхўжаев Т.С, Мелиев Х. Миллий ҳаракатли ўйинлар. – Тошкент, Ўқитувчи, 2000.

6. Захриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1988. 3-137-бетлар.

7. И.Усмонов. Одобни ҳаётдан ўргандим. – Т.: Ўқитувчи, 1995. 21-27-бетлар.

8. Литвинова М.Ф. Русские народные подвижные игры. Под редакцией Руссковой Л.В. – Москва: Просвещение, 1986.

9. Кудрявцев В.Т, Егоров Б.Б. Развивающая педагогика оздоровления. – Москва: Линка-пресс, 2000.

10. Князева О.Л., Маханёва М.Д. Приобщение детей к истокам народной культуры. – С. Петербург: Акцидент, 1997.
11. Осокина Т.И., Тимофеева Е.А., Фурмина Л.С. Игры и развлечения детей на воздухе. – Москва: Просвещение, 1983.
12. Уринова Х.Н. (2022). Важность изучения названий народных игр. Азиатский журнал многомерных исследований, 11 (4), 145-149.

ТОПОНИМИКА

ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАР HAQIDAGI BA'ZI QARASHLAR

Turdibekov Mo'min To'rayevich
filologiya fanlari doktori, professor
Renessans ta'lim universiteti

Annotatsiya. Onomastik birlik sanaluvchi atoqli va turdosh otlar masalasida o'zbek va jahon tilshunosligida turli qarashlar mavjud. Onomastika o'ziga xos geterogen sistema xarakterida bir qator gomogen tagsistemalarga ega bo'lib, ulardan ba'zilari, jumladan, etnonimlar va religonimlarning ba'zilari atoqli nom bo'lsa-da, atoqli otga kiritib bo'lmaydi. Atoqli va turdosh ot masalasidagi turli xil qarashlar mavjudligi, ayniqsa, rus tilshunoslari tomonidan bildirilgan fikrlarda ham yaqqol ko'rinadi.

Ushbu maqolada onomastik birliklar haqida fikr-mulohazalar, qarashlar tahlil qilingan. Atoqli nomlar onomastikaning asosiy lug'aviy birligi, turdosh nomlar esa til umum leksikasining lug'aviy birligi ekanligi qayd etilgan. Atoqli otlarga xos xususiyatlar, onomastik leksikani apellyativ leksikadan farqlovchi jihatlar nomshunos olimlarning fikrlariga asoslangan holda izohlangan.

Kalit so'zlar: etnonim, toponim, antroponim, atoqli ot, turdosh ot, onomastic birlik.

НЕКОТОРЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ОНОМАСТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ

Турдибеков Мумин Тураевич
доктор филологических наук, профессор
университет Ренессанс

Аннотация. В узбекской и мировой лингвистике существуют различные взгляды на вопрос о собственных и нарицательных именах существительных, которые считаются ономастической единицей. Ономастика, будучи неоднородной системой, имеет ряд однородных подсистем, некоторые из которых, в том числе этнонимы и религионимы, хотя и являются собственными именами, не могут быть включены в состав имени собственного. Существование различных взглядов на проблему собственных и нарицательных имен особенно можно видеть в мнениях, высказанных русскими лингвистами.

В статье анализируются взгляды на ономастические единицы. Отмечается, что имена собственные являются основной лексической единицей ономастики, а нарицательные имена являются лексической единицей общей лексики языка. Характерные черты имен собственных, аспекты, отличающие ономастический лексикон от апеллятивного, объясняются на основе мнений ученых-ономастов.

Ключевые слова: этноним, топоним, антропоним, имя собственное, нарицательное имя, ономастическая единица.

SOME VIEWS ON ONOMASTIC UNITS

Turdibekov Mumin Turayevich

doctor of Philology, professor
Renaissance University

Annotation. In both Uzbek and global linguistics, various perspectives exist regarding the distinction between proper and common nouns, which are considered onomastic units. Onomastics, as a heterogeneous system, comprises several homogeneous subsystems, some of which—such as ethnonyms and religionyms—although classified as proper names, cannot be fully included within the category of proper nouns. The diversity of viewpoints on the issue of proper and common names is especially evident in the opinions expressed by Russian linguists.

This article analyzes different views on onomastic units. It emphasizes that proper names constitute the core lexical unit of onomastics, while common nouns belong to the general lexical system of the language. The distinctive features of proper names, as well as the aspects that differentiate the onomastic lexicon from the appellative one, are explained through the lens of established onomastic scholarship.

Keywords: ethnonym, toponym, anthroponym, proper name, common noun, onomastic unit.

Onomastika leksikologiyaning bo‘limlaridan biri bo‘lib, nom berish san’ati demakdir. Til fanining hozirgi davr nuqtayi nazaridan qaraganda, bu jabha tilshunoslikning mustaqil sohasi maqomiga ega. Bu bo‘limda onimlar termini bilan ham ataluvchi atoqli otlar tizimi o‘rganiladi. XX asrning 60-70-yillariga qadar onomastika termini kishi ismlari tizimi ma’nosida ishlatilib kelindi. Onomastika o‘ziga xos geterogen sistema xarakterida bir qator gomogen tagsistemalarga ega. Xususan, antroponimika, toponimika, zoonimika, astroponimika va boshqalar. Bulardan tashqari, onomastika, tabiat va jamiyatdagi real tushunchalarning atoqli otlarini bildiruvchi real nomlarni ham, noreal xarakterdagi hayotiy tushunchalarning

atoqli nomlarini-mifonimlarni ham o'z ichiga oladi. Onomastika doirasida o'rganiluvchi atoqli nomlar bebaho pragmatik qulaylikka ega. Ularning bebaho pragmatik qulayligi shundaki, atoqli otlar oldindan kelishilmagan holda, qandaydir shaxs mavjudot yoki tabiiy-jug'rofiy obyekt haqida ommabop imkoniyat hosil qiladi. Sobiq Ittifoq davri tilshunosligida onomastik yo'nalishdagi fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari XX asrning 40-yillaridan keyin paydo bo'la boshladi. 50-yillarda toponimik tavsifdagi bir qator ishlar vujudga keldi. G.Konkashpayev (1948), Lebedeva (1952), Hasanov (1953), Abdurahmonov (1954), Ripetskaya (1954), Miroslovskaya (1955), N.Podolskaya (1956), Mixaylov (1956), Mitrafanova (1958) larning dissertatsion ishlari ana shular jumlasiga kiradi. 1958-yili esa A.Superanskayaning onomastikaning umumiy masalalariga bag'ishlangan tadqiqoti vujudga keldi.

Turkologiyada asosan 1950-yildan so'nggi davrlarda onomastik mavzuda bir qator ilmiy ishlar yozildi. Ularni mavzu jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin: 1) toponimik tavsifdagi tadqiqotlar (K.Abdimuratov, R.M.Yuzboshev, A.Abdurahmonov, S.Otaniyozov, D.Isayevlarning nomzodlik dissertatsiyalari); 2) Antroponomik tavsifdagi tadqiqotlar (Januzoqovning nomzodlik ishi); 3) gidrominik tavsifdagi tadqiqotlar (A. Kamolovning nomzodlik dissertatsiyasi).

O'zbek onomastikasiga 1960-yillardan e'tiboran "poydevor" qo'yila boshlandi. Bu borada E.A. Begmatovning e'tiborga loyiq xizmati bor. U o'zbek ilmiy antroponimikasi sohasiga asos solgan olimlardan dastlabkisidir. Olimning o'zbek onomastikasiga doir bir qator ilmiy ishlari vujudga keldi. Onomastika tilshunoslikning leksikologiya qamrovidagi maxsus sohasi sifatida shakl topayotganligi yuqorida ham eslatilgan edi. Mustaqillik, alohidalik kasb etish huquqini qo'lga kiritayotgan har bir lingvistik soha, sathning o'z nazariy masalalari bo'ladi. Masalaga ayni shu jihat asosida yondoshilganda, onomastikaning ham, uning mavqeyi va maqomini belgilovchi o'z nazriy masalalari bo'ladi. Ana shu masalalardan biri atoqli nom va lug'at tarkibining asosiy birligi – odatdagi so'z, turdosh nomlar munosabatidir. Onomastika atoqli nomlarni o'rganadi. Onomastik birlik sanaluvchi atoqli nomlarning tiplari turli xil. Unda ma'nosi shu til egalariga tushunarli o'ta oddiy so'zlardan tortib, ma'nosi zukko tilshunoslar tomonidan ham aniqlanishi qiyin bo'lgan, nomning qaysi tilga mansubligi ham noma'lum bo'lgan eng murakkab onimgacha mujassamlashgan bo'ladi. Har bir tilning barcha taraqqiyot bosqichlarida subyekt yoxud obyektning nomlanish jarayonida unga ba'zan zamonaviy, ba'zan allaqachon tarix xazinasiga aylangan, ba'zan xayoliy shaxslarning, obyektlarning nomlari tanlanadi. Ana shu narsa onomastikaning asosiy birligi sanaluvchi onimlar tarkibining har xilliligiga sabab bo'ladi. Atoqli ot atoqli nom tushunchasidan farq qiladi. Atoqli nomlar atoqli ot bo'lmasligi, ular turdosh

otlarga mansub bo'lishi ham mumkin. Xususan, toponim, antroponim, gidronim, oykonim, oronim va urbonimlar va hokazilar atoqli nom sifatida atoqli otlarga ham mansub bo'lsa-da, realonimlarning ayrimlarini, ayniqsa, etnonimlarni atoqli nom degan holda, atoqli otlarga kiritib bo'lmaydi. Atoqli nomlar onomastikaning asosiy lug'aviy birligi sanaladi. Bu barcha tomonidan mushtarak e'tirof etilgan. Turdosh nomlar esa – til umum leksikasining lug'aviy birligidir. Turdosh nomlarning bu xususiyati ham mushtarak e'tirof etilgan. Har bir (istalgan) til so'zlarining atoqli va turdosh kabi guruhlanishi shu til leksikasining asosiy bo'linishlaridan biridir. Har ikki guruh so'zlarning o'z maqsadi va vazifasi bo'ladi. Turdosh otlar bir turkum nomlarni uyushtiradi. Bir turkumga uyushgan nomlar umumiy xususiyatlar asosida tutashadi. Bunday nomlar obyektiv borliq narsa-hodisalarini umumlashgan holda tasavvur ettiradi. Atoqli nomlar obyektiv borliqning ma'lum bir to'ldasiga mansub ayrim narsa-predmetlarni, obyektlarni yakka, individual, tarzda nomlash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, Millning e'tirof etishicha, atoqli otlar nokonnotativdir. Ular narsa-predmetlarni atasa-da, ularning biror-bir xususiyatini o'zida mujassamlashtirmaydi. Atoqli nomlar alohida, yakka-yolg'iz predmetlar haqidagi tushunchaga aloqador bo'lib, ular haqida biror bir tasdiq yoxud inkor ma'lumot bermaydi. Shuning uchun bunday otlar tarjima qilinmaydi, obrazli iboralar yordamida ustama nom olmaydi. Millning ko'rsatishicha, atoqli nomlar uylarga bo'r bilan qo'yiladigan belgilarga o'xshaydi. Bunday belgilar ma'lum bir maqsadni ko'zda tutadi, lekin ma'noga ega bo'lmaydi. Atoqli nomlardan ko'zda tutiladigan maqsad faqat denotatni ko'rsatishdir. Mantiqan olinganda, yakka-yolg'iz obyektlar bo'lmasa, nutqda ularni ifoda qiluvchi atoqli nomlar ham bo'lmaydi. Atoqli otlardan farqli o'laroq, turdosh ot orqali nomlangan obyekt noaniq va cheklanmaydi. Atoqli ot bilan nomlangan obyekt esa hamma vaqt aniq bo'ladi va boshqalaridan qat'iy cheklanadi. Atoqli nom bilan odatdagi so'zning, ya'ni, turdosh nomning o'zaro munosabati, ularning farqlanish o'lchovlari masalasida fanda bir xillik yo'q. Buni rus tilshunosligidagi ba'zi dalillar ham tasdiqlaydi. Masalan, V.D.Bondaletovning 1983-yili e'lon qilingan "Rus onomastikasi" monografiyasida atoqli va turdosh nomlarning farqi masalasida har xilliklar mufassal aytib o'tilgan. Biz o'sha asarda zikrini topgan uch yirik rus nomshunoslarning fikrini keltirishni va shu bilan ayni masalaga bo'lgan munosabatlarning har xilliligiga urg'u berib o'tishni lozim topamiz. Rus onomasiologi A.A.Belitskaya atoqli va turdosh otlarning farqini ularning vazifasidagi farqlar bilan bog'laydi. E'tirof etilishicha, atoqli nomlar alohida-alohida hodisalarning nomi sifatida individuallashtiruvchilik vazifasini bajaradi: turdosh so'zlar esa klassifikatsiyalovchilik vazifasini bajaradi. Ularning birinchisini bir sinf, bir to'ldadagi ayrim obyekt hodisalarini shu to'da, shu sinfdagi u bilan bir xil bo'lgan boshqa obyekt – hodisadan ajratib tursa, ikkinchisi bir hodisa va obyektini shu bilan jinsdosh boshqa obyekt yoxud hodisa bilan birlashtirib, qo'shib turadi. Rus

nomshunoslaridan boshqa biri – A.V.Superanskaya atoqli nomlarni, ularning uch belgi-xususiyati asosida turdosh nomlardan farqlamoqchi bo‘ladi. Olimaning ko‘rsatishicha, atoqli nomlarda turdosh so‘zlar uchun quyidagi uch belgi mavjud.

1) Atoqli nomlar to‘da, guruhlar uchun emas, balki ularning shu to‘da, shu guruhga mansub alohida biri uchun beriladi. Atoqli nom olgan narsa-obyektda ayni ana shu narsa-obyekt mansub bo‘lgan guruh, to‘dadagi boshqa narsa-obyektlarga xos xususiyatlar bo‘lmaydi:

2) Atoqli nom olgan narsa, hodisa doimo aniq chegaralangan, ajratilgan bo‘ladi:

3) Atoqli nom tushunchaga ega bo‘lmaydi, biror-bir tushuncha bilan bog‘lanmaydi, u til sathiga xos aniq va muayyan bir konnotatsiyaga ega bo‘lmaydi. Olimaning xulosa fikri bo‘yicha “atoqli nom tushuncha bilan bog‘lanishdan holi bo‘ladi. U yakka tavsifdagi konkret obyekt bilan zich va mustahkam aloqada bo‘ladi”.

V.A.Nikonov atoqli nomni turdosh nomdan yana boshqa xususiyat asosida farqlaydi. U atoqli nomlarga “ijtimoiylik tamg‘asi”ni bosib, ana shu asosda ularni turdosh otlardan ajratmoqchi bo‘ladi.

Polyak tilshunosi E.Grodzinskiy 1973-yili nashr qildirgan “Atoqli nomlarning umumiy nazariyasi ocherki” monografiyasida onomastik birliklarning turdosh nomlarga xos: 1) bir designatli; 2) ko‘p designatli; 3) bo‘sh (puch) designatli kabi guruhleri haqida fikr yuritadi. Bu olim ham atoqli nomning ma‘lum bir konkret tushunchalar bilan bevosita bog‘lana olmasligini e‘tirof etadi.

Onomastikaning birligi sanaluvchi atoqli nom bilan odatdagi so‘z o‘rtasidagi yana bir farq mavjud: atoqli nom hamma vaqt ot so‘z turkumiga mansub bo‘ladi, bu hamma onomastik birlik – atoqli nom uchun xos bo‘lgan xususiyatdir. Onomastik birlik sanalmaydigan odatdagi oddiy so‘zlar esa ot turkumiga mansub bo‘lishi yo bo‘lmasligi ham mumkin. Lekin muhimi shundaki, atoqli nom – onomastik birliklarning vujudga kelishida turdosh nomlar baza, asos vazifasini o‘taydi. Negaki barcha atoqli otlar turdosh otlar zamini materiali asosida vujudga kelgan. Nomlarning atqililashuvi davr jihatidan keyingi hodisadir. Atoqli nomlarning ot turkumiga mansubligini yana bir boshqa jihat ham asoslaydi: ot bo‘lmagan boshqa turkumga xos so‘zlar ham onomastik birlikka aylanganda, u qaysi so‘z turkumiga mansub bo‘lishidan qat’i nazar, otga ko‘chadi. Masalan, *Sotib oldi* (fe‘l) – *Sotvoldi* (ot), *o‘tkir* (sifat) – *O‘tkir* (ot), *go‘zal* (sifat) – *Go‘zal* (ot), *sakson* (son) – *Sakson* (ot) va hokazolar. Ayni o‘rinda onomastik birlik hamma vaqt ham atoqli otga kiradimi degan muammoga aniqlik kiritishga to‘g‘ri keladi. Yo‘q, onomastik birliklar turdosh ot tavsifida ham bo‘la oladi. Masalan, o‘zbek, tojik, rus, qirg‘iz, qozoq etnonimlari onomastik birlik, lekin ular atoqli ot emas. Shu bois atoqli ot va atoqli nom atamaları

o‘zaro farqlanadi. Atoqli nom onomastikaning birligidir. Atoqli otlar esa bosh harflar bilan yoziluvchi onomastik birlik hisoblanadi. Atoqli otlar keng doiradagi tushuncha sanaladi: ular kichik harf bilan yoziluvchi turdosh otlarni ham o‘z ichiga oladi.

Shu o‘rinda yana bir narsani e‘tirof etish zarurki, “bebaho pragmatik qulaylikka ega bo‘lgan” (Dj. Sirl) atoqli otlar turdosh otlar zaminida vujudga kelganidek, atoqli otlarning turdosh otlarga o‘tish hollari ham mavjud: “denotatning ayrim belgi-hususiyatlariaro aloqalar mushtarak va barqaror bo‘lib qolgan taqdirda, atoqli nomlar turdosh nomlarga aylanadi, ya’ni atoqli ot unga taalluqli bo‘lgan barcha obyektlarni o‘zida mujassam etgan umumlashgan tushunchaga mansublik xususiyatini kasb etadi”.

Adabiyotlar

1. Ономастика Узбекистана (Библиографический указатель конца XIX века – 1998 г.). – Ташкент, 1989.
2. Бегматов Э.А. Узбекская антропонимика (состояние и проблемы). Ономастика Узбекистана. – Тошкент, 1987. – С.62.
3. Бердиалиев А. Сўз ва атамалар ҳосил қилишнинг баъзи назарий масалаларига доир. Давлат тили ҳақидаги қонунни амалга оширишнинг долзарб муаммолари мавзuidaги республика илмий-амалий конференцияси тезислари. – Навоий, 1993. – Б. 23.
4. Арутюнова Н. Д. Номинация референция, значения. Языковая номинация. Общие вопросы. – М.: Наука, 1977. – С. 190.
5. Суперанская А. В. Эволюция взглядов на имя собственное в науке о языке. Развитие методов топонимических исследований. М.: Наука, 1970. – С.450.
6. Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – М.: Просвещение, 1983. – С 1.

QIZILTEPA HUDUDI TOPONIMIYASINING TARIXIY-MADANIY

TAHLILI

G‘aniyev Nurbek O‘ktamovich

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

nurbek-ganiyev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qiziltepa tumani toponimlarining shakllanishi, rivojlanishi va ularning lingvistik hamda tarixiy tahlili yoritilgan. Toponimlarning kelib chiqishi hududning tarixiy taraqqiyoti, madaniy o‘zgarishlari va etnik tarkibi

bilan uzviy bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Maqolada fonetik, morfologik va semantik jihatdan toponimlarning tahlili berilib, ularning turli tarixiy davrlarda qanday omillar asosida shakllangani ochib beriladi. Ayniqsa, antrotoponimlar va gibridd toponimlarning paydo bo‘lishi, Sho‘ro davridagi nomlash jarayonlari va mustaqillikdan keyingi nomlash an‘analari tahlil qilinadi. Shuningdek, gidronimlarning tavsifi va ularning hududiy jihatdan shakllanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Mahalliy shevalarda ishlatilgan ayrim tarixiy so‘zlarning yo‘qolib borayotgani va ularni izohli lug‘atlar asosida qayta tiklash lozimligi ta’kidlanadi. Ushbu tadqiqot o‘zbek toponimiyasi, etnotoponimiya va gidronimiyasini o‘rganishning ilmiy ahamiyatini ochib berish bilan birga, raqamli texnologiyalar orqali milliy ma’lumotlar bazasini shakllantirishga oid takliflarni ham ilgari suradi.

Tayanch so‘zlar: toponimika, etnotoponim, mikrotoponim, gibridd toponim, lingvistik tahlil, etnik tarkib, madaniy meros, tarixiy jarayon, fonetik o‘zgarish, morfologik tahlil.

ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ ТОПОНИМИИ КЫЗЫЛТЕПИНСКОГО РАЙОНА

Ганиев Нурбек Уктамович

доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Навоийский государственный горно-технологический университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются формирование, развитие и лингвистический, а также исторический анализ топонимов Кызылтепинского района. Подчеркивается, что происхождение топонимов тесно связано с историческим развитием региона, культурными изменениями и этническим составом населения. В статье проводится фонетический, морфологический и семантический анализ топонимов, раскрываются факторы, повлиявшие на их формирование в разные исторические периоды. Особое внимание уделяется появлению антропотопонимов и гибридных топонимов, процессам наименования в советский период и традициям именования после обретения независимости. Также дается характеристика гидронимов и анализируется их территориальное формирование. Отмечается постепенное исчезновение некоторых исторических слов, использовавшихся в местных говорах, и необходимость их восстановления на основе толковых словарей. Данное исследование не только раскрывает научную значимость изучения узбекской топонимии, этнотопонимии и гидронимии, но и предлагает рекомендации по созданию национальной базы данных с использованием цифровых технологий.

Ключевые слова: топонимика, этнотопоним, микротопоним, гибридный топоним, лингвистический анализ, этнический состав, культурное наследие, исторический процесс, фонетические изменения, морфологический анализ.

HISTORICAL AND CULTURAL ANALYSIS OF TOPONYMY OF KYZYLTEPINSKY DISTRICT

Ganiev Nurbek Uktamovich

doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Associate Professor

Navoi State Mining and Technological University

Abstract. This article examines the formation, development, and linguistic as well as historical analysis of the toponyms of Kiziltepa district. It highlights that the origin of toponyms is closely linked to the historical development of the region, cultural changes, and ethnic composition. The article provides a phonetic, morphological, and semantic analysis of toponyms, revealing the factors that influenced their formation in different historical periods. Special attention is given to the emergence of anthroponyms and hybrid toponyms, the naming processes during the Soviet era, and naming traditions after independence. Additionally, the characteristics of hydronyms and their territorial formation are analyzed. The gradual disappearance of certain historical words used in local dialects is noted, along with the need to restore them based on explanatory dictionaries. This study not only reveals the scientific significance of researching Uzbek toponymy, ethnotoponymy, and hydronymy but also proposes recommendations for creating a national database using digital technologies.

Keywords: toponymy, ethnotoponym, microtoponym, hybrid toponym, linguistic analysis, ethnic composition, cultural heritage, historical process, phonetic change, morphological analysis.

Kirish. Mamlakatimiz hududidagi toponimlarning shakllanishi va rivojlanishi xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy o'zgarishlari hamda etnik tarkibi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni lingvistik va tarixiy nuqtai nazardan o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Toponimika nafaqat geografik obyektlarning nomlanish xususiyatlarini ochib berish, balki xalqning tarixiy xotirasi, etnik tarkibi va madaniy merosini tadqiq etish uchun muhim manba hisoblanadi.

Qiziltepa tumani toponimlari ushbu hududning uzoq tarixiy jarayonlari, etnik tarkibi hamda madaniy qatlamlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning shakllanishi turli tarixiy davrlarda kechgan demografik va lingvistik o'zgarishlar natijasidir.

Ushbu hududdagi joy nomlari qadimgi etnoslar, mahalliy shevalar hamda geografik xususiyatlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan bo'lib, ularni lingvistik, tarixiy va etnografik jihatdan tahlil qilish muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Toponimlarning etimologik tahlili ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash bilan birga, hududda yashagan xalqlarning tillari, madaniy aloqalari va ijtimoiy hayoti haqida muhim ma'lumotlar beradi. Qiziltepa atrofidagi joy nomlarining shakllanish jarayonlari ayniqsa ko'chmanchi va o'troq aholi o'rtasidagi madaniy ta'sirlar bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon mintaqaviy leksika va dialektal o'ziga xosliklarni ham aks ettiradi.

Lingvistik jihatdan olib qaraganda, Qiziltepa toponimlari fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ayrim joy nomlarining fonetik o'zgarishlari tarixiy talaffuz va dialektal farqlarga bog'liq bo'lsa, morfologik jihatdan ularda so'z yasash modellari, qo'shimchalarning funksional o'rni va sintaktik strukturalar kuzatiladi. Semantik tahlil esa ushbu nomlarning ma'no qatlami, metaforik asoslari va tarixiy-geografik kontekstini yoritishga imkon beradi.

Mazkur tadqiqot Qiziltepa tumanidagi toponimlarning lingvistik, kognitiv va etnografik jihatlarini o'rganish, ularning tarixiy manbalar bilan bog'liqligini tahlil qilish hamda toponimik qatlamlarning shakllanish xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Bu ilmiy yondashuv orqali hududning o'ziga xos joy nomlari ham tarixiy, ham lingvistik kontekstda keng qamrovli talqin qilinadi.

Asosiy qism. Qiziltepa toponimlarining etimologik tahlili, ularga oid termin va atamalarining ishlatilishi xususida etnogenez, etnos va etimologik tahlil yuzasidan hudud toponimlarini o'rganish uchun yetarlicha manba hamda ma'lumotlar bor va mavjud. Toponimiya sohasi bo'yicha etimologik lug'atlar tuzish amaliyoti O'zbekistonda yetarlicha amalga oshmagan bo'lib, yo'q darajada desak ham, bo'laveradi. Tilshunoslikning leksikografiya bo'limida so'zlarning etimologik jarayonlari lingvistik nuqtai nazaridan tahlil va tavsif qilinadi. O'zbek olimlaridan Sh.Rahmatullaevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" etimologik yo'nalishda dastlabki amaliy ishlardan hisoblanadi" [5].

Onomastika sohasining yetuk olimi T.Nafasov tomonidan ilgari surilgan fikrga ko'ra, toponimik obyektlarga nom berishda umumlashgan lug'aviy birliklarning onomastik leksika sathiga o'tishi "onomastik tasodif" deb izohlanadi [3]. Ushbu yondashuvni tahlil qilish va baholash uchun bir nechta muhim jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

Onomastik jarayonlarda tasodifiylik omili mavjud bo'lsa-da, bu tasodif murakkab lingvistik, tarixiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liq jarayon bo'lib, har qanday toponim o'z shakllanishida til tizimining ichki qonuniyatlariga, xalqning tarixiy xotirasiga va etnolinguistik xususiyatlariga asoslanadi. Shunday ekan,

onomastik birliklarning shakllanishi tasodifiy bo'lishi mumkin bo'lsa-da, u butunlay qonuniyatlardan xoli emas.

Onomastik tasodif tushunchasi biror lug'aviy birlikning qanday omillar ta'sirida toponim sifatida shakllanganini izohlashda yetarli darajada aniq tamoyillarni belgilamaydi. Masalan, tabiat hodisalari, geografik xususiyatlar yoki tarixiy shaxslar nomlari asosida yuzaga kelgan toponimlar ma'lum mantiqiy bog'liqlikka ega bo'lib, ularning shakllanishi izchil jarayon sifatida qaralishi lozim.

Ushbu qarash boshqa onomastik tadqiqotlar bilan taqqoslanganda, ba'zi cheklovlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, A.V.Superanskaya, V.A.Nikonov kabi olimlarning asarlarida onomastik birliklarning paydo bo'lishi ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillar bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida qaraladi. Shunday ekan, onomastik tasodif atamasi terminologik jihatdan qayta ko'rib chiqilishi yoki aniqroq ta'riflanishi lozim.

Vaqt o'tishi bilan toponimlarning tarkibidagi toponimik asoslar tarkibida tovushlarning o'zgarishi yoki ularning tushib qolish holati ham fonetik o'zgarish sifatida tan olinadi. Masalan: etimologiya va etimologik tahlil bahsida ro'yobga chiqadi. Etimologiya sohasi tilshunoslikning bir bo'limi sifatida qaralmoqda. Bu yo'nalishdagi lug'atlar tuzishning eng optimal yo'llari lug'at mazmuni hamda lug'at maqolalari uchun tanlangan etimologik tahlillarni amalga oshirish, quyidagi ba'zi bir terminlarning qisqacha izohida to'xtalish o'rinli bir holat ekanligini bilamiz. Z.Do'simov va X.Egamovlarning "Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati" asarida O'zbekistonning hozirgi va qisman tarixiy joy nomlariga lisoniy tahlil berilgan. Tadqiqotda faqatgina etimologik jihatdan izohlash imkoniyati mavjud bo'lgan toponimlar tanlab olingan. Mazkur lug'at o'z davrida o'zbek tilshunosligida toponimik tadqiqotlar uchun muhim manba sifatida xizmat qilgan [2].

Natijalar va muhokama. Professor T.Enazarov "O'zbek toponimlari bo'yicha shakllanadigan etimologik lug'at tuzishda leksikografik manba sifatida 2019-yilda "O'zbekiston joy nomlarining etimologik lug'ati"ni tuzdi. Bu masalada biz etimologik lug'at tuzgan mutaxassislariga qiyosiy xarakteristika bermoqchi emasmiz. Shunday bo'lsa-da, M.Mirtojiyev, Sh.Rahmatullayev, Z.Do'simov, X.Egamov, T.Nafasov, E.Begmatov, N.Uluqov, N.Oxunov kabi olimlarimizning tuzgan lug'atlarida etimologik tarkib aniq maqsadga yo'naltirilmagan bo'lsa-da, etimologik tadqiqotlar hamda toponimlar masalasi qisman yoritilgan. Bu tuzilgan lug'atlarda bir muncha optimal yo'l tanlanganligini ko'ramiz. Ayniqsa, H.Hasanov tomonidan toponimlarning etimologik tarkibiga oid tanlangan termin hamda terminlarning ishlatilishida ham original yo'l tanlanganligini guvohi bo'lamiz [4]. Mazkur lug'atda va lug'at maqolalarida quyidagi toponimlarning etimologik tarkibi bo'yicha termin va atamalarning izohi masalasi qisman bo'lsa-da, ilmiy jihatdan hal etilgan.

Mazkur tahlil qilinayotgan lugʻatda agronim – ekinzor yerlarning nomlari kabi izohlanishi ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq tarzda yoritilgan. Ekinlarning turi koʻp boʻlgani kabi agronimlarning ham turi hamda miqdori juda koʻp. Agronimiya termini esa – ekinzor yerlarning nomlarining majmui (kompleksi) kabi izohlanadi, masalan, paxtazor, gʻallazor, bedazor, bedapoya, joʻxoripoya kabi.

Bundan tashqari etimologik va etnik tahlilda antroponim terminining – kishilarning, insonlarning, odamlarning ismi haqida maʼlumot beriladigan xususiyat kabi izohlanishi etimologik lugʻatlar tuzilishida eʼtiborli bir jarayon hisoblanadi. Jumladan, antroponim termini – antroponimlar boʻyicha nomlangan toponimlarga tavsif sifatida, ayniqsa, bu masalada Shoʻrolar tuzumi davrida inqilobchilarning nomlarini aholi punktlariga berilishida koʻrish mumkin (Sverdlov, Kirov, Lenin, Marks, Engels va shu kabilar). Bu termin va izohlar hozirda faol ishlatilmasa-da, bunday toponimik obyektlar etimologik talablarga javob beradigan tarzda qayta nomlangan. Shuningdek, mamlakatimiz oʻz mustaqilligini qoʻlga kiritganidan soʻng, antroponimlar asosida nomlangan toponimlarning salmogʻi ancha kengayganligiga guvoh boʻlishimiz mumkin (“Gulhayo Maftun”, “Qoʻchqor Karim kelajagi”, “Aslon Nazar”, “Latifbobo”, “Feruz, Shuhrat”, “Amirshoh”, “Normurod Rahmonov”, “Akmal Amirbek”, “Halim Samad”, “Mirzo Ravshan”, “Oʻtkir Oʻktam orzusi” kabi fermer xoʻjaliklarining nomlarini sanab oʻtish mumkin). Bu masalalar oʻzbek toponimiyasi, jumladan, mikrotoponimiyasi terminlarining uzoq va yaqin oʻtmishini oʻrganishga asosiy manba boʻlib hisoblanish imkoniyati juda katta. Bu etnotoponimik jarayon illyustrativ toponim va mikrotoponimlar tavsifida oʻz ifodasini toʻliq topgan. Bundan tashqari bu tavsif va tahlillar Qiziltepa toponimlari va mikrotoponimiyasi tahlilida oʻzining sezilarli taʼsirini koʻrsatdi.

Bu turkum lugʻatlar tuzishda ishlatiladigan apellyativ (lugʻaviy asos) – obyektning nomlanishi uchun tanlangan va toponimik maʼlumotlar bazasi, leksikografik manbalarni rasmiylashtirishda, jumladan, lugʻatlarning elektron platformasini, shuningdek, elektron maʼlumotlar bazasini yaratish, oʻzbek milliy korpusini shakllantirishda yetakchi manba hisoblanadi. Bu turkum leksikografik, ayniqsa, etimologik leksikografiyaning, Fasmerning nemis tilidagi rus tili etimologiyasi boʻyicha tuzgan etimologik lugʻati mazmuniga ancha yaqinlashgan. Apellyativ leksik birlik birikmali termini ham quyidagi izohi bilan yuqoridagi terminlar birligi mazmuniga toʻliq bogʻlanadi – obyektning nomlanishi yuzasidan toponimik maʼnolar maʼlumotlar bazasini shakllantirishga yetakchi lugʻat maqolasi sifatida kiritilishi mumkin. Bundan tashqari Birinchi nomlanish qonuni – apellyativ leksikasidagi soʻz va soʻz birikmasi va qoʻshma soʻzlarning toʻgʻridan-toʻgʻri onomastik leksik tarkibga oʻtish birinchi almashuv qonuni deb nomlanganligi, izohning mukammalligidan darak beradi. Apellyativ leksika boʻyicha oʻzbek

tilshunosligida ma'lumotlar, shuningdek ma'lumotlar bazasi to'liq shakllantirilmagan. Bu masalaning bir qancha obyektiv va subyektiv sabablari mavjudligini ko'rsatadi.

Yuqorida tavsiflangan termin va atamalarning mazmuni va izohi tahlilini davom ettirib quyidagi natijalar qo'lga kiritildi. Gibril toponimlar izohi quyidagi mazmunga ega – ma'noli qismlari turli tillardagi so'zlardan iborat bo'lgan toponimlar. Masalan, Sovungaron // sovun – arabcha asos, garon – fors-tojikcha formant; Azizon // aziz – arabcha asos, on – fors-tojikcha formant, Toshrobot tekstil // tosh – o'zbekcha asos, rabot – arabcha formant, tekstil – ruscha indikator.

Toponimlarning tarkibiy qismi hisoblangan etnotoponimik atama va terminlarning izohi mazmuni gidronimlar tavsifidagi xulosalar ham ishda yetakchi ilmiy natijalarni berdi. Gidronimlar termini izohi – suv inshootlarini (daryo, ariq, kanal, hovuz, suv ombori kabilar) ifodalab keladi (Qiziltepa nasos stansiyalari, Amu-Buxoro kanali, To'dako'l suv omborlari, suv to'g'oni, Zarafshon daryosi, Shohrud kanali, Abu Muslim shohariq, Duldul kollektori, Yormoqchisoy yuvilma o'yig'i, Zarmitan arig'i, «Cho'ldaryo» – suv iste'molchilari uyushmalari). Bu masala izohida yetakchi masala Qiziltepa tumani hududidagi gidronimlarni lug'at maqolasi tarkibiga kiritish, dissertatsiyada gidronimlarning tavsifidan, ularning izohidan to'liq foydalanish imkoniyati kengayadi. O'zbek tilshunosligida ma'lumotlar bazasini shakllantirish, asosan, o'zbek tili milliy korpusini shakllantirish hamda boyitish masalasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish raqamli texnologiyani shakllantiradi.

Toponimlarda taxmin yoki faraz – toponimlarning kelib chiqishi to'g'risidagi fikrlar to'plami. Ular til tarixi va shevalarimizning taraqqiyotiga mos kelmay, xalqona etimologiya ham bo'lishi mumkin. Shuningdek, til tarixi va shevalarimizning taraqqiyotiga mos kelib, toponimik ilmiy tahlil bo'lgan etimologik tahlil jarayonida ijobiy turtki beradigan taxmin (faraz)lar ham bo'lishi tabiiy bir holat. Chunki taxmin va farazlarning ijodkorlari xalq vakillari, aniqrog'i, yoshi ulug' onaxonlari, otaxonlari, o'qituvchi, olimlar hamda ilmiy ish bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar bo'lib, ular haqidagi ma'lumotlar yoki ma'lumotlar bazasidir. Toponimlarning bunday guruhlanishiga ular ifodalaydigan toponimik obyektlarning boshqa toponimik obyektlar tizimidagi mavqei darajasi hamda o'ziga xos hamda mos bo'lgan taraqqiyot bosqichlari o'z ifodasini topgan. Bu holatni quyidagicha ko'rinishda qayd etishimizga to'liq ilmiy va tahliliy asos mavjud:

Lug'aviy asos – mikrotoponim – makrotoponimlar. Mazkur ramziy ifodadan ko'rinib turibdiki, makrotoponim, mikrotoponimdan, mikrotoponimlar esa kundalik turmushda ko'p qo'llaniladigan apellyativ so'zlardan shakllangan.

Indikator – geografik toponimlarning ko'rsatkichi bo'lib, bu terminni toponimik aniqlagich deb ham qo'llash mumkin. Nomlar doimo jamiyatda sodir

bo'layotgan turli o'zgarishlarni (siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, fan taraqqiyoti) o'zida aks etib borgani kabi, indikatorlar ham nomning qanday obyekt tipiga tegishlilikini o'zida aks ettiradi. Masalan, quyi Zarafshon vohasi uchun «rabot», «tal», «poyon», «tepa», «bolo», «ovul», «ko'cha», «qishloq» kabi topoterminlar indikatorlik vazifasini bajaradi. Shuningdek, indikatorlar bir asosli, ikki asosli va ko'p asosli bo'la oladi. Masalan, ko'cha – bir asosli; fermer xo'jaligi – ikki asosli; mahalla fuqarolar yig'ini (MFY), mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) – ko'p asosli.

Qiziltepa tumanining etnotoponimlari uning qadimgi davridan toki XX asrning 10-yillarigacha tarixiy manba va adabiyotlarda atroflicha yoritilgan. Ayniqsa, bu katta davrni yoritishda, o'rta asrda mamlakatimizda yozilgan tarixiy asarlarda juda ko'p etnotoponimlarni uchratish mumkin. Jumladan, Narshaxiyning “Tarixi Buxoro” asarida keltirilgan etnotoponomik ma'lumotlarni tarixiy hamda tilshunoslik fanlararo qiyoslash metodi asosida ilmiy nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu o'rinda Narshaxiy, Bartold, Xanikovlarning asarlarini qiyosiy tadqiq va tahlil qilish o'rinli hisoblanadi. Qiziltepa va uning atrofidagi tumanlarda, aniqrog'i, G'ijduvon, Vobkent, Shofirkon tumanlarida hozirgi adabiy tilda ishlatiladigan “dala” so'zining o'rniga “yovon” so'zi XX asrning 90-yillarigacha mahalliy shevada keng ishlatilar edi. Shuningdek, hozirgi adabiy tilda ishlatiladigan “sigir” so'zi o'rnida “inak” so'zi keng ishlatilardi. Hozirgi kunda ham yoshi 70-80 dan oshgan kishilar bu kabi so'zlardan foydalanishadi. Bundan tashqari, gidronimlardan “darg'ot” so'zi yuqorida ko'rsatilgan 3 ta tumanda ham mahalliy aholi orasida katta ariq suvini bir necha yo'nalishlarda taqsimlaydigan to'siq ma'nosini bildiradi. Bizning fikrimizcha, bunday azaldan ishlatib kelinadigan so'zlar juda ko'p, lekin hozirgi yosh avlod bu so'zlarni deyarli bilmaydi. Ayniqsa, xo'jalik faoliyatida foydalaniladigan, lekin hozirgi kunda iste'moldan chiqib ketayotgan sayisxona, og'il, ravoq kabi so'zlarning izohli lug'atini tuzib, ularni qayta hayotga qaytarish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu xalqimizning xo'jalik tarixi hamda til boyligi bo'yicha qadriyat bo'lib, tilimizning noyob unsurlari hisoblanadi. Bundan tashqari yuqorida ko'rsatilgan tumanlar qishloq o'troq aholisi foydalangan “hayot” so'zi bilan hovli hududidan tashqarida, lekin uning devori orqasida turgan yer “hayot” deyilgan. Aholi bu erga ekin ekishgan yoki mahalliy aholi tilida “charvoq” (chorbog' – to'rt tomoni bog') deb atalgan bog' sifatida foydalanishgan. Umuman olganda, bu “charvoq” shu oilaning mulki hisoblangan. Afsuski, yosh avlod bunday so'zlarni bilmaydi ham, tushunmaydi ham. Mahalliy aholi transport qatnashga yaroqsiz bo'lgan, piyoda yurilgan so'qmoqlarni yoki yo'laklarni “yo'lcha” deb atagan. Yuqorida ko'rsatilgan hududlarda aholining turmush tarzining qismi bo'lgan hovlisidagi non yopiladigan, hozir “tandirxona” deb ataladigan joy nomi shevada

“tano‘rxona” yoki qisqa qilib, “tano‘r” (tano‘rga non yopdim), “Itmakchi tanuri andin qiziq, allof bozori andin issiq” [1].

Xulosa. Qiziltepa toponimlari hududning tarixiy, lingvistik va madaniy rivojlanishini aks ettiruvchi muhim manbalardan biridir. Ularning etimologik va dialektal xususiyatlarini o‘rganish orqali O‘zbekiston hududiy toponimiyasining umumiy rivojlanish tamoyillari haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Kelgusida toponimik tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, jumladan, elektron ma’lumotlar bazalarini yaratish, o‘zbek milliy korpusida toponimiyaga oid resurslarni boyitish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, dialektal o‘zgarishlarning toponimiyaga ta’sirini o‘rganish va turli davrlardagi yozma manbalarda uchraydigan toponimlarni qiyosiy tahlil qilish zarur.

Adabiyotlar:

1. А.Навоий. Махбуб ул-кулуб. Мукаммал асарлар тўплами. 14 том. – Тошкент: Фан, 1998. – Б.35.
2. З.Дўсимов, Х.Эгамов. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1977. – 176 б.
3. Т.Нафасов Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Т., 1988. – 398 б.
4. Х.Ҳасанов Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т.: Фан, 1975. – Б. 41-51.
5. Raxmatullayev Sh. O‘zbek tili lug‘atining turkiy qatlami. – T.: Universitet, 2001; Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. II (arab so‘zlar, ular bilan hosila so‘zlar). – Toshkent, 2003. – 600 b.
6. Falsafa. Qomusiy lug‘at. – Toshkent: Universitet, 2000. – B. 132-134.

KONCHILIK VA GEOLOGIYA SOHASIGA OID TOPONIMLAR TADQIQI

Ergasheva Nodira Abdurayimovna

katta o‘qituvchi

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

ergasheva.68@list.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada konchilik va geologiyaga sohasiga oid so‘zlarni lingvistik aspektda o‘rganish, leksik birlik sifatidagi nomlash xususiyatlari tadqiq etilgan. Joy nomlarining geologiya, minerologiya, konchilik sohalari bilan uzviy bog‘liqligi haqida dalillar keltirilgan. Til bilan shug‘ullanish, joy nomlarini o‘rganish va tahlil qilish (geografik nomlarning lug‘aviy ma’nosini tekshirish) geologik

qidiruvlarda muvaffaqiyatga erishishning muhim vositasi ham ekanligi tahlil qilingan. Bu nomlar shundan dalolat beradiki, O'rta Osiyodagi yirik foydali qazilma konlarning aksariyati olimlar tomonidan "topilmasdan" ancha ilgariyoq otabobolarimizga ma'lum bo'lgan ekan. Masalan, Oltoy, Oltinsoy, Zarafshon, Oltintog' va Aldan nomlariga asoslanib, shu yerlardan konchilik, geologiya sohasi mutaxassislari oltin rudasini qidirib topganlar. Jezkazgan, Jezquduq, Jezqozg'on kabi joy nomlari shu yerda mis rudasi borligidan darak bergan. Samarqand viloyati Paxtachi tumani joy nomlarining kelib chiqishi va ma'nolari o'rganilgan, tahlil qilingan va keng ommaga taqdim etilmoqda.

Tayanch so'zlar: konchilik va geologiya sohasi, minerologiya, Paxtachi tumani, konlar, toponimlar, obyekt.

ИССЛЕДОВАНИЕ ТОПОНИМОВ В ОБЛАСТИ ГОРНОГО ДЕЛА И ГЕОЛОГИИ

Эргашева Нодира Абдурайимовна

старший преподаватель

Навоийский государственный горно-технологический университет

ergasheva.68@list.ru

Аннотация. В этой статье обсуждаются особенности лингвистического изучения слов, относящихся к сфере горного дела и геологии, а также названия как лексических единицы. Приведены доказательства тесной связи названий мест со сферами геологии, минерологии, горного дела. Было проанализировано, что изучение и анализ географических названий является важным средством достижения абстракции в геологических изысканиях. Эти названия свидетельствуют о том, что большинство крупных месторождений полезных ископаемых в Центральной Азии были известны нашим предкам задолго до того, как их «обнаружили» ученые. Основываясь на названиях Алтая, Алтинсая, Зарафшана, Алтинтага и Алдана, специалисты в области горного дела и геологии искали там золотую руду. Такие названия мест, как Жезказган, Жезкудук и Жезказган свидетельствуют о наличии в этих местах медной руды. В частности, изучено, проанализировано и представлено широкой публике происхождение и значение названий мест Пахтачийского района Самаркандской области.

Ключевые слова: горнодобывающая и геологическая отрасль, минералогия, Пахтачийский район, месторождения, топонимы, объект.

STUDY OF TOPONYMS IN THE FIELD OF MINING AND GEOLOGY

Ergasheva Nodira Abduraimovna

senior Lecturer

Navoi State Mining and Technological University

Abstract. This article discusses the peculiarities of the linguistic study of words related to the field of mining and geology, as well as the name as lexical units. Evidence of the close connection of the names of places with the spheres of geology, minerology, mining is given. It was analyzed that the study and analysis of geographical names is an important means of achieving abstraction in geological surveys. These names suggest that most of the large mineral deposits in Central Asia were known to our ancestors long before they were "discovered" by scientists. Based on the names of Altai, Altynsai, Zarafshan, Altyntag and Aldan, experts in mining and geology searched for gold ore there. Place names such as Zhezkazgan, Zhezkuduk and Zhezkazgan indicate the presence of copper ore here. In particular, the origin and significance of the names of places in the Pakhtachinsky district of the Samarkand region have been studied, analyzed and presented to the general public.

Keywords: Mining and geological industry, minerology, Pakhtachinsky district, deposits, toponyms, object.

Kirish. Bugungi kunda o'zbek tilshunoslari oldiga respublikadagi barcha viloyatlar joy nomlarini zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida tadqiq etish vazifasi qo'yilgan. Toponimlarning semantik xususiyatlarini lisoniy, tarixiy, geografik, etnologik, sotsiolingvistik yondashuvlar uyg'unligida o'rganish ham ana shunday vazifalar sirasiga kiradi. Bunda joy nomlari o'zi mansub bo'lgan hudud tarixi, madaniyati, aholining turmush tarzi, tili, joyning geografiyasi haqida ma'lumot beradigan muhim manba ekanligi, shuning uchun ular nafaqat tilshunoslik, balki tarix va geografiya, geologiya va konchilik sohaslarining ham o'rganish ob'yekti sanalishi ta'kidlangan. Toponimlar o'zi atalgan hududning tarixi, uning tarixiy taraqqiyot yo'lini ham yorituvchi bir vosita sanaladi. Deyarli barcha toponimlar biror bir tarixiy hodisa yoki jarayon haqida ma'lumot beradi. Shuning uchun toponimlar xalq tarixini o'rganish manbai sanaladi. Joy nomlarida turli davrlardagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar, u yerda yashagan xalqning etnik xususiyatlari o'z aksini topadi. Toponimiyaga aylangan konchilik va geologiya sohasiga oid joy nomlari, ya'ni geografik nomlar, ularning o'zlariga xos xususiyatlari, paydo bo'lish tarixi, etimologiyasi, lisoniy tahlili masalalari bilan tilshunoslik, ya'ni lingvistika fanining alohida sohasidir [1, 9].

Asosiy qism. Joy nomlari geografiya fani bilan ham uzviy aloqada turadi. Shu bilan bir qatorda toponimlar, avvalo, konchilik, geologiya va geografik

ob'yektlarning aniq manzillarini ko'rsatadi [2, 6]. Qadimgi asrlardan beri ma'lumki, insoniyat o'z davrida yer qa'ridan foydali qazilmalarni, shu jumladan, mis, temir, oltin, kumush kabi foydali qazilmalarni qo'lda qazib olishgan va ulardan turmushda keng qo'llanilgan. Hozirgi vaqtda Samarqand viloyati Paxtachi tumanida *Zarafshon, Jezqozg'on, Oltinsoy, Oqtosh, Toshtepa, Toshko'prik, Kumushkon, Sardoba, Sarbozor, Qorizquduq, Jonbuloq, Quruqsoy, To'qqizhovuz, Chashmai Siyob, Obi Mashhad* kabi joy nomlari – toponimlar geografiya, geologiya va konchilik sohalarini ham o'rganish obyekti hisoblanadi. Aynan foydali fazilma boyliklariga, kon obyektlariga boy bo'lgan Paxtachi tumanida ko'plab konchilik va geologiya, geografiya sohalariga oid toponimlarni uchratish mumkin: *Temiryo'l, Yangiyer, Qaynarbuloq, Chashma, Jarboshi, Qoratepa, Suvli, Toshquvur, Chap tarmoq, Yuqori chaqmoqli, Beshquduq, Belquduq, Uzunquduq, Yangibuloq, Ajdarbuloq, Yettisoy, Jinichkasoy, Ko'ksoy, Qorator, Darbozariq, Oqqum, Chig'atoytov, Xo'jamatchashma, Buloqsoy, Oltinsoy, Sadaf, Oqtosh*. Paxtachi tumanidagi suv inshootlarini nomlash, asosan, geologik obyekt bo'lgan gidroobyekt joylashgan yerning tuzilishi, relyefi bilan bog'liq. Shuning uchun tumanning tog'lik hududlarida soy, quruqsoy, buloq, chashma, irmoq; tekislikdan iborat bo'lgan cho'l zonalarida esa quduq, qoq; yer osti sizot suvlari bo'lgan joylarda esa qorasuv, zahkash singari gidronimik terminlar ko'p tarqalgan va ular mahalliy xalq tilida faol qo'llaniladi.

Hozirgi kunda tumanda bir qancha faol ishlatilayotgan "*Ziyovuddin ma'danli maydoni*", *Yombosh, Qizbibi, Ishonchli, Qush uyasi, Tashkan, Beshquduq, Yangidovon nomli oltin konlari, Ziyovuddin 1-lessimon jinslar koni, Ziyovuddin-2 kvars koni, Qo'rg'oncha gips koni, Qarnob-1 granit ma'dan koni, Qarnob-2 granodiorit koni, Xumo kvars qumi koni, Qarnob ohaktosh koni va Qoraqo'ton* kabi oltin konlarida, tog'-kon sanoati korxonalarida 5 mingdan ortiq mehnatkashlar kon va geologiya sohasining rivojlanishida, mamlakat iqtisodiyoti va farovon hayoti yo'lida xizmat qilib kelmoqda.

Shuning uchun toponimika geografiya fani uchun alohida ahamiyatli bo'lib, ayrim olimlar uni geografik fanlar sirasiga qo'shadilar. Haqiqatdan ham, toponimlarning ma'nosini aniqlashda geografik qonuniyatlar qo'l keladi. Hech shubhasiz aytish mumkinki, joy nomlarni geografiyadan ajralgan holda o'rganib bo'lmaydi. Chunki toponimikaning muammolarini geograflarning ishtirokisiz hal qilish mavhum va noto'g'ri xulosalarni keltirib chiqaradi. Geografik qonuniyatlarni bilmasdan turib toponimlarning etimologiyasi haqida fikr bildirish ko'pincha xatolikni yuzaga chiqaradi. Nomlar vositasida hududning tabiiy-geografik, aholining joylashish xususiyatlarini, aholi manzillarining shakllanish jihatlarini aniqlash mumkin. Toponimika bir nechta fan: tilshunoslik, tarix va geografiya kesishuvida paydo bo'lgan fanlararo fandır [2, 23]. Toponimikaning fanlararo mohiyati shundaki,

u madaniyatshunoslik, tarix, geografiya, jamiyatshunoslik, teologiya, falsafa va boshqa fanlar bilan chambarchas aloqador bo'lib, shu tariqa lingvistik va boshqa gumanitar fanlar majmuasi bilan bog'langandir. Zero, «toponimikaning ko'plab dalillari turli-tuman lingvistik, tarixiy va geografik materiallarni jalb qilish orqaligina to'liq izohlanishi mumkin. Nomlar ko'p holatlarda o'simliklar, jonivorlar, foydali qazilmalar konlari, g'orlar, tog'lar, tepaliklar, suv omborlari, qishloqlar, daryolar va boshqa geografik obyektlarning nomlari bo'lganda, u yoki bu hududning avvalgi yoki hozirgi tabiiy sharoiti haqida qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi. Toponimika tilshunoslikning alohida sohasi sanalgan onomastikaning tarkibiy qismi sifatida u lingvistika doirasida turib tarix va geografiya fanlari bilan aloqadorlikda tadqiq qilinadi.

Toponim aniq bir hududning nomi bo'lib, makonda mo'ljall olishga yordam beradi va o'ziga xos shartli belgi vazifasini bajaradi. Moddiy obyekt atrofdagi landshaftdan qanchalik aniqroq ajratilsa, uning atoqli otga aylana olishi shunchalik yuqori bo'ladi, ya'ni ko'p narsa nomlanuvchi obyekt xarakteri (xususiyati)ga bog'liq.

Xalqimizning bebaho qadriyatlarini tiklash, mustabid tuzum davrida asossiz ravishda o'zgartirib yuborilgan ko'plab qadimiy joy nomlarini qayta o'z o'rniga qo'yish, yangi joylarni milliy mafkuramiz va tilimiz qonuniyatlariga mos holda nomlash imkoniyati yuzaga keldi. Kishilar o'zlari yashaydigan ko'cha, mahalla, qishloq yoki shaharlarning nomlanishiga, mavjud nomlarning ma'nosiga, to'g'ri aytilishi va yozilishiga katta qiziqish hamda e'tibor bilan qaramoqdalar. Bir so'z bilan aytganda xalqimizning joylarga nom tanlash, ya'ni milliy toponimik madaniyati qayta tiklanmoqda.

Natijalar va muhokama. Joy nomlari, ya'ni toponimika fanining taraqqiyotida chet el olimlarining ham o'ziga xos o'rni bor. XIX-XX asrlar davomida ko'zga ko'ringan olimlardan Elize Reklyu (1830-1905), Alber Doza (1877-1955), Vitold Tashitskiy (1898) nomlari hurmat bilan tilga olinadi. Shuningdek, S. Rospond, A. Zarembo (Polsha), V. Shmilauer, Y. Svoboda (Chexiya), E. Eyxler, T. Vitkovskiy (Germaniya), F. Bezlay (Yugoslaviya), R. Sindu (Fransiya), B.G. Unbegaun (Angliya) va boshqalarning mehnatlari tufayli toponimika fani taraqqiy etdi. O'zbek toponimiyasi faninig vujudga kelishi va taraqqiy etishida H. Hasanov, R. Qo'ng'urov, S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Do'simov, E.Begmatov, B.O'rinboyev, A.Muhammadjonov, N.Uluqov, T.Rahmatov va boshqa olimlarning xizmati kata [3, 114]. Dunyoning juda ko'p mamlakatlarida, jumladan, G'arbiy Yevropada, geografik nomlarni ilmiy o'rganish keng yo'lga qo'yilgan. Mazkur sohaga oid ko'plab adabiyotlarning nashr qilinishi, toponimik jurnallarning muntazam chop qilinishi, bir qator oliy o'quv yurtlarida toponimika kursining o'qitilishi fikrimizning dalilidir.

Shuningdek, konchilik, geologiya va geografik nomlarning turlari xarita-sxemasi ishlab chiqilgan. Samarqand viloyati toponimlarini o'rgangan

N.B.Begaliyev, N.Uluqov, Sh.Temirov, S.Qorayev geografik joy nomlarining shakllanishida mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini ochib berishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlarini bajargan. Unda Samarqand viloyatidagi joy nomlarining nomlanish qonuniyatlari va ularning geografik jihatlari aniqlangan, viloyatlari oykonimlari xaritasi ishlab chiqilgan. O'zbekistonda geografik nomlarning o'rganilishida filolog va tarixchi olimlarning ham xizmatlari katta. T. Nafasov, N.Oxunov, L. Karimova, O. Bo'riyev, Z. Do'simov, X. Egamov, M. Mamedov, S.Nayimov, S. Tursunov, T. Enazarov va boshqa olimlarning toponimik tadqiqotlari ayrim hududlar bo'yicha geografik nomlarni filologik va tarixiy nuqtayi nazardan o'rganishga, tahlil qilishga bag'ishlangan.

Geografik nomlar, ularning o'zlariga xos xususiyatlari, paydo bo'lish tarixi, etimologiyasi, lisoniy tahlili masalalari bilan tilshunoslik, ya'ni lingvistika fanining alohida sohasi – toponimika fani shug'ullanadi. Ularni lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish XIX asrning birinchi yarmida boshlandi. Geografik nomlarga oid nazariy fikrlar dastlab rus olimlari F.X. Vostokov, Y.K. Grot, A.N. Sobolevskiy, N.I.Nadejdin, M.A. Kastren va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topa boshladi [4,58].

Geografik nomlar qimmatli tarixiy va lingvistik materialdir. Geografik joy nomlari xalq tarixi haqida hikoya qiluvchi “jonli” rivoyatlar bo'lib, ular o'tmishdagi etnik aloqalar, xalqlar migratsiyasi kabilar to'g'risida ma'lumot beribgina qolmay, noyob leksik boylik sifatida o'zbek tilining qadimiy qatlamlariga tegishli manba hamdir. Ular o'z ahamiyati jihatidan moddiy madaniyat yodgorliklari, ya'ni arxeologik yodgorliklardan ham qimmatlidir. Chunki geografik nomlarda allaqachon unutilgan xalqlarga tegishli voqealarga doir ma'lumot saqlanib qolgan holatlar ko'p uchraydi. Boshqa manbalar, xususan, yozma manbalar mavjud bo'lmagan taqdirda toponimlarning ahamiyati juda kattadir.

Paxtachi tumanidagi eng katta geografik suv obyekti *Zarafshon* daryosi bo'lib, u *Zarafshon muzligi*, *Matcho*, *Fan*, *Kishtut* va *Mahan* kabi daryolardan to'yinib, suvining eng so'nggi tomchisigacha vodiyning bog' va ekinzorlarini sug'orishga sarflaydi. Tilshunos olimlar daryo suvining hayotbaxsh ahamiyati tufayli uni “zar sochuvchi” deb nom olgan, deyдилar. Geolog olimlar esa gidronim tarkibidagi “zar” (oltin) so'ziga e'tibor qaratishib, daryo, asosan, qumlar bilan birga oltin zarrachalarini oqizib keltirgan, deyдилar [5,49]. Qizig'i shundaki, XX asrning boshlarida D.M.Mushketov *Zarafshon* daryosi qumlaridan sochma oltin ajratib olinganini yozgan edi [6]. Umuman olganda, *Zarafshon* vodiysidagi *Oltinsoy*, *Zarmetan*, *Zarkent*, *Komizar*, *Zarband* kabi toponimlar tarkibida “oltin”, “zar” so'zlarining uchrashi bejiz emas.

Toponimiyada suv obyektlari nomlari, ya'ni gidronimlareng qadimgi geografik nomlar sanaladi. Gidronimlar tabiiy yoki sun'iy bo'lgan har qanday suv obyektining atoqli otidir. O'zbek tilida geologiya, geografiya va konchilik sohasiga oid 40 dan ortiq suv obyektlari va inshootlari nomlari mavjud bo'lib, ularga ariq, band, to'g'on, botqoq, buloq, zovur, zahkash, kollektor, ko'l, ko'priq, muzlik, nasos stansiyasi, soy, selxona, quduq, sharshara, hovuz, sardoba, daryo va boshqalar kiradi [6,55].

Xulosalar. Toponimika geografiya, geologiya va konchilik fanlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, joy nomlari muayyan hududlarning tabiiy-geografik xususiyatlarini ochib berishda muhim manba hisoblanadi. Paxtachi tumanidagi toponimlar, ayniqsa, kon va suv obyektlari bilan bog'liq bo'lib, bu hududda foydali qazilmalar konlari, gidroobyektlar va geologik shakllanishlarning tarixiy izlarini aks ettiradi. Geografik nomlarning lingvistik va tarixiy tadqiqi muhim bo'lib, ular orqali hududning ekologik hamda iqtisodiy rivojlanishi haqida xulosa chiqarish mumkin. Shu sababli, toponimiya nafaqat geograflar, balki lingvistlar, tarixchilar va jamiyatshunoslar uchun ham muhim fan hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Н.Улуков. Ўзбек тили гидронимларининг лингвистик хусусиятлари. – Самарқанд, 2010. – Б. 9.
2. N.B.Begaliyev. Samarqand toponimiyasi. – Samarqand, 2010. – Б. 6.
3. S.Qorayev. O'zbekiston viloyatlari toponimikasi. – Toshkent, 2005. – 114 b.
4. М.Мусин. Сўз мағзидан ер қаърига. – Т., 1967. – 58 б.
5. Н.Улуков. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 49.
6. B.Yuldoshev. O'zbek onomastikasi masalalari. – Samarqand, 2011. – 55 b.

BUXORO GIDRONIMLARINING TIPOLOGIK TAHLILI

Bobomurodova Mahzuna Ortiq qizi

1-kurs magistranti

Termiz davlat pedagogika instituti

Bobomurodova@757gmail.com

Annotatsiya. Gidronimlar tilshunoslikdagi nisbatan kam o'rganilgan, ammo muhim lisoniy birliklar sirasiga kiradi. Til taraqqiyoti jarayonida gidronimik nomlar turli omillar ta'sirida o'zgarishga uchragan. Jumladan, Buxoro vohasidagi gidronimlar shakllanishida turkiy, sug'diy, arab hamda fors-tojik tillarining sezilarli ta'siri mavjud. Mazkur maqolada Buxoro gidronimlarining semantik xususiyatlari, tipologiyasi va tarixiy ahamiyati lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Gidronimlar leksik, semantik va etimologik nuqtai nazardan o'rganilib, ular ma'no guruhlariga ajratiladi. Ushbu

tadqiqot Buxoro hududidagi tarixiy suv nomlari orqali mintaqaning madaniy va til taraqqiyotini yoritishga xizmat qiladi.

Tayanch soʻzlar: gidronimlar, toponimlar, leksik birlik, antropogidronimlar, etnogidronimlar, pozitivlik tamoyili, negativlik tamoyili, turkiy tillar oilasi, semantika, nisbiylik prinsipi, fitogidronimlar.

ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ БУХАРСКИХ ГИДРОНИМОВ

Бобомуродова Махзуна Ортик кизи

магистрант 1-курса

Термезский государственный педагогический институт

Аннотация. Гидронимы являются сравнительно малоизученными, но важными лингвистическими единицами. В процессе развития языка гидронимические названия подвергались различным изменениям под влиянием множества факторов. В частности, гидронимы Бухарского региона формировались под воздействием тюркских, согдийских, арабских и персидско-таджикских языков. В данной статье рассматриваются семантические особенности, типология и историческое значение бухарских гидронимов. Гидронимы анализируются с лексической, семантической и этимологической точек зрения и классифицируются по смысловым группам. Это исследование направлено на освещение культурного и языкового развития региона через призму исторических названий водных объектов.

Ключевые слова: гидронимы, топонимы, лексическая единица, антропогидронимы, этногидронимы, принцип позитивности, принцип негативности, тюркская языковая семья, семантика, принцип относительности, фитогидронимы.

TYPOLOGICAL ANALYSIS OF BUKHARAN HYDRONIMS

Bobomurodova Makhzuna Ortik kizi

1st year master's student

Termez State Pedagogical Institute

Abstract. Hydronyms are relatively under-researched but significant linguistic units. Throughout the development of language, hydronymic names have undergone various changes under the influence of different factors. In particular, the hydronyms of the Bukhara region were shaped under the influence of Turkic, Sogdian, Arabic, and Persian-Tajik languages. This article examines the semantic features, typology,

and historical significance of Bukhara's hydronyms. The hydronyms are analyzed from lexical, semantic, and etymological perspectives and are classified into semantic groups. This study contributes to understanding the cultural and linguistic development of the region through the lens of historical water-related place names.

Keywords: Hydronyms, toponyms, lexical unit, anthropohydronyms, ethnohydronyms, principle of positivity, principle of negativity, Turkic language family, semantics, principle of relativity, phytohydronyms.

Kirish. Insoniyat yaralibdiki, atrofida hamma narsani nomlashga intilib kelgan. Bu esa, o'z navbatida, onomastika fanining vujudga kelishi hamda taraqqiy topishiga asos bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda tilshunoslikda onomastikaning ajralmas qismi bo'lgan gidronimlar tadqiqiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gidronimlar nafaqat til birligi, balki tarix, madaniyatshunoslik, o'lkashunoslik, etnografiya, geografiya kabi bir qator sohalarning ham muhim o'rganish obyekti sanaladi. Gidronimlar tadqiqi orqali ma'lum bir hudud aholisining etnik tarkibi, madaniyati, tarixi va hatto hayvonot hamda o'simlik dunyosi haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Gidronimlar tabiat va inson tomonidan yaratilgan kata-kichik suv inshootlarining nomlari bo'lib, ular uzoq yillik tarixiy-madaniy merosni, tilning etimologik-lingvistik xususiyatlarini namoyon etadi. Tilshunos olim N. Begaliyev gidronim tushunchasiga kengroq ta'rif berib quyidagilarni yozadi: "Gidronimlar – o'zida suv mavjudligi bilan yaqin bo'lgan, ya'ni akvatoriyaga tegishli obyektlar, okean, dengiz, qo'ltiq, bo'g'oz, ko'l, botqoq, daryo, irmoq, ariq, sharshara, quduq va boshqalarning nomlari" [2, 3]. Bundan xulosa qilish mumkinki, gidronimlarni okeanonimlar (okeanlarning nomlari), limnonimlar (ko'llarning nomlari), potamonimlar (daryolarning nomlari), pelagonimlar (dengizlarning nomlari) kabi turlarga bo'lib o'rganish ularni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, gidronimik birliklarni hududiy kesimda tahlil qilish tilshunosligimizning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Buxoro viloyati gidronimlari tilimiz leksik boyligining ajralmas qismi bo'lib, fanda nisbatan kam o'rganilgan sohalardan sanaladi. Ularning leksik, semantik, morfologik, etimologik jihatlari deyarli tadqiq qilinmagan. Xususan, Buxoro gidronimlarining tarkibiy tahlili e'tiborga loyiq. Bunda fors-tojik, arab, so'g'd tillarning ta'siri sezilarli darajada:

1. Fors-tojik tili. XV–XVI asrlardan boshlab hudud shevalarida faol qo'llanila boshlandi. Bu davrda ayrim onomastik birliklar qayta nomlanib, fors-tojik tilidagi so'zlardan foydalanildi:

Zarafshon gidronimi XVII asrga qadar *Haromkom*, *Buxoro suvi*, *Komi Zar* shakllarida ishlatilgan bo'lsa, bu davrdan boshlab Zarafshon (zar+afshon – zar sochuvchi) shaklida qo'llanildi;

Hojiobko'l – Buxoto viloyatidagi ko'l. Hoji + ob (arab+tojik) Hoji ismli kishi yeridagi ko'l [5, 24.].

Jo'yirabot Shofirkon tumanidagi ariq nomi bo'lib, fors-tojik tilida “jo'y”, “ariq”, “rabot” – “turargoh”, ba'zi manbalarda “vaqtincha tunab qolish uchun qurilgan bino” ma'nolarini ifodalagan. “Jo'yirabot” so'zi esa “rabotning arig'i” yoki “rabot yonidagi ariq” degan ma'noni anglatgan.

Jo'yinav – Shofirkon tumanidagi ariq nomi. “Nav” so'zi “yangi” degan semaga ega bo'lib, jo'ynav yangi ariq demakdir.

Porsonko'l Buxoro viloyatidagi kanal. Par sang [f-t] baland tog' yonidagi ko'l.

2. Arab tili. VII asrda arab madaniyati va tili faol ta'sir o'tkaza boshladi. Bu davrda fanning barcha sohalari qatori onomastikada ham arab tilida toponomik, gidronomik nomlar paydo bo'ldi hamda tilimizga singib qoldi:

Jilbon arig'i 1927–1928-yillarda Shofirkon hududida qazilgan ariq bo'lib toponimik transferga uchragan. Buxoro va Vardonze shaharlarida jilbon lavozimi joriy etilgan bo'lib, u chegara hududlarini qo'riqlagan, karvonlar kelib ketishini nazorat qilgan. Shayboniylar davrida jilbonrudi (jilbon arig'i) qazilgan, ammo keyinchalik foydalanilmagan.

Jo'yi Abumuslim Zarafshon daryosidan suv oladigan kanallardan birining nomi bo'lib, uning semantikasi haqida Q.M.Hakimov va M.T.Mirkamilovlarning “Toponomika” kitobida quyidagicha ma'lumot beriladi: Abumuslim 747–749-yillarda arablarga qarshi Buxoroda ko'tarilgan qo'zg'olonga boshchilik qilgan Abdurahmon ibn Asadning laqabi [3, 216].

Jayhun Amudaryoning arab tilida nomlanishi bo'lib, VIII asrdan boshlab faol leksik birlik sifatida ishlatilgan. Shuningdek, shu davrdan boshlab Zarafshon daryosining ham bir nechta arabiy nomlari iste'molda bo'lgan. Mosaf, Mosif, Nahr us-sug'd, Vodiy us-so'g'd, Nahr ul-Buxoro, Ko'hak nomlari shular jumlasidan.

3. Turkiy tillar. Buxoro gidronimlari nomlanishida turkiy tillar oilasiga kiruvchi tillarga xos leksemalar ham uchraydi:

Zamonbobo ko'li Qorako'l tumani hududida joylashgan bo'lib, tumanning qishloq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega suv inshooti hisoblanadi. “Zamon” so'zi tarixan arabiy so'z bo'lsa ham o'zbek tiliga singib qolgan. “Bobo” esa sof turkiy leksema. Zamonbobo gidronimi antropogidronimlar sirasiga kiradi.

Qorako'ldaryo Qorako'l hamda Jondor tumanlari hududida joylashgan. “Qora” so'zi tarixan sof turkiy so'z bo'lib, “katta, buyuk” degan ma'nolarni ifodalagan. Qorako'ldaryo gidronimi daryoning kattaligi yoki sersuvligiga qiyosan nomlangan

bo'lishi mumkin. Bu esa uning viloyat hududidagi ahamiyatini belgilaydi. Ikkinchi taxminga ko'ra, daryo bo'yida o'sgan o'simliklar uning suvini qora rangda ko'rinishiga sabab bo'lgan. *Qorako'ldaryo* gidronimi uning rangi bilan bog'liq degan farazlar ham mavjud.

Suv inshootlarining nomlanishida shunisi ahamiyatliki, har qanday suv obyektlarining nomlari shu hududdagi aholining etnik tarkibi, madaniyati, suv inshootiga xos rang-tus, xarakter-xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu borada tilshunos olim E.Begmatov: "Nomlovchi narsa va hodisalarni nomlar ekan, avvalo, umumlashtirish doirasida ish ko'radi, bunda nomlanuvchilarga xos umumiy bo'lgan belgi-xususiyatlarga asoslanadi. Shuningdek, nomlarda umumlashtirish, ya'ni abstraksiya (turdosh otlarda) qanchalik zarur bo'lsa, narsa va hodisalarni alohidalab, aniqlab, shunga ko'ra yakka ko'rsatish va atash ham shunchalik muhimdir. Demak, yakka va aniq predmet, hodisalarning nomlari – atoqli otlar majmui ham tilda muhim hayotiy zaruriyat va ehtiyoj tufayli tug'ilgan", deb yozadi [1, 16]. Gidronomik birliklarning yuzaga kelishiga ham yuqoridagi omillar sabab bo'lgan.

Buxoro gidronimlarining nomlanishida kishilarning nomlari, nasl-nasabi, mansabi bilan bog'liq leksik birliklar uchraydi:

Samadqoq suv ombori Qorako'l tumani hududida joylashgan, Samad ismli kishi boshchiligida qurilgan.

Abdullaxon kollektori Peshku tumani hududida joylashgan bo'lib, uning nomlanishi hukmdor Abdullaxon nomi bilan bog'liq. Xalq orasida Abdullaxon zaxkashi nomi bilan mashhur bo'lgan suv inshooti XVI asrda Buxoro xoni Abdullaxon tomonidan barpo etilgan.

Sharof Rashidov nomli Amu-Buxoro kanali Vobkent tumani qishloq xo'jaligini ta'minlovchi asosiy suv inshooti. Ammo qurilishi yoki ta'mirida Sh.Rashidov ishtirok etmagan. N.Uluqov "Suv obyektlarini nomlashda nisbiylik, pozitivlik, negativlik tamoyil (prinsip)lariga asoslanilishini ta'kidlab o'tgan" [6, 46]. Ushbu gidronim ana shu negativlik tamoyili asosida yaratilgan.

Antropogidronimlarning ba'zilar to'g'ridan-to'g'ri kishilarning ismlari bilan emas, ularning laqabi, kasbi, lavozimi yoki nasl-nasabi bilan aloqador bo'lishi mumkin:

Shohrud kanali Buxoro hududidagi eng qadimiy suv inshootlaridan biri bo'lib, Zarafshon daryosining chap irmog'i sifatida qazilgan. Kanalning nomlanishida fors tili ta'siri sezilib turadi: "shoh" – "podshoh, hukmdor", "rud" yoki "ro'd" – "daryo, soy" demakdir.

Xo'jaariq G'ijduvon tumani hududida joylashgan. Leksema ikki qismdan iborat bo'lib, "xo'ja" – arabiy tilda diniy unvon yoki hurmat ma'nolarini anglatga, "ariq" so'zi esa kichik suv inshooti semasiga ega.

Ayrim suv obyektlarining nomlanishida shu hududga tegishli o'simlik yoki hayvon nomlari asos qilib olingan. Masalan, *Echkiliksoy* (G'ijduvon tumani), *Mohon kanali* (Jondor tumani), *Qamishli quduq* (Qorovulbozor tumani), *Qovoqli quduq* (Qorovulbozor tumani), *Ilonli ariq* (Qorako'l tumani) va boshqalar.

Suv inshootlarining nomlanishida yana bir omil suvga xos xususiyatlar rangi, ta'mi, shaffofligi va boshqalar. Bunday gidronomik birliklar tarkibida *sho'r*, *shirin*, *chuchuk*, *qizil*, *qora*, *ko'k*, *oq* kabi so'zlar uchraydi. Ba'zi so'zlar polisemantik bo'yoqdorlikka ega bo'lib, o'z ma'nosidan tashqari ma'nolarni ham anglatadi. Masalan, Qorako'l gidronimi tarkibidagi "qora" so'zining rangdan tashqari "katta, buyuk" ma'nolari ham mavjud. Bu esa daryoning sersuvligi yoki hajmi kattaligini bildiradi. Oqbuloq gidronimi tarkibidagi "oq" so'zi esa suvning rangini emas, balki suvning iste'mol uchun yaroqli ekanligini anglatadi. Bunday gidronimlar nisbiylik tamoyili asosida o'rganiladi. Sho'rkashon kollektori Olot tumani hududida joylashgan bo'lib, gidronim ikki qismdan iborat. "Sho'r" so'zi suvning sho'r ta'mini ifodalasa, "kashon" so'zi forscha "oqib chiquvchi joy", "manba" degan ma'nolarni anglatadi.

Buxoro viloyatidagi ba'zi gidroobyektlarning nomlanishida joylashgan o'rni, yer qatlamining relyef tuzilishi, tuproqning tarkibiy qismlari asos bo'lib xizmat qilgan. Bunda gidronim tarkibida shimoliy, janubiy, sharqiy, g'arbiy, markaziy kabi hududni bildiruvchi so'zlar, tosh, qum, zar kabi tuproq jismlarini anglatuvchi leksik birliklar, jar, qir, ko'l, buloq, ariq singari joy nomlarini xoslovchi leksemalarni uchratish mumkin. Masalan, *Shimoliy Buxoro kollektori* (Romitan tumani), *G'arbiy Romitan kollektori* (Jondor tumani), *Qorovulbozor magistral kanali* (Buxoro tumani), *Toshquduq* (Qorovulbozor tumani), *Quyimozor kanali* (Jondor tumani), *Yomonjar kanali* (Qorako'l tumani) va boshqalar.

Ayrim suv obyektlari nomlanishiga hududning etnik tarkibi asos bo'ladi. Bunday gidronimlar har bir hududda uchraydi, ular tarixan shu hududda yashagan urug', qabila, qavmlar haqida ma'lumot beradi. *Jugut kollektori* (Buxoro tumani), *Sayot kanali* (Qorako'l tumani), *Qozoqqudug* (Buxoro tumani), *Uyg'ur ariq* (Qorako'l tumani) kabilar shular jumlasidan. Ammo ba'zi etnogidronimlar negativlik tamoyili asosida o'rganiladi. Qorako'l tumani hududidagi *Uyg'ur ariq* atrofida uyg'ur qabilalari yashagani haqida ma'lumotlar mavjud emas.

Buxoro viloyati gidronimlari orasida toponimik transfer asosida yuzaga kelgan birliklar ham uchraydi. Bunda gidroobyekt o'zi joylashgan hudud nomi bilan nomlanadi. Masalan, *Eski Shofirkon arig'i*, *Romitan arig'i*, *Markaziy Olot kollektori*, *Darvoza qudug'i* va boshqalar.

Buxoro gidronimlari tadqiqida ularning nomlanish tamoyillari, semantik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Gidronimlar ifoda xususiyatiga ko'ra

tilshunoslik, tarix, madaniyatshunoslik kabi sohalarining obykti sifatida muhim ma'lumotlar manbasi hisoblanadi. Shu bois bu boradagi tadqiqotlar kundan kunga fanning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda.

Adabiyotlar:

1. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан 1985.
2. Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлил): Филол. фанлари номзод. дисс. автореф. – Самарқанд, 1994.
3. Q M. Hakimov, M. T. Mirkamilov. Toponimika. – Toshkent, 2020.
4. Hudud ul-olam. Omonulla Bo'riyev tarjimasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
5. To'ra Nafasov, Vazira Nafasova. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
6. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008.
7. Zohid Madrahimov. Tarixiy toponimika. – Toshkent: Navro'z, 2017.

SAID AHMADNING “UFQ” ASARIDAGI TOPONIMLAR TAHLILI

Nayimova Aziza Dilmurod qizi

Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Said Ahmadning “Ufq” romanida qo'llanilgan toponimlar tahlil qilinadi. Asarda Farg'ona vodiysi aholisi hayoti, Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi davr voqealari aks ettirilgan bo'lib, unda ishlatilgan joy nomlari (toponimlar) orqali o'zbek xalqining tarixiy, madaniy va etnik xususiyatlari yoritiladi. Muallif toponimik birliklarning kelib chiqishi, ularning lingvistik va tarixiy-etnografik asoslarini ochib beradi. Jumladan, Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon, Andijon kabi nomlarning etimologiyasi izohlanadi. Maqola o'zbek tilshunosligida toponimikaning o'rni va ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Said Ahmad, Ufq romani, toponimlar, Farg'ona vodiysi, o'zbek tilshunosligi, tarixiy va madaniy xususiyatlar, etimologiya, joy nomlari, lingvistik tahlil.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТОПОНИМОВ ПРОИЗВЕДЕНИЯ

САИДА АХМАДА “УФК”

Найимова Азиза Дилмурот кизи

студентка 2-курса факультета Педагогики
направления Начального образования
Каршинский государственный университет

Аннотация. В данной статье анализируются топонимы, использованные в романе Саида Ахмада «Уфк». В произведении отражена жизнь населения Ферганской долины, события Второй мировой войны и послевоенного периода. Через использованные географические названия (топонимы) раскрываются исторические, культурные и этнические особенности узбекского народа. Автор объясняет происхождение топонимических единиц, раскрывает их лингвистическую и историко-этнографическую основу. В частности, рассматривается этимология таких названий, как Фергана, Маргилан, Коканд, Андижан. Статья способствует раскрытию роли и значения топонимики в узбекской литературе.

Ключевые слова: Саид Ахмад, роман “Уфк”, топонимы, Ферганская долина, узбекская лингвистика, историко-культурные особенности, этимология, географические названия, лингвистический анализ.

USE OF TOPONYMS IN THE WORK OF SAID AHMAD "UFK"

Nayimova Aziza Dilmurot kizi

Faculty of Pedagogy
2nd year student of the Primary Education Department
Karshi State University

Abstract. This article analyzes the toponyms used in Said Ahmad's novel Ufq. The novel reflects the life of the people of the Fergana Valley, the events of World War II, and the post-war period. Through the place names (toponyms) used in the novel, the historical, cultural, and ethnic characteristics of the Uzbek people are revealed. The author explains the origins of toponymic units, highlighting their linguistic and historical-ethnographic foundations. In particular, the etymology of names such as Fergana, Margilan, Kokand, and Andijan is discussed. The article contributes to understanding the role and significance of toponymy in Uzbek literature.

Keywords: Said Ahmad, Ufq novel, toponyms, Fergana Valley, Uzbek linguistics, historical and cultural features, etymology, geographical names, linguistic analysis.

Markaziy Osiyo xalqlari qadim zamonlardan buyon o'zlarining yashash joylarini turli nomlar bilan atab kelishgan. Hududlarning nomlanishida, ko'pincha, tarixiy voqealar, qahramon shaxslar, milliy urf-odatlar, shuningdek, aholining kasb-koriga va mashg'ulotlariga e'tibor qaratilgan. Vaqt o'tishi bilan, ba'zi joy nomlari o'zgargan, yangi nomlar paydo bo'lgan, ba'zilari esa o'zining tarixiy ma'nosini saqlab qolgan. Joy nomlarining kelib chiqishi va ularning ma'nolari, asosan, onomastika fanining toponimiya bo'limi tomonidan o'rganiladi. Onomastika – tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, atoqli otlar va ularning tarixini, tildagi qo'llanilishini o'rganadi. Toponimiya esa muayyan hududdagi joy nomlari majmuasini tashkil etadi. Toponimlar – joy nomlari bo'lib, ularning har biri o'ziga xos tarixiy, madaniy va geografik ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi. Bu nomlar orqali biz o'sha hududlarning o'ziga xosligini va tarixiy jarayonlarini tushunishimiz mumkin.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasida ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi vodiy xalqining yashash tarzi, boshidan kechirgan musibatlari ochiq oydin tasvirlangan. Adib Farg'ona kanalining qurib bitkazilishi tarixiy voqeasini qalamga olgan va asarda toponimlardan keng foydalangan, ba'zilarining etimologiyasi bilan kitobxonni tanishtirib o'tgan. Asar Farg'ona vodiysi qishloqlaridagi voqealar bilan boshlanadi. Farg'ona nomiga – qadimiy sug'd tiliga tegishli Parkona – “har tarafi tog', bir yog'igina ochiq bo'lgan vodiy”, “atrofi berk vodiy” so'zi asos bo'lgan. Farg'ona hududidagi toponimlar: *Marg'ilon*, *Qo'qon*, *Zirillama*, *Yakkatut*, *Toshloq*, *Zarkent*, *Uchqo'rg'on*, *Qoratepa*, *O'rmonbek*, *Nasriddinbek*, *Eshonto'pi*, *Tolquduq*, *Yozyovon*, *Nayman*, *Konibodom*, *Chimyon*. Andijon hududidagi toponimlar: *Kuyganyor*, *Buloqboshi*, *Lug'umbek* (*Lo'g'umbek/Lo'g'imbek*), *Izboskan*, *Oq maktab*, *Poytuq*, *Asaka*, *Oyjamol*, *To'rtko'l*, *Haqqulobod*, *Tuyachi*, *Eshon qishloq*, *Oqmozor*, *Qoryog'di*, *Qoryog'di mozor*, *Oltinko'l*, *Chuvama*, *Jalaquduq*, *Xo'jaobod*, *Yorboshi*, *Oqyor*, *Chinobod*. Yuqoridagi Andijon, Farg'ona viloyatidagi joy nomlarining aksariyati qishloqlar, bir qanchasi esa shahar va tumanlardir.

Marg'ilon – Farg'ona viloyatidagi shaharcha. Ushbu toponimni o'rgangan J.Latipovning fikricha, bu so'z “Marg'i” etnonimidan olingan. Fors tilidagi “Marg'” – “o'tloq” so'ziga aloqador. Qadimgi atalishidagi -on yoki -ot qo'shimchalari ko'plik belgisi deb qaralsa, “marg'ilar yashaydigan joy” ma'nosini bildiradi. XV asrdayoq Boburning “Boburnoma” tarixiy-memuar asarida Marg'ilon toponimi “Marg'inon” tarzida keltirilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Marg'ilon tarixiylik jihatidan ancha

qadimiy. *Qo‘qon* – Farg‘ona shaharlaridan biri. Ushbu maskanning etimologiyasi haqida turli qarashlar bor:

1. Istaxriy va Ibn Havqalning asarlarida “Havokand” (Ho‘kand) shaklida “go‘zal”, “yoqimli”, “shamol shahri” ma’nosida uchraydi. 2. Ayrim manbalarda “Ho‘qandi latif” tarzida namoyon bo‘ladi. 3. “Balandlikdagi shahar”, “Hurlar shahri” versiyalari ham mavjud. 4. Qadimiy Xitoy qo‘lyozmalarida esa “Guyshan”, “Xo‘xan” ko‘rinishida ifodalangan.

Konibodom – Farg‘ona viloyatidagi shaharlardan. “Qandi Bodom” kabi tarixiy varianti 1463-yillarda tilga olingan. “Ufq” asariga shahar aynan Katta Farg‘ona kanali bo‘yida joylashganligi sababli kiritilgan. “Boburnoma”da ushbu shaharchaning bodomlari mashhuriligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan. *Zarkent* – Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani, Farg‘ona viloyatining Quva tumani, Namangan viloyatining Yangiqo‘rg‘on tumanidagi qishloqlarning nomlari. Said Ahmadning asarida esa aynan Farg‘onaning qishloqlaridan biri sifatida keltirilgan. Etimologiyasiga e’tibor qaratsak, *zar* – oltin, *kent* – shahar, qishloq. Tarixiy varianti – *Zarankent* – Muqaddasiyda (Shosh) tilga olingan qishloq. *Zerinkat* – “pastdagi qishloq” ma’nosini anglatuvchi versiyasi ham mavjud. Qoratepa – Farg‘ona qishloqlaridan biri. Qora – pastqam balandlik, yonidagi boshqa tepalikdan bo‘ylama ko‘lami jihatidan farq qilinishini bildiradi. Tarkibida “tepa” so‘zlari bo‘lgan joy nomlari geografik jihatdan yer sathidan yuqoriroqda joylashganligi va yoki o‘sha joyda tepaliklar borligidan darak beradi. Andijon – O‘zbekistondagi viloyatlarning biri. Shahar nomining kelib chiqishi bo‘yicha bir qancha afsonalar bor. Eng keng tarqalgan afsona bo‘yicha, *Andijon* – bu ayol ismi: turklarning afsonaviy shohi Afrosiyob shahar qurgan va uni o‘zining sevimli qizi Adinajon nomi bilan atagan. Boshqa bir taxmin bo‘yicha, shahar mo‘g‘ul xonlaridan birining sevimli qizi nomiga atab qurilgan va shunday nomlangan. Boshqa bir afsonada xabar berilishicha: allaqanday xon: “Anda jon qoldi”, ya’ni “u yerda mening yuragim – sevimli yorim qoldi”, – deydi. Boshqa bir afsonalarga ko‘ra, Andijon toponimi ikki so‘zdan tashkil topgan: Olti jon, u yerda insonlarning joylashishi bo‘yicha. A.Vamberining fikricha, Andijon nomi *ant* – “qasam” va *jan* – “rozilik” so‘zlaridan kelib chiqqan.

Buloqboshi – Andijon viloyatidagi tumanlardan. Farg‘ona viloyatining O‘zbekiston tumani hamda Qo‘qon shahridagi mahalla va qishloq nomi. Asarda Andijondagi tuman nomi sifatida keltirilgan. “Buloqboshi” so‘zining o‘zbekcha muqobili “sarchashma”dir. Qorayevning fikricha, Buloqboshi nomli o‘zbek urug‘i ham mavjud. E. Murzayevning yozishicha, bu so‘z “oqmoq”, “aralashmoq” fe’lidan olingan. *Xo‘jaobod* – Andijon viloyati tumani nomiga qo‘yilgan katta qishloq. Ushbu nomni xo‘jaobodliklar Zahiriddin Muhammad Bobur davri bilan bog‘laydilar. Tarixdan ma’lumki, 1499-yili avji yozda Bobur qo‘shini bilan O‘shga ketishda tog‘

yonbag'ridagi Lotkan qishlog'ida bir kecha qo'nib o'tgan. Xotiralarda aytilishicha, Bobur o'z mulozim xo'jalardan kimgadir shu yerda (bahavo bo'lgani sabab) bir qishloq barpo qilishni buyurgan. Dilkushod qishlog'i tarixini va Xo'jaobod nomini ham shunga bog'laydilar.

“Ufq” trilogiyasida qayd etilgan Lug'umbek qishloq nomi bugungi umumiy iste'molda “Lo'g'umbek”, “Lo'g'imbek” kabi ko'rinishlarda mavjud. Xalq xotirasidagi talqinga qaraganda, aslida “lo'g'itbek” kalimasi (yirik yoki semiz, katta boy ma'nosida) talaffuzda buzilib “Lo'g'imbek” bo'lib ketgan. Ushbu qishloq kengliklari ham atrofi bilan tarixiy “Ikkisuv orasi”, ya'ni Miyonrudon sarhadidadir. Bu yerlar qadimda chorva boqiladigan va ov qilinadigan chakalakzor, qamishzor yerlari bo'lgan. Shuning uchun qishloq nomi aslida “Yulg'unbek” (yulg'un ko'p o'sgan, qalin yulg'unzor) degan ma'noda keladi.

Izboskan – Andijon viloyatidagi tuman nomi. Toponimning etimologiyasi bo'yicha bir necha qarashlar bor. Avvallari xalq orasida yaxshi tozalanmagan joyni “Isbosgan” deb atagan. Fonetik o'zgarishga uchrab, talaffuzda Izbosgan tarzida ishlatilgan. Ushbu maskanda mard, jasur, lafzli kishillar yashashgan. Avlodlar ham ajdodlar yo'lidan borib, mardlik bobomeros bo'lib qolganligi sabab Izbosgan toponimi kelib chiqqan. Leksik-grammatik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, ikkinchi taxmin haqiqatga yaqinroq: iz + -ni (tushum kelishigi belgisiz qo'llanmoqda) + bos + -gan (-kan, -qan) = iznibosgan – izbosgan – izboskan. *Izboskan* – ajdodlar qilgan ishlarni davom ettirgan ma'nosida.

Kuyganyor – Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi qishloq. “Yoqib yuborilgan oshiq” tarzida tarjima qilinadi. “Ufq”da bu tarjimaga shunday javob topishimiz mumkin. “Bir qipchoq yigiti oqyorlik Oyjamol degan qizga oshiq bo'lib ishqida kuyib-yonadi. Yigit qipchoq urug'idan bo'lganidan qizning ota-onalari rozilik berishmaydi. Yigit Oyjamol ishqida o'zini yondiradi... Ammo bu gaplar afsona, xolos. Kuyganyor qishlog'idan Qoradaryo o'tadi. Daryo o'pirgan qirg'oqlar sonsiz jarliklar hosil qilgan... Ana shundan qishloqning nomi “Kuygan jar” deb atalgan”. Turkiy tillarda “jar” so'zi ko'p hollarda “yor” leksemasiga almashtiriladi. *Jarboshi* – *Yorboshi*, *Oqjar* – *Oqyor* kabi.

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmadning “Ufq” romanida toponimlar faqatgina geografik joy nomlari sifatida emas, balki o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, madaniy merosi va milliy o'zligining ajralmas bo'lagi sifatida talqin etilgan. Asarda tilga olingan *Farg'ona*, *Qo'qon*, *Andijon*, *Marg'ilon* kabi onomastik birliklar voqealarning haqiqatga yaqinligini kuchaytiradi, o'quvchiga tasvirlangan manzaralarni ko'z oldida gavalantirishga yordam beradi. Bunday toponimlar orqali muallif o'z davrining ruhini, urush yillaridagi murakkab ijtimoiy-tarixiy holatni va xalq ruhiyatidagi o'zgarishlarni chuqur yoritadi. Shuningdek, maqolada bu toponimlarning etimologiyasi, ularning lingvistik va tarixiy-etnografik asoslari tahlil qilingan bo'lib,

bu jihatlar asarning badiiy qiymatini oshirish bilan birga, o'zbek toponimik merosining adabiyotdagi o'rnini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot o'zbek tilshunosligida toponimlarning ahamiyatini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etib, adabiy matnlarning mazmuniy qatlamlarini anglashda yangi yondashuvlarni taklif etadi. Mening fikrimcha, kelgusida adabiy asarlarda qo'llanilgan toponimlarni yanada chuqurroq o'rganish, ularning xalq tafakkuridagi aksini tahlil qilish, madaniyatlararo aloqalarda tutgan o'rnini aniqlash kabi yo'nalishlar bo'yicha izlanishlar olib borish zarur.

Adabiyotlar:

1. Саид Аҳмад. Уфқ. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
2. Jo'rayev M. Toponimika asoslari. – Toshkent: Fan, 2000.
3. Karimov T. O'zbek toponimikasi: tarix va zamon talqinida. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
4. Rasulov B. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
5. Yo'ldoshev A. Adabiy matn va til. – Toshkent: Fan, 2013.
6. Tursunov B. Adabiy tahlil nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 2011.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006.

**“Onomastika” xalqaro elektron ilmiy
jurnalida quyidagi ruknlar bo‘yicha maqolalar chop etiladi:**

- Davlat tili va onomastika;
- Tarixiy va zamonaviy onomastika bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalari;
- Onomastik lingvopoetika;
- Onomastikada imlo masalalari;
- Onomastika va neyming (brendologiya)
- Tarix, geografiya bo‘yicha onomastik ilmiy tadqiqot natijalari;
- Onomastik leksikografiya.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 8 sahifadan kam bo‘lmasligi shart;
- Maqolalar o‘zbek, rus, ingliz tillarida qabul qilinadi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
 1. Maqola sarlavhasi.
 2. Muallifning F.I.Sh. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart. Lavozimi, ilmiy unvoni, tashkilot, shahar, mamlakat va elektron pochta adresi to‘liq keltiriladi.
 3. Annotatsiya (maqolaning qisqacha mazmun va maqsadi, 90 so‘zdan kam bo‘lmasligi lozim) o‘zbek, rus, ingliz tillarida beriladi.
 4. Kalit so‘zlar o‘zbek, rus, ingliz tillarida (10-15 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak).

Maqolaning tarkibiy qismi:

Kirish (Introduction)

Asosiy qism (Main part)

Natijalar va muhokama (Results and Discussions)

Xulosalar (Conclusions)

Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi.

- Maqola Times New Roman shriftida, 14 kattalikda, 1,5 intervalda tayyorlanadi;
- maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim;
- maqolaga havola (snoska)lar [1, 2,...] ko‘rinishida va maqola so‘ngida adabiyot sifatida ko‘rsatilishi lozim;
- maqola tomonlari chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

- tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo'lsa, barcha savol va e'tirozlar bo'yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari egasiga qaytarilmaydi.
- maqolada keltirilgan ma'lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko'chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas'uldir;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi;
- maqola so'ngida muallif(lar) telefon raqamini kiritishlari shart.

В научном международном журнале

“Ономастика” статьи будут изданы по следующим направлениям:

- Государственный язык и ономастика;
- Результаты научных исследований по исторической и современной ономастике;
- Ономастическая лингвопоэтика;
- Вопросы правописания в ономастике;
- Ономастика и нейминг (брендология)
- Результаты ономастических научных исследований по истории, географии;
- Ономастическая лексикография.

ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Статья должна предоставляться не менее 8 страниц;
- Статьи принимаются на узбекском, русском, английском языках;
- Структура статьи:
 1. Название статьи.
 2. Ф.И.О автора (необходимо писать полностью), если авторов несколько, необходимо предоставить полную информацию о каждом из них. Должность, ученое звание, организация, город, страна и адрес электронной почты указываются полностью.
 3. Аннотация (краткое содержание и цель статьи, не меньше 90 слов) дается на узбекском, русском, английском языках.
 4. Ключевые слова на узбекском, русском, английском языках (должны состоять из 10-15 слов).

Содержание статьи:

Введение

Главная часть

Результаты

Обсуждение

Выводы

Литература – перечисляются в алфавитном порядке.

Статьи оформляются в формате Times New Roman, размер шрифта 14, интервал 1,5;

- если в статью включены рисунки, таблицы, схемы, различные графические обозначения, то они должны быть четко и ясно описаны, должно быть написано полное расшифровывание сокращений;

- ссылки на использованные источники (сноски) приводятся после цитаты в квадратных скобках с указанием порядкового номера источника цитирования [1,2,...]. Список литературы помещается в конце текста под заголовком «Литература»;
- оформление статьи слева 3 см, справа 1,5 см, сверху и снизу 2 см;
- не менее 70-80% текста статьи должно быть основано на результатах личного исследования автора. Присылаемые статьи проверяются с помощью системы «Антиплагиат».
- статьи, поступающие в редакцию, рецензируются редакцией. После возврата статьи с рецензирования при необходимости все вопросы и возражения передаются автору на обработку. Копии статей не возвращаются владельцу.
- автор(ы) несут ответственность за научную основу, достоверность и правдоподобие информации и доказательств, представленных в статье;
- в 1 номере журнала публикуется только 1 статья автора;
- автор(ы) должны указать свой номер телефона в конце статьи.

**Articles are published in the scientific
international journal “Onomastics” in the following areas:**

- State language and onomastics;
- The results of scientific research on historical and modern onomastics;
- Onomastic linguopoetics;
- Issues of spelling in onomastics;
- Onomastics and naming (brandology);
- Results of onomastic research in history, geography;
- Onomastic lexicography.

REQUIREMENTS FOR FORMING ARTICLES:

- The article must not be little from 8 pages;
- Articles are accepted in Uzbek, Russian, English;
- Article structure:
 1. Title of the article.
 2. Full name of the author (it is necessary to write in full), if there are several authors, it is necessary to provide full information about each of them. Position, academic title, organization, city, country and e-mail address are indicated in full.
 3. Abstract (brief content and purpose of the article, no more than 90 words) is given in Uzbek, Russian, English.
 4. Keywords in Uzbek, Russian, English (must consist of 10-15 words).

The content of the article:

Introduction

Main part

Results and discussion

Conclusion

Literature is listed in alphabetical order.

Articles are formatted as Times New Roman, font size 14, spacing 1.5;

- If the article includes figures, tables, diagrams, various graphic designations, then they should be clearly and clearly described, a full decoding of abbreviations should be written;
- References to the sources used (footnotes) are given after the quotation in square brackets, indicating the ordinal number of the citation source [1,2,...]. The list of references is placed at the end of the text under the heading "Literature";
- Design of the article on the left 3 cm, on the right 1.5 cm, top and bottom 2 cm;

- At least 70-80% of the text of the article should be based on the results of the author's personal research. Submitted articles are checked using the system of "Antiplagiat".
- Articles submitted to the editors are reviewed by the editors. After the article is returned from review, if necessary, all questions and objections are transferred to the author for processing. Copies of articles are not returned to the owner.
- The author(s) are responsible for the scientific basis, reliability and credibility of the information and evidence presented in the article;
- Only one article of the author is published in 1st issue of the journal;
- The author(s) must include their phone number at the end of the article.

